Geografiya·10

O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

YANGI NASHR



Toshkent — 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 91(072)
KBK 26.8
G 35

Tuzuvchilar:

J. A. Ismatov, M. M. Hojiyeva, F. M. Rahimov, N. I. Safarova, A. M. Tashkentov

Taqrizchilar:

Z. Abdalova — Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti geografiya va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi.

V. Fedorko — Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 233-maktab geografiya fani o‘qituvchisi, geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Zaripova — Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi 4-maktabning oliy toifali geografiya fani o‘qituvchisi.

Geografiya [Matn]: 10-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / J. Ismatov [va boshq.]. — Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. — 160 b.

ISBN 978-9943-8828-4-3

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.
Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9943-8828-4-3

© Respublika ta’lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Mundarija

Kirish 5
Geografiya darslarida foydalanish tavsiya etiladigan ilg‘or metodlardan namunalar 6

I bo‘lim. Jahonning umumiy tavsifi 14

1-BOB. JAHONNING SIYOSIY XARITASI 14
1-§. Jahonning siyosiy xaritasi 14
2-§. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi bo‘yicha tasnifi 17
3-§. Mamlakatlarning boshqaruv shakli va davlat tuzilishi 20
4-§. Amaliy mashg‘ulot. *Jahon siyosiy xaritasi bilan ishlash* 22

2-BOB. JAHON TABIIY RESURSLARI 26
5-§. Mineral resurslar geografiyasi 26
6-§. Tugamaydigan va tiklanadigan tabiiy resurslar geografiyasi 29
7-§. Loyiha darsi. Global ekologik muammolar 32

3-BOB. JAHON AHOLISI 33
8-§. Dunyo aholisining soni, o‘sishi va joylashishi 33
9-§. Jahon aholisining yoshi, jinsiy va irqiy tarkibi 35
10-§. Dunyo aholisining etnik va diniy tarkibi 37
11-§. Jahon mamlakatlarining urbanizatsiyasi 40
12-§. Amaliy mashg‘ulot. *Aholi harakati, tarkibi va joylashuviga oid masalalar* 42

4-BOB. JAHON XO‘JALIGI GEOGRAFIYASI 46
13-§. Jahon xo‘jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti 46
14-§. Jahon iqtisodiyoti markazlari va xalqaro integratsiya jarayonlari 48
15-§. Amaliy mashg‘ulot. *Jahon xo‘jaligi va uning tarkibini o‘rganish* 51
16-§. Jahon energetikasi geografiyasi 53
17-§. Amaliy mashg‘ulot. *Jahon sanoati geografiyasi va uning o‘zgarib borishini o‘rganish* 55
18-§. Jahon qishloq xo‘jaligi geografiyasi 58
19-§. Jahon transporti geografiyasi 60
20-§. Xalqaro iqtisodiy aloqalar geografiyasi 62
21-§. Umumlashtiruvchi dars 64

5-BOB. YEVROPA MAMLAKATLARI 67
22-§. Yevropaning geografik o‘rni, chegaralari va siyosiy xaritasi 67

II bo‘lim. Jahonning regional tavsifi 67
23-§. Amaliy mashg‘ulot. *Yevropa siyosiy xaritasini o‘rganish* 70
24-§. Germaniya Federativ Respublikasi 72
25-§. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi 74
26-§. Fransiya Respublikasi 77
27-§. Italiya Respublikasi 79
28-§. Rossiya Federatsiyasi 81
29-§. Rossiya Federatsiyasi xo‘jaligi 83
30-§. Umumlashtiruvchi dars 85

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

6-BOB. OSIYO MAMLAKATLARI 88
31-§. Osiyo qit'asining geografik o'rni, chegaralari va siyosiy xaritasi 88
32-§. Amaliy mashg'ulot. *Osiyo siyosiy xaritasini o'rganish* 90
33-§. Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganligi 92
34-§. Qozog'iston Respublikasi 94
35-§. Qirg'iz Respublikasi 96
36-§. Turkmaniston Respublikasi 98
37-§. Tojikiston Respublikasi 100
38-§. Amaliy mashg'ulot. *Markaziy Osiyo mamlakatlarining qiyosiy geografik tavsifi* 103
39-§. Turkiya Respublikasi 106
40-§. Amaliy mashg'ulot. *Eron, Afg'oniston va Pokistonning qiyosiy geografik tavsifi* 108
41-§. Xitoy Xalq Respublikasi 111
42-§. Xitoy iqtisodiyoti va iqtisodiy rayonlari 113
43-§. Koreya Respublikasi 115
44-§. Yaponiya 118
45-§. Hindiston Respublikasi 120
46-§. Fors qo'ltig'i arab davlatlari 123
47-§. Umumlashtiruvchi dars 125

7-BOB. AFRIKA, AVSTRALIYA VA OKEANIYA, AMERIKA MAMLAKATLARI 129
48-§. Afrikaning geografik o'rni, siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari 129
49-§. Afrika mamlakatlarining aholisi va xo'jaligi 132
50-§. Janubiy Afrika Respublikasi 135
51-§. Nigeriya Federativ Respublikasi 137
52-§. Misr Arab Respublikasi 140
53-§. Amaliy mashg'ulot. *Afrikaning siyosiy xaritasi, tabiiy va iqtisodiy-geografik sharoitini o'rganish* 142
54-§. Avstraliya Ittifoqi 145
55-§. Amerikaning siyosiy xaritasi 147
56-§. Amerika Qo'shma Shtatlari 149
57-§. AQSH xo'jaligi va iqtisodiy rayonlari 151
58-§. Kanada 154
59-§. Braziliya 156
60-§. Umumlashtiruvchi dars 158

Kirish

Mazkur qo‘llanma 10-sinf "Geografiya" darsligini o‘qitish bo‘yicha metodik tavsiyalardan iborat bo‘lib, o‘quvchilarning darsga qiziqishlari va faolligini oshirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va metodlarini qo‘llash orqali darslarni sifatli tashkil etish hamda ta’lim mazmunini boyitishda o‘qituvchilar uchun metodik yordam sifatida yaratilgan.

Qo‘llanmada har bir darsning maqsadi, ta’lim vositalari, darsdan kutiladigan natija, darsda o‘quvchilar qanday kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerakli, mavzuni qaysi fanlar bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish bayon etilgan. Shuningdek, dars jarayonida o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy muammoning yechimi uchun tavsiyalar berilgan.

Darsni bosqichlarga ajratish va har qaysi bosqichni amalga oshirish yo‘llari bayon etilgan. Masalan, nazariy darslarni quyidagi bosqichlarda tashkil etish mumkin:

- tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya);
- o‘tilgan mavzuni mustahkamlash (bilimlarni faollashtirish);
- yangi mavzu bayoni;
- yangi mavzuni mustahkamlash;
- refleksiya (erishilgan natijalar tahlili);
- baholash va uyga vazifa.

Qo‘llanmada mavzularni o‘qitishni qanday ketma-ketlikda amalga oshirish hamda qaysi metodlardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Shu bilan birga, o‘tilgan hamda yangi mavzuni mustahkamlash uchun tavsiyaviy usullar keltirilgan bo‘lib, ulardan o‘quvchilar darslikda berilgan savol va topshiriqlarni bajarib bo‘lganidan keyin qo‘shimcha vazifa sifatida foydalanish mumkin.

Uyga vazifa uchun darslikda berilgan va o‘quvchilar dars davomida bajarishga ulgurmagan savol va topshiriqlardan yoki ushbu metodik qo‘llanmada tavsiya qilingan usullardan foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi va faolligi, mavzuning murakkablik darajasi kabi jihatlardan kelib chiqib, uyga beriladigan vazifalar tanlanadi.

10-sinf “Geografiya” darsligining avvalgi darsliklardan asosiy farqlaridan biri unda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini boyitish hamda mustahkamlash maqsadida amaliy mashg‘ulotlar va umumlashtiruvchi darslarga ajratilgan soatlar sezilarli darajada ko‘pligi, ushbu darslarda berilgan topshiriqlarning aksariyat qismi o‘ziga xos murakkabliklarga egaligi va mantiqiy fikrlashni talab qilishidir. Shuni hisobga olgan holda mazkur qo‘llanmada darslikdagi amaliy mashg‘ulotlar va umumlashtiruvchi darslarda berilgan deyarli barcha topshiriqlarni bajarish usullari va ularning javoblari ham bayon etilgan. Bu ayniqsa pedagogik faoliyatining ilk bosqichida bo‘lgan o‘qituvchilar uchun dars mashg‘ulotlarini mazmunli o‘tkazishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, qo‘llanmada hozirgi vaqtda ta’lim tizimida keng foydalanilayotgan zamonaviy ta’lim texnologiyalari va metodlarining ayrimlariga tavsif berilgan.

Qo‘llanmani tayyorlashda 10-sinf “Geografiya” darsligi, geografik atlaslar, pedagogika sohasidagi turli adabiyotlar va boshqa ilmiy-uslubiy ishlardan foydalanildi.

Geografiya darslarida foydalanish tavsiya etiladigan ilg‘or metodlardan namunalar

“Aqliy hujum” metodi

Bu metod biror mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llanadi. U o‘quvchilarni muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritishga, o‘z tasavvurlari va g‘oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma’lum ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga undaydi. “Aqliy hujum” metodi yordamida qo‘yilgan muammo yuzasidan bir necha yechimlarni topish imkoniyati yuzaga keladi.

Ushbu metoddan samarali foydalanish uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim:

— mashg‘ulot ishtirokchilarining o‘zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish;

— g‘oyalarni yozib borish uchun doska yoki varaqlarni tayyorlab qo‘yish;

— muammoni aniqlash;

— mashg‘ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan shartlarni belgilash;

— bildirilayotgan g‘oyalar ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish;

— muayyan qog‘oz varaqlari g‘oya yoki fikrlar bilan to‘lgandan so‘ng ularni yozuv taxtasiga osib qo‘yish;

— bildirilgan fikrlarni yangi g‘oyalar bilan boyitish asosida ularni qo‘llab-quvvatlash;

— boshqalar tomonidan bildirilgan fikr yoki g‘oyalar ustidan kulishga, ularga nisbatan kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

— ta’lim oluvchilar tomonidan yangi g‘oyalar bildirilishi davom etayotgan bo‘lsa, muammoning yagona to‘g‘ri yechimini e’lon qilishga shoshilmaslik.

Shuningdek, mazkur metoddan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. Berilgan muammo yuzasidan o‘quvchilarni atroflicha va chuqur mulohaza yuritishga undash va ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.

2. Har bir ta’lim oluvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g‘oyalar miqdorini rag‘batlantirib borish. Bu bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari, fikrlarning rag‘batlantirilishi navbatdagi yangi fikr yoki g‘oyalarning yaratilishiga olib keladi.

3. Har bir ta’lim oluvchi o‘zining shaxsiy fikri yoki g‘oyalariga asoslanishi hamda ularni o‘zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr yoki g‘oyalarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikr yoki g‘oyalarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4. O‘quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar va g‘oyalarni baholamaslik. Bunday yo‘l tutilsa, ya’ni fikr va g‘oyalar baholansa, o‘quvchilar fikrlashdan to‘xtab qolishlari mumkin.

Mashg‘ulotlarda “Aqliy hujum” metodini o‘rinli qo‘llash orqali o‘quvchilarni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatish mumkin.

“Fikriy hujum” metodi

Mazkur metod o‘quvchilarning mashg‘ulotlar jarayonidagi faolligini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash odatidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rganish uchun xizmat qiladi.

“Fikriy hujum” metodining asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir. Ta’lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko‘lamining kengligiga bog‘liq bo‘ladi.

“Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog‘ida o‘quvchilarning soni 10—15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.

“Yalpi fikriy hujum” metodi

Metod o‘quvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar o‘quvchilarni o‘z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo‘lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Mazkur topshiriq yoki vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a’zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o‘qituvchi va boshqa guruhlar a’zolari tomonidan muhokama qilinadi va baholanadi. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasidan eng yaxshi va o‘ziga xos deb topilgan javoblarni e’lon qiladi. Mashg‘ulot jarayonida guruhlar a’zolarining faoliyati ularning ishtiroki darajasiga ko‘ra baholab boriladi.

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi

Metodning mohiyati quyidagilardan iborat:

— jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish;

— o‘quvchilarda ma’lum jamoa tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g‘oyani ilgari surish layoqatini shakllantirish.

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodidan foydalanishga asoslangan mashg‘ulot quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1. Ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan o‘quvchilarni o‘zida biriktirgan hamda son jihatidan teng bo‘lgan kichik guruhlarni shakllantirish.

2. Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash.

3. Guruhlar tomonidan muayyan g‘oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlar hal etilishi).

4. Topshiriqlarning yechimini muhokama etish, ularni to‘g‘ri hal etilganiga ko‘ra turkumlarga ajratish.

5. Topshiriqlarning yechimini qayta turkumlashtirish, ya’ni ularning to‘g‘riligi, yechimni topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayoni etilishi kabi mezonlar asosida baholash.

6. Dastlabki bosqichlarda topshiriqlarning yechimi yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish.

Metodni qo‘llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

— o‘quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga erishish;

— vaqtni tejash;

— har bir o‘quvchini faollikka undash;

— o‘quvchilarda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

“6×6×6” metodi

Ushbu metod yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo‘ladi. Yangidan shakllangan guruh a’zolari o‘z jamoadoshlariga guruhi muammo yechimi sifatida taqdim etgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

“6×6×6” metodining afzalliklari:

— guruhlarning har bir a’zosini faol bo‘lishiga undaydi;

— ular tomonidan shaxsiy qarashlar ifoda etilishini ta’minlaydi;

— guruhning boshqa a’zolari fikrlarini tinglay olish ko‘nikmalarini hosil qiladi;

— ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o‘z fikrini himoya qilishga o‘rgatadi.

Eng muhimi, mashg‘ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma’ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5, 6, 7 va 8 nafar o‘quvchidan iborat bo‘lgan bir necha guruhlarda qo‘llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o‘rtasida qo‘llanganda vaqtni ko‘paytirishga to‘g‘ri keladi. Chunki bunday mashg‘ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun ham birmuncha ko‘p vaqt talab etiladi. So‘z yuritilayotgan metod qo‘llanayotganda mashg‘ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzuni tahlil qilish imkoniyati mavjud.

“6×6×6” metodidan ta’lim jarayonida foydalanish o‘qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatini talab etadi. Guruhlarning to‘g‘ri shakllantirilmasligi topshiriq yoki vazifalarning to‘g‘ri hal etilmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu metod yordamida mashg‘ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo‘yib chiqadi.

2. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo‘linadi. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lishda har bir o‘rindiq nomlanadi, nomi ko‘rsatilgan varaqchalarni olganlar o‘z o‘rinlariga joylashadilar.

3. O‘quvchilar joylashib olganlaridan so‘ng o‘qituvchi mashg‘ulot mavzusini e’lon qiladi va guruhlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma’lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.

4. O‘qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o‘rinlarda guruh a’zolariga maslahatlar beradi, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi hamda guruhlar berilgan topshiriqlarni to‘g‘ri hal etganiga ishonch hosil qilganidan so‘ng guruhlardan munozarani yakunlashlarini so‘raydi.

Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo‘ladi. Yangidan shakllan-

gan guruh a’zolari o‘z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

“Klaster” metodi

“Klaster” metodi ta’lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o‘ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishda yordam beradi. Mazkur metod aniq obyektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. “Klaster" metodi muayyan mavzuni ta’lim oluvchilar chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyati bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda ushbu metod guruh a’zolari tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa guruhning har bir a’zosi tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalarni uyg‘unlashtirish hamda ular o‘rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.

“Klaster” metodini qo‘llash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich. Nimani o‘ylagan bo‘lsangiz, qog‘ozga tushiring. Fikringizning sifati to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay, ularni shunchaki yozib boring.

2-bosqich. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermang.

3-bosqich. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmagunca yozishdan to‘xtamang. Agar ma’lum muddat biror-bir g‘oyani o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilgunga qadar davom ettiring.

4-bosqich. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda mazkur g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikni ko‘rsatishga harakat qiling. G‘oyalar yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatishni cheklamang.

“Klaster”metodidan ta’lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.

“Insert” metodi

Bunda sinf o‘quvchilari guruhlarga bo‘linadi va guruhlar nomlanadi. O‘qituvchi har bir guruh o‘quvchilaridan mavzuga oid ikkitadan fikr bildirishlarini so‘raydi. Guruhlar navbati bilan fikr bildiradilar (ushbu jarayonda guruhning barcha a’zolari faol ishtirok etishlarini ta’minlash maqsadga muvofiq). Bayon etilgan fikrlar doskaga yozib boriladi. Faoliyat yakunlangach, o‘qituvchi mavzular mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi matnni o‘quvchilarga tarqatadi. So‘ngra shunday topshiriq beriladi:

a) matn bilan tanishib chiqing;

b) matnning har bir qatoriga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing:

Z — matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikr o‘z aksini topgan bo‘lsa;

S — matnda guruhlar tomonidan bildirilmagan fikr yuritilgan bo‘lsa;

D — matnda bir-biriga zid fikrlar mavjud bo‘lsa;

? — matn bilan tanishish jarayonida tushunmovchiliklar yuzaga kelsa.

So‘ngra guruh a’zolari shaxsiy qarashlarini o‘zaro o‘rtoqlashadilar, guruh bo‘yicha belgilar soni umumlashtiriladi. Liderlar vositasida har bir belgining miqdori bayon etiladi va izohlanadi. O‘qituvchi guruhlar tomonidan qayd etilgan sonlarni ularning nomlari yozilgan ustunga yozib boradi.

O‘qituvchi har bir guruh lideri fikrini tugatgach, yuzaga kelgan qarama-qarshilik va tushunmovchiliklarni o‘quvchilar to‘g‘ri hal etishlariga va tushunib olishlariga yordam beradi. Shundan so‘ng guruhlar darslikda berilgan matn bilan tanishib chiqib, asosiy tushunchalarni ajratadilar, ular o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlarni ochib berishga harakat qiladilar (modellashtiradilar). Guruhlar tomonidan ilgari surilgan fikrlar umumlashtirilib, liderlar tomonidan sinf jamoasiga yetkaziladi.

“Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi, ...) ortiqcha” metodi

O‘quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmaga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

— o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

— hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan 4 ta (5 ta, 6 ta, …) va taalluqli bo‘lmagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish;

— o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

— o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni ko‘rsatish va asoslay olish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini asoslash, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o‘zaro taqqoslash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

“3/3 (4/4, 5/5, ...)” metodi

Mazkur metod ham yuqorida qayd etilgan metodlarning muqobili hisoblanib, o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Unga ko‘ra, o‘qituvchi mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan 3 ta (4 ta, 5 ta va …) to‘g‘ri hamda unga teng nisbatda (3 ta, 4 ta, 5 ta va …) bo‘lgan va noo‘rin qo‘llangan tushunchalar (so‘zlar, belgilar, tasvirlar va …)dan iborat tizimni shakllantiradi. O‘quvchilar ushbu tizimdan mavzu (yoki bo‘lim, bob) ga taalluqli bo‘lmagan tushunchalarni ajratadilar va harakatlarining mohiyatini izohlaydilar. Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

— o‘qituvchi o‘zaro teng nisbatda mavzu (yoki bo‘lim, bob)ga oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;

— o‘quvchilar mavzu (yoki bo‘lim, bob)ga oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar, daxldor bo‘lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;

— o‘quvchilar o‘z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o‘quvchilar tomonidan mavzuning puxta o‘zlashtirilishini ta’minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

“Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash” metodi

O‘quvchilar bilan ommaviy va guruh shaklida ishlashda ushbu metoddan foydalanish ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

— o‘qituvchi tomonidan o‘rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi (har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi “yadro” tushunchaning bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi);

— har guruhga maxsus kartochkalarning alohida majmui topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchalarga asosan mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi;

— guruhlar tomonidan topshiriq bajarib bo‘lingach, kartochkalarning orqa tomoni o‘giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qay darajada to‘g‘ri bajarilgani aniqlanadi.

Agar topshiriq guruhlar tomonidan to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa, yakuniy jarayonda kartochkalar orqa tomonga o‘girilganda mavzuning mohiyatini yorituvchi “yadro” tushuncha hosil bo‘ladi.

Metoddan foydalanishning afzalligi shundaki, bu jarayonda o‘quvchilarda mavzuni muayyan qismlarga bo‘lib o‘rganish va qismlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik hamda aloqadorlikni analiz va sintez asosida aniqlash ko‘nikmalari hosil qilinadi.

“Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” metodi

Ushbu metod o‘quvchilarga muayyan mavzular bo‘yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo‘llash jarayonida o‘quvchilar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg‘ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagi ko‘rinishda tashkil etilishi mumkin:

1. Har bir guruh umumiy jadval asosida o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg‘ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyiha bandlari bo‘yicha umumlashtiriladi.

2. Guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi.

O‘quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog‘ozida o‘z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Metoddan foydalanish 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1. O‘quvchilarning o‘rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo‘yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.

2. O‘quvchilarning mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo‘lgan ehtiyojlari o‘rganiladi.

3. O‘quvchilar mavzuga oid ma’lumotlar bilan batafsil tanishtiriladi.

Bosqichlar bo‘yicha amalga oshirilgan harakatlarning to‘liq tafsiloti quyidagicha:

— sinf o‘quvchilari guruhlarga biriktiriladi ;

— o‘quvchilarning yangi mavzu bo‘yicha tushunchalarga egalik darajasi o‘rganiladi;

— o‘quvchilar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyihaning 1-bandiga yozib boriladi;

— o‘quvchilarning yangi mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo‘lgan ehtiyojlari o‘rganiladi;

— o‘quvchilarning ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib boriladi;

— o‘qituvchi yangi mavzuga oid umumiy ma’lumotlardan o‘quvchilarni xabardor qiladi;

— o‘quvchilar o‘zlashtirgan yangi tushunchalar aniqlanadi;

— bayon etilgan yangi tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib qo‘yiladi;

— mashg‘ulot yakunida loyiha yaratiladi.

“Zig-zag” metodi

Mazkur metod o‘quvchilar bilan guruh asosida ishlash, mavzuni tezkor va puxta o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Metodning afzalligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

1. O‘quvchilarda jamoa (yoki guruh) bo‘lib ishlash ko‘nikmasi shakllanadi;

2. Mavzuni o‘zlashtirishga sarflanadigan vaqt tejaladi.

“Zig-zag” metodini qo‘llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

— sinf o‘quvchilari bir necha (5—7 ta) guruhga bo‘linadi;

— yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ham tegishli ravishda 5—7 ta qismga ajratiladi;

— har bir guruhga mavzuning muayyan qismi (1-matni, 2-matni, …) beriladi va uni o‘rganish vazifasi topshiriladi;

— belgilangan vaqt mobaynida guruhlar matn ustida ishlaydilar;

— vaqtni tejash maqsadida guruh a’zolari orasidan liderlar tanlanadi va ular o‘rganilgan matnga oid asosiy ma’lumotlarni guruhdoshlariga so‘zlab beradilar;

— liderlarning fikri guruh a’zolari tomonidan to‘ldirilishi mumkin;

— barcha guruhlar o‘zlariga berilgan matnni puxta o‘zlashtirganlaridan so‘ng matnlar guruhlararo almashtiriladi;

— bu bosqichda ham yuqoridagi faoliyat takrorlanadi;

— shu taxlitda mavzu mohiyatini yorituvchi yaxlit matn o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtiriladi.

“Venn diagrammasi” metodi

Ushbu metod o‘quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mazmunini o‘zlashtirish ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. Metod kichik guruhlarni shakllantirish asosida sxema bo‘yicha amalga oshiriladi. Yozuv taxtasi o‘zaro teng 4 bo‘lakka ajratiladi va har bir bo‘lakka sxema chiziladi.

Mazkur metod o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilimlar, ma’lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

“Venn diagrammasi” metodini qo‘llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

— sinf o‘quvchilari 4 guruhga bo‘linadi;

— yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi;

— har bir guruhga o‘zlashtirilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlar beriladi;

— topshiriqlar bajarilgach, guruh a’zolari orasidan liderlar tanlanadi;

— liderlar guruh a’zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to‘ldiradilar.

“Zakovatli zukko” metodi

Mavjud bilimlarni puxta o‘zlashtirishda o‘quvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim. “Zakovatli zukko” metodi o‘quvchilarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezligini aniqlashga yordam beradi. Metod o‘z xohishlariga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko‘ra har biriga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o‘rtacha arifmetik qiymatini topish asosida tezlik aniqlanadi.

Ballarning belgilanishi o‘quvchilar shaxsiy imkoniyatlari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Metod o‘quvchilar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo‘llanishi mumkin.

“Guruhda o‘qitish” metodi

“Guruhda o‘qitish”da o‘quvchilar teng ikkita guruhga ajratiladi. Har ikkala guruh bir xil topshiriqni bajaradi. Guruh a’zolari o‘quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o‘quvchi mavzudan ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga e’tiborini qaratadi.

“Guruhda o‘qitish” metodi mualliflaridan biri bo‘lgan R. Slavinning ta’kidlashicha, o‘quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko‘rsatma berilishi yetarli emas. O‘quvchilar o‘rtasida tom ma’nodagi hamkorlik uchun har bir o‘quvchining qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur metodda o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o‘quvchining kundalik natijasi avval qo‘lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina o‘quvchilar o‘zining dars davomida erishgan natijasi guruhga foyda keltirishini anglagan holda mas’uliyatni his qilib ko‘proq izlanishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta o‘zlashtirishga intiladi.

“Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish” metodi

Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o‘quvchidan tashkil topadi. O‘qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma’lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o‘rtoqlarini o‘qitadi, so‘ngra guruh a’zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O‘qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni baholaydi.

O‘quvchilarning kichik guruhlardagi o‘quv faoliyati o‘yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

“Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish” metodi

Bu metodda o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlashiga ko‘proq e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o‘rganish lozim bo‘lgan o‘quv materiali kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o‘quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o‘quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o‘tkaziladi. Guruh a’zolari birgalikda ma’ruza tayyorlaydi va sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘z ijodiy izlanishlari natijasini e’lon qiladi. Kichik guruhlar o‘rtasida o‘tkazilgan o‘quv bahsi, munozara o‘quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar har bir o‘quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarni, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni kutilmagan vaziyatlarda qo‘llab, yangi bilimlarni o‘zlashtirishiga bog‘liq bo‘ladi.

“Nuqtayi nazaring bo‘lsin” metodi

Ushbu metod o‘quvchilar o‘rtasida munozara uyushtirish, ular munozara jarayonida sinfdoshlaridan yangi g‘oyalarni eshitib, o‘z fikrlarini o‘zgartirishi yoki aksincha, mustahkamlashi uchun qo‘llanadi. O‘quvchilar, shuningdek, maktab, mintaqa, respublika va butun insoniyat uchun xarakterli bo‘lgan eng dolzarb muammolar bo‘yicha o‘z nuqtayi nazarlarini asosli dalillash va himoya qilishga o‘rganadilar.

“Nuqtayi nazaring bo‘lsin" metodini qo‘llashning afzalliklari:

— o‘quvchilar muayyan muammoga nisbatan o‘z nuqtayi nazarini asosli dalillab, himoya qilishga o‘rganadilar;

— o‘quvchiga muammo muhokamasi jarayonida o‘z fikrini o‘zgartirish imkoni beriladi;

— o‘qituvchi barcha o‘quvchilarni munozaraga jalb etishi va jonli munozara o‘tkazishi mumkin.

Metodni qo‘llashda quyidagilarga e’tibor berish zarur:

1. Tayyorgarlik: o‘qituvchi sinfning to‘rt burchagiga yoki sinfning ma’lum ochiq makoniga to‘rtta taxtacha osib qo‘yadi.

2. Sinfxona o‘lchami yoki o‘quvchilar soniga bog‘liq holda olti yoki sakkiz ko‘ngillini chaqiradi.

3. Metod paytida band bo‘lishi uchun ishtirok etmayotgan o‘quvchilarga ham topshiriq beriladi.

Darsni boshlashdan avval o‘qituvchi yo‘l-yo‘riqlar berishi zarur. Jumladan:

1. Ta’kidlov o‘qib berilganidan keyin o‘z fikringizga muvofiq taxtachalar yonidan joy egallang.

2. O‘z nuqtayi nazaringizni asosli dalillab berishga shay turing.

3. Agar muammo bo‘yicha nuqtayi nazaringizni o‘zgartirishga undovchi asosli dalilni eshitsangiz, o‘z o‘rningizni almashtirishingiz mumkin.

4. Sinfdoshlaringiz ta’kidlariga o‘z fikringizni bayon etishga shay turing.

O‘qituvchi darsda ishtirok etmayotgan o‘quvchilarga topshiriqlar beradi. Masalan:

— eng ahamiyatli deb bilgan ta’kidlarini yozib borish;

— o‘yin jarayonida o‘z o‘rnini o‘zgartirmagan o‘quvchilarni yozib borish;

— eng asosli dalillab berilgan javoblarni yozib borish.

“Kungaboqar” metodi

Bunda o‘quvchilar 4–5 kishidan iborat guruhlarga bo‘linadi. O‘qituvchi mavzu mohiyatidan kelib chiqib, o‘rtaga biror muammo tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab doiraga har bir guruh uchun yoki umumiy bitta muammo yozilib, doskaga yopishtiriladi. Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlarini bargga yozib, uni o‘sha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo‘yadilar. Bu metoddan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash, o‘quvchilar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin.

“Qora quti” metodi

Ta’lim jarayonida mazkur metodni qo‘llashdan maqsad o‘quvchilar mavzuni puxta o‘zlashtirishiga erishish, ularni faollikka undash, hamkorlikda ishlash, ma’lum vaziyatlarni boshqarish va mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Metoddan foydalanish quyidagicha tashkil etiladi:

— o‘quvchilar juftlikka biriktiriladi;

— juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar (tayanch so‘zlar, sanalar, belgilar, raqamlar va hokazo)ni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi;

— o‘qituvchi o‘quvchilar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradi;

— topshiriqni to‘g‘ri bajargan guruhning bir a’zosi o‘qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning yechimini yozuv taxtasiga yozadi;

— o‘quvchilar yozuv taxtasida qayd etilgan fikrni sharhlaydilar (tayanch so‘zlar, sanalar, belgilar, raqamlar va hokazolar qanday ma’noni anglatishini aytadilar);

— to‘g‘ri javob bergan o‘quvchi o‘qituvchi rolini bajarib, juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o‘qituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.

“Qarama-qarshi munosabat” metodi

Metod o‘z mohiyatiga ko‘ra, o‘zlashtirilgan bilimlarni tahlil va sintez qilish asosida asosiy hamda ikkinchi darajali ma’lumotlar sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi. Metodni qo‘llashda quyidagilar amalga oshiriladi:

— mavzuning umumiy mazmuni yodga olinib, uning ahamiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi;

— ular muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi;

— tushunchalar shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo‘lmagan tushunchalar tarzida guruhlanadi;

— jadval yaratilib, uning 1-ustuniga muhim bo‘lmagan tushunchalar yoziladi;

— kichik guruhlar asosida shaxsiy yondashuv muhokama qilinadi;


— jamoaning umumiy fikriga ko‘ra yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval yaratiladi.

“Qarorlar shajarasi” metodi

“Qarorlar shajarasi” metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirib, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bor tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Guruh yoki sinf o‘quvchilari ishtirokida qo‘llanadigan “Qarorlar shajarasi” bir necha o‘n nafar o‘quvchilarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta’lim jarayonida mazkur metodning qo‘llanishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul

qilish (xulosaga kelish)da o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini batafsil tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar chizma asosida tuzilgan jadvalni to‘ldiradilar (yoki ushbu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadilar):



“Qarorlar shajarasi” metodi quyidagi shartlar asosida qo‘llanadi:

1. O‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalarni yozish uchun plakatlar tayyorlaydi.

2. O‘qituvchi o‘quvchilarni 4 yoki 6 kishilik guruhlarga ajratadi. Muammoning hal etilishi, eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3. Qarorni qabul qilinish jarayonida guruhlarning har bir a’zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi.

Har bir variantning afzalliklari va kamchiliklari yozib boriladi.

Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a’zolari bir to‘xtamga kelib oladilar.

4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a’zolari o‘z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda o‘qituvchi rahbarligida barcha o‘quvchilar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar.

Muammo yuzasidan bildirilgan xulosa (qaror)lar borasida savollar tug‘ilgudek bo‘lsa, ularga javoblar qaytarilib beriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agar barcha guruhlar muammo yuzasidan bir xil qarorga kelgan bo‘lsa, o‘qituvchi buning sababini izohlaydi.

“Qarorlar shajarasi” metodining ma’lum bir loyiha asosida qo‘llanadi. Mazkur loyiha quyidagi ko‘rinishga ega:

“Qarorlar shajarasi” metodi					
Umumiy muammo					
1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Qaror:					



I bo‘lim. Jahonning umumiy tavsifi

1-BOB. JAHONNING SIYOSIY XARITASI

1-§. Jahonning siyosiy xaritasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Jahonning siyosiy xaritasi va uning shakllanish davrlarini o‘rganish; jahondagi mustaqil davlatlar haqida tushunchaga ega bo‘lish; davlatlarning geografik o‘rni va hududining kattaligiga ko‘ra guruhlarga bo‘linishini o‘rganish.	Darslik, siyosiy xarita, atlas, yozuvsiz xarita, taqdimot, tarqatma materiallar, internet manbalari.	O‘quvchilar jahonning siyosiy xaritasi va uning hozirgi holatini anglab yetadi; davlatlarning geografik o‘rni xususiyatlarini tahlil qila oladi.
ISK9. Geosiyosiy tizim va jarayonlar **AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish** **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.1.9.1. Dunyoning siyosiy xaritasi, uning tuzilishini hamda o‘zgarib borish xususiyatini tushunadi. 10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi; 10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Mavzu jahon siyosiy xaritasining faqat hozirgi ko‘rinishi orqali bayon etilsa, o‘quvchilar so‘nggi asrlarda dunyoda yuz bergan hamda jahonning hozirgi siyosiy xaritasi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan jarayonlarni yaxshi tasavvur eta olmasliklari mumkin.	
Tavsiya	Mavzuni tushuntirishda jahon siyosiy xaritasining hozirgi ko‘rinishi bilan birga yaqin o‘tmishdagi (masalan, Birinchi va Ikkinchi jahon urushlaridan oldingi va ulardan keyingi, 1990-yillar boshidagi) holati aks ettirilgan xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ularning ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. Bilimlarni faollashtirish

Bilimlarni faollashtirish uchun quyidagi usuldan foydalanish mumkin.

“O‘rnini top” usuli

Quyidagi davlatlar va hududlar orasidagi bog‘liqlikni aniqlang:

№	Davlat		Materik
1	AQSH	A	Yevrosiyo
2	Avstraliya Ittifoqi	B	Avstraliya
3	Belgiya	D	Afrika
4	Bruney	E	Shimoliy Amerika
5	Mali	F	Janubiy Amerika
6	Nauru		
7	Bolgariya		
8	Turkiya		
9	Urugvay		
10	Keniya		

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning siyosiy xaritasi yordamida jahondagi maydoni yirik va “mitti” davlatlar haqida ma’lumot beriladi;
- jahon davlatlarini geografik o‘rniga ko‘ra guruhlashtirish “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- jahonning siyosiy xaritasi shakllanishiga ta’sir etgan tarixiy jarayonlar “Suhbat” metodi orqali bayon qilinadi. Zamonaviy siyosiy xarita shakllanishida XX asrda yuz bergan tarixiy voqeliklarning ahamiyatini eslatib o‘tish maqsadga muvofiq (1-jadval);
- turli qit’alarda mustaqil davlatlar sonining o‘zgarib borishi bilan bog‘liq holatlar “Suhbat” va “Hikoya” metodlari orqali yoritiladi.

1-jadval. **Jahon siyosiy xaritasi shakllanish davrlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari**

Davrlar	Yuz bergan asosiy jarayonlar
Qadimiy (milodning V asrigacha)	Jahon sivilizatsiyasi rivojiga hissa qo‘shgan ilk sivilizatsiyalar shakllandi – Bobil, Qadimgi Misr, Qadimgi Rim, Qadimgi Gretsiya, Finikiya, Karfagen, Xitoy, Hindiston va b.
O‘rta asrlar (V – XV asrlar)	Ko‘plab kichik feodal davlatlar o‘rnida yirik markazlashgan imperiyalar shakllana boshladi (Kiyev Rusi, Franklar davlati, Vizantiya, Oltin O‘rda va b.).

Davrlar		Yuz bergan asosiy jarayonlar
Yangi (XV–XX asrning boshlari)		Buyuk geografik kashfiyotlar, kolonial tizimning shakllanishi, Amerika qit’asida yangi davlatlarning paydo bo‘lishi. *Asosiy imperiyalar:* Usmoniylar imperiyasi, Rossiya, Angliya va b.
Eng yangi	Birinchi bosqich (1918–1938-yillar)	Yirik kapitalistik davlatlar, birinchi sotsialistik davlatning paydo bo‘lishi. Muhim ahamiyatga ega davlatlar: Angliya, Fransiya, Germaniya, Sobiq Ittifoq, AQSH va b.
	Ikkinchi bosqich (1939–1980-yillarning oxiri)	Sotsialistik boshqaruv shaklining keng hududlarga tarqalishi, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida ko‘p sonli mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi. Muhim ahamiyatga ega davlatlar: AQSH, Sobiq Ittifoq, Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR, Yaponiya va b.
	Uchinchi bosqich (1990-yil boshlaridan)	Sotsialistik tizimning yemirilishi. Davlatlar integratsion uyushmalari sonining orta borishi. Jahon mintaqalarida notinch hududlarning ko‘payishi...

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi metodni ham qo‘llash mumkin.

“Insert jadvali” metodi

Insert jadvali o‘qituvchi darsda qo‘llagan atamalar asosida shakllantiriladi. O‘quvchilar insert jadvalini to‘ldirish qoidasi bilan tanishtiriladi. Uni har bir o‘quvchi o‘zi to‘ldiradi. O‘qish jarayonida olingan ma’lumotlarni alohida o‘zlari tizimlashtiradilar, ya’ni jadval ustunlariga kiritadilar. Tushunchalar quyidagi belgilarga muvofiq ajratiladi:

V – men bilgan ma’lumotlarga mos;
– – men bilgan ma’lumotlarga zid;
+ – men uchun yangi ma’lumot;
? – men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash, to‘ldirish talab etiladi.

Insert jadvali

№	Ma’lumotlar	V	–	+	?
1	Siyosiy xarita				
2	Davlat				
3	Mamlakat				
4	Dengizbo‘yi kontinental davlatlar				
5	Ichki kontinental davlatlar				
6	Orol davlatlar				
7	Yarimorol davlatlar				
8	Sotsialistik tizim				
9	BMT				

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, ushbu mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilganligi borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. **Baholash va uyga vazifa**

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, ko‘nikma, malakalari, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan baholanadi va uyga vazifa beriladi.

2-§. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi bo‘yicha tasnifi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Jahon mamlakatlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra guruhlashtirishning asosiy mezonlarini o‘rganish; Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy farqlarini anglash; “Katta yettilik” davlatlari, tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar, neft eksport qiluvchi mamlakatlar, yirik industrial-agrar mamlakatlar hamda o‘tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar haqida bilish.	darslik, siyosiy xarita, atlas, yozuvsiz xarita, taqdimot, tarqatma materiallar, internet manbalari.	O‘quvchilar jahon mamlakatlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra guruhlashning asosiy mezonlarini biladi; Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy farqlarini tushunadi; “Katta yettilik” davlatlari, tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar, neft eksport qiluvchi mamlakatlar, yirik industrial-agrar mamlakatlar hamda o‘tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar haqida biladi.
ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati	10.1.8.2. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi jihatidan tasniflanishini tushunadi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Informatika va axborot texnologiyalari, algebra, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Ayrim o‘quvchilar jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha tasnifi hamda har qaysi guruhga mansub davlatlar nomini eslab qolishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar diqqatini jamlash va mavzuni yaxshi eslab qolishlari uchun xotira mashqini o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.	

Darsning borishi:

I bosqich. **Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)**

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ularning ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. **O‘tilgan mavzuni mustahkamlash**

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

“Kim chaqqon?” usuli

Quyidagi davlatlar geografik o‘rniga ko‘ra qaysi guruhga mansubligini toping va jadvalga tegishli javoblarni belgilang:

№	Davlat	Geografik o‘rniga ko‘ra qaysi guruhga mansubligi			
		Dengizbo‘yi kontinental davlatlar	Orol davlatlar	Yarimorol davlatlar	Ichki kontinental davlatlar
1	Avstriya				+
2	Angola				
3	Armaniston				
4	Boliviya				
5	Bruney				
6	Portugaliya				
7	Kipr				
8	Chad				
9	Gaiti				
10	Yaman				
11	Chexiya				
12	Kambodja				
13	Madagaskar				
14	Shvetsiya				
15	Maldiv orollari				
16	Somali				
17	Urugvay				
18	Nauru				
19	Esvatini				
20	Daniya				

Ushbu vazifani to‘g‘ri va tez bajargan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

III bosqich. **Yangi mavzu bayoni**

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning siyosiy xaritasi yordamida “Katta yettilik” davlatlari haqida ma’lumot beriladi;
- “Kartografik diktant" metodidan foydalangan holda tayanch rivojlanayotgan, neftni eksport qiluvchi, yirik industrial-agrar, o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlarning geografik joylashuvi tushuntiriladi;
- jahonning taraqqiyotda ortda qolgan davlatlari haqidagi ma’lumotlar muammoli ta’lim texnologiyasi yordamida bayon qilinadi. Shu o‘rinda o‘quvchilarga taraqqiyotda ortda qolgan davlatlar BMT tomonidan bir qator mezonlar asosida aniqlanishini eslatib o‘tish maqsadga muvofiq (2-jadval).

2-jadval

BMT tasnifiga ko‘ra jahonning taraqqiyotda ortda qolgan davlatlari (2021-y.)
◉ Osiyo: Afg‘oniston, Bangladesh, Butan, Yaman, Kambodja, Laos, Myanma, Nepal, Sharqiy Timor.
◉ Amerika: Gaiti.
◉ Afrika: Angola, Benin, Burkina Faso, Burundi, Gambiya, Gvineya, Gvineya Bisau, Jibuti, Zambiya, Kongo Demokratik Respublikasi, Komor orollari, Lesoto, Liberiya, Mavritaniya, Madagaskar, Malavi, Mali, Mozambik, Niger, Ruanda, San Tome va Prinsipi, Senegal, Somali, Serra Leone, Sudan, Tanzaniya, Togo, Uganda, Markaziy Afrika Respublikasi, Chad, Janubiy Sudan, Eritreya, Efiopiya.
◉ Okeaniya: Kiribati, Solomon orollari, Tuvalu.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usulni ham qo‘llash mumkin:

“Toifalash jadvali” metodi

Bunda o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi va har bir guruhga jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi bo‘yicha biror guruhga kiruvchi davlatlarni yozish vazifasi beriladi. Masalan:



Bu usul o‘quvchilarning kichik guruhlarda ishlab, olgan bilimlarini mustahkamlashlariga yordam beradi.

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, ushbu mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

Dars oxirida barcha natijalar umumlashtirilib, o‘quvchilar baholanadi hamda uy vazifasi uchun topshiriqlar beriladi.

3-§. Mamlakatlarning boshqaruv shakli va davlat tuzilishi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Jahon mamlakatlarining boshqaruv shakllarini o‘rganish; mamlakatlarning davlat tuzilishi haqida ma’lumotga ega bo‘lish.	Darslik, siyosiy xarita, atlas, yozuvsiz xarita, taqdimot, tarqatma materiallar, internet manbalari.	O‘quvchilar jahon mamlakatlarining boshqaruv shakllarini biladi; mamlakatlarning davlat tuzilishi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi.
ISK9.Geosiyosiy tizim va jarayonlar **AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish** **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.1.9.1. Dunyoning siyosiy xaritasi, uning tuzilishini hamda o‘zgarib borish xususiyatini tushunadi. 10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Ushbu mavzuda atamalar ko‘pligi bois ayrim o‘quvchilar ularni tushunish va eslab qolishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.	
Tavsiya	Jahon mamlakatlarining boshqaruv shakllari va davlat tuzilishini doskada yoki taqdimot orqali klaster shaklida tasvirlab ko‘rsatish maqsadga muvofiq.	

Darsning borishi:

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ularning ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

“To‘g‘risini tanla” usuli

Berilgan ma’lumotlardan qaysilari to‘g‘ri ekanini toping.

1. Jahon mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi bo‘yicha 4 yirik blokka bo‘linadi.
2. Rivojlangan mamlakatlarda YIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan qiymati 25000 AQSH dollaridan ortiq.
3. Braziliya tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiradi.
4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda 6,5 milliard kishi yashaydi.
5. Qatar YIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkichlari bo‘yicha jahonda 2-o‘rinda turadi.

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- monarxiya va respublika tuzumi, uning xususiyatlari haqida ma’lumot berish asosida aqliy hujum yordamida o‘quvchilar bilimi tekshirib boriladi;
- darslikda berilgan “Unitar va federativ davlatlar jahon siyosiy xaritasida” deb nomlangan rasm yordamida ularning qit’alar bo‘ylab tarqalish xususiyatlariga tavsif beriladi (3-jadval).

3-jadval. **Federativ davlatlarning mintaqaviy tarqalishi**

Mintaqalar	Davlatlar
Yevropa (6 ta)	Avstriya, Belgiya, Bosniya va Gersegovina, Germaniya, Rossiya, Shveytsariya
Osiyo (6 ta)	Birlashgan Arab Amirliklari, Hindiston, Iroq, Malayziya, Nepal, Pokiston
Afrika (6 ta)	Efiopiya, Janubiy Sudan, Komor orollari, Nigeriya, Somali, Sudan
Amerika (7 ta)	AQSH, Argentina, Braziliya, Kanada, Meksika, Sent Kits va Nevis, Venesuela
Avstraliya va Okeaniya (2 ta)	Avstraliya Ittifoqi, Mikroneziya Federativ Shtatlari

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usulni ham qo‘llash mumkin:

“Geografik diktant” usuli

Tushirib qoldirilgan so‘zlarni joyiga qo‘yib, matnni tiklang.

Davlat boshqaruvining avloddan avlodga o‘tuvchi shakli _____ deyiladi (monarxiya).

Davlat boshlig‘i (qirol, amir, knyaz va h.k.)ning siyosiy vakolatlari ma’lum darajada cheklangan, davlat boshqaruvida parlament va hukumatning o‘rni muhim hisoblangan boshqaruv shakli _____dir (konstitutsion monarxiya).

_____ boshqaruv shakliga ega bo‘lgan davlatlarda monarxning vakolatlari cheklanmagan bo‘ladi (mutlaq monarxiya).

Monarx hokimiyat vazifalaridan tashqari diniy rahbar vazifasini ham bajaradigan davlat _____ bo‘lib, hozirda _____ va _____da bunday boshqaruv shakli saqlanib qolgan (teokratik monarxiya, Saudiya Arabistoni, Vatikan).

Mamlakat hududida yagona qonunchilik tizimi joriy qilingan bo‘lib, siyosiy boshqaruv markazlashgan holda amalga oshiriladigan davlat _____ davlat hisoblanadi (unitar).

_____ davlatlarda qonunchilik, ijro va sud hokimiyati markaziy hamda hududiy darajalardan tashkil topadi (federativ).

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, ushbu mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

Dars oxirida barcha natijalar umumlashtirilib, o‘quvchilar baholanadi hamda uy vazifasi uchun topshiriqlar beriladi.

4-§. Amaliy mashg‘ulot

Jahon siyosiy xaritasi bilan ishlash

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Jahon siyosiy xaritasi, mamlakatlarning boshqaruv shakllari va davlat tuzilishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga doir xarita va grafikli topshiriqlarni bajarishni o‘rganish; jahon siyosiy xaritasining hozirgi holati haqidagi umumiy tasavvurni boyitish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, daftar.	O‘quvchilar jahonning siyosiy xaritasi va uning hozirgi holatini anglab yetadi; mamlakatlarning boshqaruv shakllari va davlat tuzilishini tavsiflay oladi; davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganini va unga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qila oladi.
ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati **ISK9. Geosiyosiy tizim va jarayonlar**	10.1.8.2. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi jihatidan tasniflanishini tushunadi. 10.1.9.1. Dunyoning siyosiy xaritasi, uning tuzilishi hamda o‘zgarib borish xususiyatini tushunadi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, algebra, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	O‘quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida xaritadan ayrim davlatlar nomini aniqlashga ko‘p vaqt sarflashlari mumkin.	
Tavsiya	Guruhlarda ishlashni samarali tashkil etish maqsadida bajariladigan ishlar ketma-ketligi va guruh a’zolari o‘rtasida ishni taqsimlash bo‘yicha o‘quvchilarga kerakli tushuntirishlar berish zarur. Bu o‘quvchilarda guruhda ishlash ko‘nikmasi shakllanishiga va mehnat unumdorligi ortishiga sabab bo‘ladi.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ularning ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

“Zukkolar testi” metodi


Atamalar va ularning ta’rifini to‘g‘ri tanlab, mos javoblarni belgilang.

Konstitutsion monarxiya	Unitar davlat	Aralash respublika	Mutlaq monarxiya	Federativ davlat
A	B	D	E	F

Atamalar ta’rifi	Atamalar nomi
Prezident va parlament hukumat tarkibini birgalikda shakllantirib, uning faoliyatini nazorat qiladi.	
Qonunchilik, ijro va sud hokimiyati markaziy hamda hududiy darajalardan tashkil topadi.	
Monarxning vakolatlari ma’lum darajada cheklangan bo‘lib, davlat boshqaruvida parlament va hukumatning o‘rni muhim hisoblanadi.	
Butun mamlakat hududida yagona qonunchilik tizimi amal qiladi, siyosiy boshqaruv esa markazlashgan holda amalga oshiriladi.	
Monarxning vakolatlari cheklanmagan bo‘ladi.	

“Klaster” metodi

Davlatlar boshqaruv shakli va davlat tuzilishiga ko‘ra qanday guruhlarga bo‘linishini yozing va ularga misol keltiring.



III bosqich. Amaliy topshiriqlarni bajarish

Topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi. Bunda har qaysi guruhda iqtidorli o‘quvchilar va boshqa o‘quvchilarning teng taqsimlanishiga ahamiyat beriladi. O‘qituvchi har bir guruhda topshiriqlarning qanday bajarilishini kuzatib, zarur vaqtlarda o‘quvchilarga tegishli ko‘rsatmalar beradi. Topshiriq bajarib bo‘lingach, uni tekshirib, o‘quvchilarga ularning harakati va erishgan natijasiga muvofiq turli rangdagi rag‘bat kartochkalarini berib borish tavsiya etiladi.

Darslikda berilgan tegishli topshiriqlarning javoblari:

1-topshiriq

Manila – Filippin (**12**), Rabot – Marokash (**6**), Montevideo – Urugvay (**2**), Sofiya – Bolgariya (**9**), Tegusigalpa – Gonduras (**17**), Kolombo – Shri Lanka (**23**), Reykyavik – Islandiya (**4**), Brazzavil – Kongo (**20**), Ottava – Kanada (**24**), Santyago – Chili (**3**), Bangkok – Tailand (**8**), Vellington – Yangi Zelandiya (**22**), Maputu – Mozambik (**14**), Amsterdam – Niderlandiya (**18**), Karakas – Venesuela (**11**), Sano – Yaman (**5**), Stokgolm – Shvetsiya (**7**), Gavana – Kuba (**19**), Islomobod – Pokiston (**1**), Rim – Italiya (**13**), Panama – Panama (**21**), Dublin – Irlandiya (**16**), Seul – Koreya Respublikasi (**10**), Njamena – Chad (**15**).

2-topshiriq

Oxirgi ma’lumotda Qatar iqtisodiyoti xomashyo resurslariga asoslangan uchun iqtisodiy rivojlangan mamlakat hisoblanmasligi ta’kidlangan. 2-mavzu matnida Qatar va boshqa neft eksport qiluvchi mamlakatlar guruhiga kiruvchi davlatlarda YIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan hajmi ancha yuqori bo‘lsa-da, lekin ularning iqtisodiyoti xomashyo resurslariga asoslangan sababli bu davlatlar odatda rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritilmasligi bayon etilgan. Demak, berilgan ma’lumotlar orasida oxirgisi to‘g‘ri.

3-topshiriq

Muayyan davrda mamlakat hududida yaratilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxidagi qiymati *yalpi ichki mahsulot* deb ataladi. Ushbu juftlik bir-biriga mos.

Hokimiyatning asosiy vakolati parlament qo‘lida bo‘lishi parlamentar respublikaga xos. Oxirgi juftlik ham bir-biriga mos.

4-topshiriq

1) Saudiya Arabistoni; 2) Braziliya; 3) Buyuk Britaniya; 4) Qozog‘iston.

Ushbu davlatlarga tegishli geografik xususiyatlar:

T/r	Davlat nomi	Geografik o‘rni	Joylashgan qit’a	Boshqaruv shakli	Davlat tuzilishi	Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi
1.	Saudiya Arabistoni	b	g	m	n	r
2.	Braziliya	d	i	j	o	q
3.	Buyuk Britaniya	a	f	l	n	p
4.	Qozog‘iston	e	g	j	n	s

5-topshiriq

T/r	Yevropadagi ichki kontinental davlatlar	Poytaxti	Osiyodagi ichki kontinental davlatlar	Poytaxti
1.	Andorra	*Andorra la Velya*	Afg‘oniston	*Kobul*
2.	Avstriya	*Vena*	Armaniston	*Yerevan*
3.	Belarus	*Minsk*	Butan	*Tximpxu*
4.	Lixtenshteyn	*Vaduts*	Laos	*Ventyan*
5.	Lyuksemburg	*Lyuksemburg*	Mongoliya	*Ulan Bator*
6.	Moldova	*Kishinyov*	Nepal	*Katmandu*

T/r	Yevropadagi ichki kontinental davlatlar	Poytaxti	Osiyodagi ichki kontinental davlatlar	Poytaxti
7.	San Marino	*San Marino*	Ozarbayjon	*Boku*
8.	Serbiya	*Belgrad*	Qirg‘iziston	*Bishkek*
9.	Slovakiya	*Bratislava*	Qozog‘iston	*Ostona*
10.	Vatikan	*Vatikan*	Tojikiston	*Dushanbe*
11.	Vengriya	*Budapesht*	Turkmaniston	*Ashxobod*
12.	Shimoliy Makedoniya	*Skopye*	O‘zbekiston	*Toshkent*
13.	Shveysariya	*Bern*		
14.	Chexiya	*Praga*		

IV bosqich. **Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)**

Amaliy topshiriqlar bajarib bo‘lingach, o‘quvchilar bilan mashg‘ulot jarayonida erishilgan natijalar, darsda qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

V bosqich. **Baholash va uyga vazifa**

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalari hamda dars jarayonidagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari baholanadi va uyga vazifa beriladi.



2-BOB. JAHON TABIIY RESURSLARI

5-§. Mineral resurslar geografiyasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Tabiiy resurslar va ularning turlarini o‘rganish; mineral resurslarning hududiy tarqalish xususiyatlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish.	Darslik, siyosiy xarita, atlas, yozuvsiz xarita, taqdimot, tarqatma materiallar, internet resurslar.	O‘quvchilar tabiiy resurslar va ularning turlarini o‘rganadi; mineral resurslarning hududiy tarqalish xususiyatlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi.
ISK2. Tabiiy resurslar va geologik savodxonlik **ISK7. Inson va tabiatning o‘zaro munosabatlari**	10.1.2.1. Dunyo tabiiy resurslarining hududiy tarqalishi joyning geologik tuzilishiga bog‘liq ekanini biladi. 10.1.2.2. Ko‘mir, neft, tabiiy gaz, temir, oltin singari foydali qazilmalarning zaxiralari va hududiy tarqalishiga oid ma’lumotlarni tushunadi. 10.1.7.1. Tabiatdan foydalanishning oqilona va nooqilona shakllarini farqlaydi. 10.1.7.2. Dolzarb global ekologik muammolarning mohiyati, sabablari, oqibatlari, ularning yechimini topish va ta’minlash borasida jahon hamjamiyatining harakat choralarini tushunadi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi; 10.2.3.2. Davlatlar, shaharlar va boshqa geografik obyektlarning nomlari ma’lum mazmun-mohiyatga ega ekanini, joy nomlarining o‘zgaruvchanligini tushunadi.	
Fanlararo bog‘lanish	Kimyo, biologiya, fizika, algebra va chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Mavzu faqat jahonning siyosiy xaritasi yordamida tushuntirilganda ayrim o‘quvchilar mineral resurslarning geografik tarqalishiga ta’sir etuvchi omillarni yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.	
Tavsiya	Mavzuni bayon etishda jahonning siyosiy xaritasi bilan birga tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish maqsadga muvofiq.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ularning ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. Bilimlarni faollashtirish

Bilimlarni faollashtirish uchun quyidagi metoddan foydalanish mumkin.

“Assesment” metodi

1-kichik guruh uchun

Test Yevropaning quruqlik ichkarisida joylashgan davlatlarini ajratib ko‘rsating: 1) Vengriya; 2) San Marino; 3) Xorvatiya; 4) Monako; 5) Slovakiya; 6) Albaniya; 7) Kipr; 8) Chexiya. +2, 5, 8 1, 5, 7 1, 4, 8 1, 6, 7	*Muammoli vaziyat* Nima deb o‘ylaysiz, jahon davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasida tafovutlar yuzaga kelishiga qanday omillarning ta’siri katta?
Simptom Yalpi ichki mahsulot bu — ...	*Amaliy ko‘nikma* Darslik ilovasidagi ma’lumotlardan foydalanib maydoni 5 mln km^2 dan ortiq bo‘lgan davlatlarni toping.

2-kichik guruh uchun

Test Afrikaning monarxiya davlatlarini ajratib ko‘rsating: 1) Esvatini; 2) Malavi; 3) Togo; 4) Marokash; 5) Gana; 6) Keniya; 7) Jazoir; 8) Lesoto. +1, 4, 8 1, 2, 7 2, 5, 7 3, 4, 7	*Muammoli vaziyat* Nima deb o‘ylaysiz, “Katta yettilik” davlatlarining jahon iqtisodiyoti rivojida katta salmoqqa ega ekani qanday omillar ta’sirida yuzaga keladi?
Simptom Davlat boshqaruvining respublika shakli bu –...	*Amaliy ko‘nikma* Darslik ilovasidagi ma’lumotlardan foydalanib Osiyo qit’asidagi maydoni 1 mln km^2 dan 5 mln km^2 gacha bo‘lgan davlatlarni toping.

3-kichik guruh uchun

Test Quyidagilar orasidan federativ davlatlarni ajratib ko‘rsating: 1) AQSH; 2) Nikaragua; 3) Argentina; 4) Meksika; 5) Paragvay; 6) Venesuela; 7) Kanada; 8) Sent Kits va Nevis +3, 6, 8 1, 3, 5 1, 2, 3 2, 4, 6	*Muammoli vaziyat* Nima deb o‘ylaysiz, jahon davlatlari orasida Britaniya Hamdo‘stligi Qirolliklarining mavjudligiga sabab nima?
Simptom Davlat boshqaruvining monarxiya shakli bu —...	*Amaliy ko‘nikma* Darslik ilovasidagi ma’lumotlardan foydalanib Afrika qit’asidagi maydoni 1 mln km^2 dan 5 mln km^2 gacha bo‘lgan davlatlarni toping.

4-kichik guruh uchun

Test Quyidagilar orasidan maydoni kattaligiga ko‘ra jahonda 7-, 8-, 9-o‘rinlarni egallovchi davlatlarni ko‘rsating. 1) AQSH; 2) Hindiston; 3) Xitoy; 4) Argentina; 5) Avstraliya; 6) Jazoir; 7) Qozog‘iston. +2, 4, 7 2, 5, 7 2, 4, 6 3, 4, 5	*Muammoli vaziyat* Nima deb o‘ylaysiz Amerika qit’asining jahonda federativ davlatlar soniga ko‘ra yetakchilik qilishiga qanday sabablar bor?
Simptom Ichki kontinental davlatlar bu —...	*Amaliy ko‘nikma* Darslik ilovasidagi ma’lumotlardan foydalanib Amerika qit’asidagi maydoni 1 mln km^2 dan 5 mln km^2 gacha bo‘lgan davlatlarni toping.

III bosqich. **Yangi mavzu bayoni**

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- darslik matni asosida o‘qituvchi tomonidan BBB jadvali tayyorlanib, o‘quvchilar e’tiboriga havola qilinadi. Berilgan tushunchalar yuzasidan o‘quvchilar fikrlari tinglanadi. Dars jarayonida o‘quvchilar bilishni istovchi tushunchalar tavsifiga e’tibor qaratiladi;
- "Aqliy hujum" metodi yordamida o‘quvchilarning mineral resurslar va ularning geografik tarqalishi haqidagi bilimlari tekshiriladi;
- mineral resurs turlarining tarqalish hududlari xarita va atlas yordamida tavsiflanadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi jadvalni to‘ldirish tavsiya etiladi. Bunda o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘lingan holda jahonning turli mintaqalarida mineral resurslarning tarqalish xususiyatlarini tahlil qiladi.

№	Qit’alar	Yoqilg‘i-energetika resurslari			Rudali mineral resurslar				
		toshko‘mir	neft	gaz	temir	oltin	mis	kumush	polimetall rudalari
1	Yevropa								
2	Osiyo								
3	Afrika								
4	Amerika								
5	Avstraliya va Okeaniya								

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, ushbu mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilgandan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

Dars oxirida barcha natijalar umumlashtirilib, o‘quvchilar baholanadi hamda uy vazifasi uchun topshiriqlar beriladi.

6-§. Tugamaydigan va tiklanadigan tabiiy resurslar geografiyasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Agroiqlimiy, yer, suv, biologik va geotermal resurslarning hududiy tarqalish xususiyatlarini o‘rganish.	Darslik, siyosiy xarita, atlas, yozuvsiz xarita, taqdimot, tarqatma materiallar, internet manbalari.	Agroiqlimiy, yer, suv, biologik va geotermal resurslarning hududiy tarqalish xususiyatlarini biladi.
ISK2. Tabiiy resurslar va geologik savodxonlik **ISK7. Inson va tabiatning o‘zaro munosabatlari**	10.1.2.1. Dunyo tabiiy resurslarining hududiy tarqalishi joyning geologik tuzilishiga bog‘liq ekanini biladi. 10.1.2.2. Ko‘mir, neft, tabiiy gaz, temir, oltin singari foydali qazilmalarning zaxiralari va hududiy tarqalishiga oid ma’lumotlarni tushunadi. 10.1.7.1. Tabiatdan foydalanishning oqilona va nooqilona shakllarini farqlaydi. 10.1.7.2. Dolzarb global ekologik muammolarning mohiyati, sabablari, oqibatlari, ularning yechimini topish va ta’minlash borasida jahon hamjamiyatining harakat choralarini tushunadi.	

AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi. 10.2.3.2. Davlatlar, shaharlar va boshqa geografik obyektlarning nomlari ma’lum mazmun-mohiyatga ega ekanini, joy nomlarining o‘zgaruvchanligini tushunadi.
Fanlararo bog‘lanish	Kimyo, biologiya, fizika, informatika va axborot texnologiyalari.
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida muayyan vaqtdan so‘ng o‘quvchilarning diqqatini jamlashda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.
Tavsiya	O‘quvchilar diqqatini jamlash hamda ularning qanday o‘zlashtirayotganini nazorat qilish uchun mavzuning ma’lum bir qismi tushuntirilgach, qisqa savol-javoblar o‘tkazib borish maqsadga muvofiq.

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ularning ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda nostandart testlardan foydalanish mumkin.

1. Quyida berilgan fikrlarning qaysilari to‘g‘ri?

*Mineral resurslarning yoqilg‘i-energetika, rudali va noruda ko‘rinishdagi turlari mavjud.

Mineral resurslarning 2000 ga yaqin turlaridan xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalanilmoqda.

Mineral resurslar tugaydigan va tiklanadigan tabiiy resurs hisoblanadi.

* Alp-Himolay, Tinch okeanbo‘yi mintaqalari yer yuzida rudali mineral resurslarga boy mintaqalar hisoblanadi.

Olmosning katta zaxiralari Rossiya, AQSH, Fors qo‘ltig‘i mamlakatlarida to‘plangan.


2. Quyidagi xususiyatlar qaysi variantda berilgan davlatlarga xos ekanini topib, tegishli javoblarni belgilang.

1.	Ko‘mirning eng yirik zaxiralariga ega	A	Saudiya Arabistoni, Eron, Iroq, BAA, Qatar, Kuvayt, Ummon
2.	Neft-gaz zaxiralariga boy Fors qo‘ltig‘i mamlakatlari	B	Rossiya, AQSH, Xitoy, Hindiston, Boliviya, Belarus, Avstraliya
3.	Qora va rangli metall xomashyolariga eng boy mamlakatlar	D	AQSH, Rossiya, Avstraliya, Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Germaniya, Ukraina, Polsha, Qozog‘iston
4.	Mineral tuzlarning zaxiralari bo‘yicha yetakchi davlatlar	E	Rossiya, Xitoy, AQSH, Kanada, Braziliya, Avstraliya, Hindiston, JAR, Qozog‘iston
5.	Mineral resurslarning ko‘p turlari bilan yaxshi ta’minlangan davlatlar	F	Xitoy, Rossiya, AQSH, Kanada, Avstraliya, Braziliya, JAR, Qozog‘iston, Hindiston, Chili, Peru

To‘g‘ri javoblar: 1 – D, 2 – A, 3 – F, 4 – B, 5 – E.

3. Muhim mineral resurslarning xaritadagi shartli belgisi tasvirini aniqlang:

1) neft; 2) toshko‘mir; 3) tabiiy gaz; 4) temir rudasi; 5) osh tuzi; 6) polimetall rudalari.



To‘g‘ri javoblar

2	5	1	6	4	3


4. Katta olmos zaxiralariga ega davlatlarni poytaxtlari bilan moslang.

1.	Rossiya	A	Pretoriya
2.	Avstraliya	B	Luanda
3.	Botsvana	D	Ottava
4.	Janubiy Afrika Respublikasi	E	Kanberra
5.	Kongo Demokratik Respublikasi	F	Gaborone
6.	Kanada	G	Moskva
7.	Angola	H	Kinshasa

To‘g‘ri javoblar

1–G	2–E	3 –F	4–A	5–H	6–D	7–B

5. Ko‘rsatilgan mineral resurslar nomini aniqlang va har qaysi rasm ostiga mos raqamlarni yozing.
1) olmos; 2) osh tuzi; 3) marmar; 4) torf; 5) oltin; 6) kvars; 7) toshko‘mir.



To‘g‘ri javoblar

7	1	5	6	3	4	2

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- agroiqlimiy resurslar, yer resurslari, suv resurslari, biologik resurslar, geotermal resurslar hamda ularning geografik tarqalish xususiyatlari *“Baliq skeleti”*da aks ettiriladi;
- agroiqlimiy, yer, suv, biologik hamda geotermal resurslar tarqalish hududlari xarita va atlas yordamida aniqlanadi;
- muammoli ta’lim texnologiyasi yordamida o‘quvchilarning agroiqlimiy, yer, suv, biologik hamda geotermal resurslar bilan bog‘liq ekologik muammolar haqidagi bilimlari tekshirib boriladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usuldan ham foydalanish mumkin:

“Blits so‘rov” usuli

Quyidagi savollarga tezkor javob bering.

1. Chuchuk suv resurslari gidrosfera umumiy hajmining qancha qismini tashkil qiladi?
2. Janubiy o‘rmon mintaqasi asosan qaysi iqlim mintaqalarida joylashgan?
3. Dunyo aholisining oqsillarga bo‘lgan ehtiyojining qancha qismi dengiz hayvonlari va o‘simliklari hisobiga qoplanmoqda?
4. Jahondagi suv omborlarining umumiy soni qancha?
5. Qishloq xo‘jaligiga bevosita ta’sir etuvchi iqlimiy resurslar nima deb ataladi?
6. Jahon yer fondining qancha qismini o‘rmonlar tashkil qiladi?
7. Chuchitilgan dengiz suvidan foydalanish hajmiga ko‘ra qaysi davlat yetakchi o‘rinda turadi?
8. Qurg‘oqchil mintaqalar quruqlikning qancha qismini tashkil qiladi?
9. Shimoliy o‘rmon mintaqasi qaysi hududlar bo‘ylab cho‘zilgan?
10. Eroziya jarayoni tufayli har yili qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan qancha yer ishdan chiqmoqda?

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha davra suhbati o‘tkaziladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

Dars oxirida barcha natijalar umumlashtirilib, o‘quvchilar baholanadi hamda uy vazifasi uchun topshiriqlar beriladi.

7-§. Loyiha darsi. Global ekologik muammolar.

Loyiha darsini tashkillashtirish shakli o‘qituvchining ixtiyoriga havola etiladi.



3-BOB. JAHON AHOLISI

8-§. Dunyo aholisining soni, o‘sishi va joylashishi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Dunyo aholisining soni, o‘sishi, “demografik portlash” va uning sabablari haqida tushunchaga ega bo‘lish; jahon aholisi joylashuvining asosiy omil va xususiyatlari haqida umumiy tasavvurni shakllantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar dunyo aholisining soni va o‘sishi omillarini tushuna oladi; “Demografik portlash”ning mohiyati va sabablarini anglab yetadi; jahon aholisi joylashuvining asosiy xususiyatlari va unga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar	10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida muayyan vaqtdan so‘ng o‘quvchilarning diqqatini jamlashda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar diqqatini jamlash hamda ular qanday o‘zlashtirayotganini nazorat qilish maqsadida mavzuning ma’lum bir qismi tushuntirilgach, qisqa savol-javoblar o‘tkazib olish maqsadga muvofiq.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. Bilimlarni faollashtirish

Bilimlarni faollashtirish uchun savol-javob usulidan foydalanish mumkin.

1. Jahon aholisi soni o‘sishiga qanday omillar ta’sir etadi?
2. Qaysi hududlarda aholi soni o‘sishi yuqori?
3. Aholi zichligi qanday aniqlanadi?
4. Nima uchun dunyo aholisi notekis joylashgan?
5. Yer yuzining qaysi hududlarida qadimdan aholi zich yashab kelgan?
6. Jahonda aholisi eng ko‘p davlat qaysi?
7. O‘zbekiston aholisi soni bo‘yicha jahonda nechanchi o‘rinda turadi?

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyo aholisi soni, o‘sishi va joylashuvi kabi tushunchalar "FSMU" metodi yordamida izohlanadi.

Jahon aholisi o‘sishiga ta’sir etuvchi omillar:

F_____

S_____

M_____

U_____

O‘quvchilar fikri tinglanganidan so‘ng dunyo aholisi tarqalishi dunyo xaritasi, rang, sxema yoki sonlar orqali tushuntirib beriladi. Masalan, aholi zichligi yuqori hududlar ma’lum bir rangda va aholi kam tarqalgan hududlar ham tanlangan rang yordamida markerda belgilanadi. Bunda o‘quvchi berilgan ma’lumotlarni eslab qolishi osonroq bo‘ladi;

- “demografiya”, “demografik portlash”, “demografik inqiroz” tushunchalari “Atamalar jonlanganda” usuli yordamida tavsiflanadi;
- tug‘ilish, o‘lim va tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichlari “Geografik taqqoslash” metodidan foydalangan holda yillar kesimida tushuntiriladi;
- tabiiy ko‘payish darajasi o‘rtasidagi tafovutlarga ijtimoiy-iqtisodiy, diniy va milliy omillar qanday ta’sir ko‘rsatishi “Geografik diktant” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi;
- aholi zichligi yuqori va past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan hududlarni “Guruhlash” metodi yordamida ikki guruhga ajratib, mos javoblar tanlab olinadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usullarni ham qo‘llash mumkin:

“Raqamlar so‘zlaganda” usuli


Quyidagi raqamlar nimani anglatishini toping:

7 mlrd 770 mln

60 %; 19 ‰; 57 kishi; 5 ta.

“Qiyosiy tahlil” metodi

Jahon aholisining 2020-yil va 2050-yildagi (prognoz) qit’alar bo‘yicha taqsimlanishi aks ettirilgan quyidagi diagrammalarni o‘zaro taqqoslab, unda kutilayotgan asosiy o‘zgarishlarni toping va sababini izohlang.



Jahon aholisining qit’alar bo‘yicha taqsimlanishi (2020- va 2050-yil (prognoz) holatlariga ko‘ra, %)

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, ushbu mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan baholanadi va uyga vazifa beriladi.

9-§. Jahon aholisining yosh, jinsiy va irqiy tarkibi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Jahon aholisining yosh, jins tarkibi, yosh-jins piramidalarini o‘rganish; dunyo aholisining irqiy tarkibi, asosiy va aralash irqlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish; jahon aholisining hududiy tarqalishi va unga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar jahon aholisining yosh-jins tarkibi haqida biladi; rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi yosh-jins piramidalarining farqini tushuna oladi; aholining irqiy tarkibini anglab yetadi; jahon aholisining hududiy tarqalishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar	10.1.6.1. Aholining yosh-jins va milliy tarkibini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar, ularning aholi ko‘payishiga bog‘liqligini tushunadi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi.	
Fanlararo bog‘lanish	Algebra, biologiya, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	O‘quvchilar jahon aholisining yosh va jinsiy tarkibini, irqlarning tarqalish hududlarini eslab qolishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar diqqatini jamlash hamda ularning qanday o‘zlashtirayotganini nazorat qilish uchun mavzuning ma’lum bir qismi tushuntirilgach, qisqa savol-javob o‘tkazib olish maqsadga muvofiq.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

“Atamalar tahlili” usuli

Quyidagi tushunchalarga tavsif bering:
– *demografiya,*
– *demografik portlash,*
– *demografik inqiroz (depopulyatsiya).*

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- aholi yosh tarkibi haqidagi ma’lumotlar “Insert” metodi yordamida tushuntiriladi. Mazkur metod o‘quvchilar yangi axborotlarni qabul qilishi va bilimlarni yaxshi o‘zlashtirishi uchun qo‘llanadi:

Belgilar	V (tanish ma’lumot)	? (mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak)	+ (bu ma’lumot men uchun yangilik)	– (bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman)
1-matn				
2-matn				
3-matn				
4-matn				

- aholining jinsiy tarkibi “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- aholining yosh va jinsiy tarkibi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar aholisining yosh-jins piramidalari yordamida tahlil qilinadi;
- aholining irqiy tarkibi “Suhbat” metodi asosida bayon etiladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi metodni ham qo‘llash mumkin:

“Ortiqchasini top” metodi

Berilgan geografik matndan ortiqcha so‘zlarni toping va izohlang.

Jahon davlatlari orasida bolalar salmog‘i Niger, JAR, Angola, Chad kabi Afrika davlatlarida eng yuqori darajaga ega. Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerika davlatlarida ayollar salmog‘i birmuncha ortiq. Yevropeoid irqi vakillari hissasiga jahon aholisining 40% idan ortiq qismi to‘g‘ri kelib, ular Yevropa, Amerika, Afrika, Avstraliya va Okeaniya aholisining asosiy qismini tashkil qiladi. Negroid irqi vakillari asosan Afrika, Osiyo hamda Amerika davlatlarida istiqomat qiladi. To‘q tusli teri, kalta bo‘yin, juda keng yapaloq burun, to‘q jigarrang tusli soch va ko‘z, do‘rdoq lablarga ega avstraloid irqi vakillari asosan Afrika hamda Avstraliya va Okeaniyada tarqalgan.

V bosqich. **Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)**

Yangi mavzu tushuntirilib, ushbu mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashildi.

VI bosqich. **Baholash va uyga vazifa**

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

10-§. Dunyo aholisining etnik va diniy tarkibi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Etnos tushunchasi, til oilalari va guruhlari, ularning geografiyasini o‘rganish; jahondagi yirik dinlar va ularning geografiyasi haqida tushunchaga ega bo‘lish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	Etnos, qabila va millat tushunchalarini biladi; til oilalari va guruhlari, ularning geografiyasini anglaydi; jahondagi yirik dinlar geografiyasini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar	10.1.6.1. Aholining yosh-jins va milliy tarkibini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar, ularning aholi ko‘payishiga bog‘liqligini tushunadi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	O‘quvchilarda jahon aholisining etnik va diniy tarkibini hamda ularning hududiy tarqalishini eslab qolishda muammolar yuzaga kelishi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar diqqatini jamlash hamda ularning qanday o‘zlashtirayotganini nazorat qilish maqsadida mavzuning ma’lum bir qismi tushuntirilgach, qisqa savol-javoblar o‘tkazib olish maqsadga muvofiq.	

Darsning borishi:

I bosqich. **Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)**


Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. **O‘tilgan mavzuni mustahkamlash**

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi metoddan foydalanish mumkin:

“Qiyosiy tahlil” metodi

Quyidagi diagrammada berilgan ma’lumotlardan foydalanib jahon aholisi yosh tarkibini mintaqalar kesimida tahlil qiling.



Jahon mintaqalari aholisining yosh tarkibi (%, 2020-y.)

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

➢ o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;

➢ aholining etnik tarkibi “Tushunchalar tahlili” metodi orqali bayon etadi. Mazkur metod o‘quvchilarning mavzuga doir tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlari darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

• o‘quvchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

• o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhlar tartibida);

• o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanishi haqida yozma ma’lumot beradi;

• belgilangan vaqt yakuniga yetgach, o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi.

➢ jahonda mavjud bo‘lgan tillar va til oilalari xarita bilan ishlash yordamida ranglar orqali tahlil qilinadi;

➢ aholining diniy tarkibi “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari yordamida tushuntiriladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usullarni ham qo‘llash mumkin:

“Juftini top” o‘yini

Quyida nomlari keltirilgan dinlar va ular tarqalgan asosiy davlatlarni to‘g‘ri tanlang.

Induizm	Hindiston, Nepal, Shri Lanka
Sikxizm	Xitoy
Konfutsiylik	Xitoy
Daosizm	Hindiston (Panjob shtati)
Sintoizm	Isroil, AQSH
Iudaizm	Yaponiya

“Zinama-zina” usuli

Quyida nomlari keltirilgan dinlar va mazhablar qaysi hududlarda tarqalganini toping.

5. shia mazhabi	*Eron, Ozarbayjon, Iroq, Livan, Bahrayn*				
4.	Sunniylik mazhabi	*Ko‘pchilik musulmon davlatlar*			
	3.	Islom dini	*Janubiy, Janubi-g‘arbiy, Janubi-sharqiy va Markaziy Osiyo, Shimoliy Afrika*		
		2.	Xristianlik dini	*Yevropa, Shimoliy Osiyo, Amerika, Avstraliya*	
			1.	Buddizm dini	*Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo (Xitoy, Yaponiya, Mongoliya va bosh-qalar)*

V bosqich. **Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)**

Yangi mavzu tushuntirilib, ushbu mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. **Baholash va uyga vazifa**

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalar hamda jarayondagi umumiy faollik va ijobiy intilishlar o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

11-§. Jahon mamlakatlarining urbanizatsiyasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Jahonda shahar aholisi va uning o‘sishi sur’atlarini o‘rganish; urbanizatsiya tushunchasi, urbanizatsiya darajasiga ko‘ra mamlakatlarning toifalarga bo‘linishi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish; aglomeratsiya va megalopolis kabi tushunchalarning mohiyatini bilish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar jahonda shahar aholisi soni va uning o‘sishiga ta’sir etuvchi omillarni izohlay oladi; urbanizatsiya tushunchasi, urbanizatsiya darajasiga ko‘ra mamlakatlarning toifalarga bo‘linishini tushuntira oladi; aglomeratsiya va megalopolis kabi tushunchalar mohiyatini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar	10.1.6.2. Jahonda urbanizatsiya (shaharlashuv) jarayonining mohiyatini tushunadi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	O‘quvchilarda yangi mavzuga doir atamalar va muhim ko‘rsatkichlarni eslab qolishda muammolar yuzaga kelishi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar diqqatini jamlash hamda ularning qanday o‘zlashtirayotganini nazorat qilish maqsadida mavzuning ma’lum bir qismi tushuntirilgach, qisqa savol-javoblar o‘tkazib olish maqsadga muvofiq.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi o‘yindan foydalanish mumkin:

"Geografik domino" o‘yini

Aholisining milliy tarkibi xususiyatlariga ko‘ra quyidagi guruhlarga mansub davlatlarga misollar yozing.

Omad yor bo‘lsin!	Bir millatli davlatlar		Bir millat boshqalariga nisbatan katta salmoqqa ega
	Ikki millatli davlatlar		Kelib chiqishi bir-biriga yaqin millatlardan iborat davlatlar
	Ko‘p millatli davlatlar		**Xush kelibsiz!**

To‘g‘ri javob

Omad yor bo‘lsin!	Bir millatli davlatlar	Yaponiya, Islandiya, Norvegiya	Bir millat boshqalariga nisbatan katta salmoqqa ega
AQSH, Fransiya, Turkiya	Ikki millatli davlatlar	Kanada, Belgiya	Kelib chiqishi bir-biriga yaqin millatlardan iborat davlatlar
Afg‘oniston, Pokiston	Ko‘p millatli davlatlar	Hindiston, Indoneziya	**Xush kelibsiz!**

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

➢ o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;

➢ Jahon mamlakatlarida shaharlar soni va urbanizatsiya darajasining ortib borishi hamda unga ta’sir etuvchi omillar “Bahs-munozara” metodi yordamida tushuntiriladi. Ushbu metod orqali mavzu o‘quvchilar bilan o‘zaro bahs yuritish, fikr almashish orqali o‘rganiladi. “Bahs-munozara” metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha o‘quvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib ruxsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- o‘zaro hurmat.

➢ *urbanizatsiya, urbanizatsiya darajasi, yuqori, o‘rta va past darajadagi urbanizatsiyalashgan mamlakatlar* kabi tushunchalar “Suhbat” metodi yordamida izohlanadi;

➢ soxta urbanizatsiya, monoshaharlar shakllanish omillari “Hikoya” metodi yordamida tavsiflanadi;

➢ shahar aglomeratsiyalari, megalopolislar va ularning vujudga kelishi sabablari “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi o‘yinni ham qo‘llash mumkin:

“Adashtirdim, toping-chi?” o‘yini

Berilgan ma’lumotlardagi xatolarni toping va ularni to‘g‘rilab, jadvalni to‘ldiring.

Ma’lumotlar	Noto‘g‘ri	To‘g‘ri
Mintaqalar orasida eng yuqori urbanizatsiya darajasi Yevropaga tegishli.	Yevropaga	Shimoliy Amerikaga
Soxta urbanizatsiya holati rivojlangan davlatlarda keng tarqalgan.		
Ko‘lbo‘yi (Chipits) megalopolisida aglomeratsiyalar soni 25 ta.		

1800-yilda yer yuzi aholisining 14 % i shaharlarda yashagan.		
Soxta urbanizatsiya ayniqsa Xitoy va Hindistondagi yirik shaharlarda keng tarqalgan.		
Tokaydo megalopolisi jahondagi eng uzun megalopolis hisoblanadi.		
Misr o‘rtacha darajada urbanizatsiyalashgan davlatlar guruhiga kiradi.		
Ingliz megalopolisi AQSHda shakllangan.		

V bosqich. **Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)**

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. **Baholash va uyga vazifa**

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

12-§. Amaliy mashg‘ulot

Aholi harakati, tarkibi va joylashuviga oid masalalar

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Aholi ko‘payishi, zichligi va tarkibi, mamlakatlarning urbanizatsiya darajasiga oid masalalarni bajarishni o‘rganish; amaliy ko‘nikmalarni va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, daftar.	O‘quvchilar aholi ko‘payishi, mamlakatlar aholisi zichligi va urbanizatsiya darajasiga oid masalalarni mustaqil bajarish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi; mamlakatlar aholisi tarkibiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tavsiflay oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar	10.1.6.1. Aholining yosh-jins va milliy tarkibini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar, ularning aholi ko‘payishiga bog‘liqligini tushunadi; 10.1.6.2. Jahonda urbanizatsiya (shaharlashuv) jarayonining mohiyatini tushunadi.	
AK2. Geografik hodisalarni kuzatish va geografiyaga oid masalalarni yechish	10.2.2.1. Mamlakatlar aholisi va urbanizatsiyaga doir geografik masalalarni yechadi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Ayrim o‘quvchilar masalalarni bajarish jarayonida formulalarni o‘rinli qo‘llashda muammolarga duch kelishi mumkin.	
Tavsiya	Masalalarni bajarish uchun zarur formulalarni doskada yozib yoki taqdimot orqali ko‘rsatish kerak.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

“Atamalar tahlili” usuli

Quyidagi izohlar qaysi atamalarga tegishli ekanini toping.

Yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarining bir-biriga qo‘shilib ketishi	
Shaharlar, shahar aholisining soni va salmog‘ining o‘sishi, shahar turmush tarzining tarqalish jarayoni	
Turli kattalikdagi shaharlarning ma’muriy, ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy aloqalar natijasida birlashuvi	

Xotira mashqi

Urbanizatsiya darajasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha jahon davlatlari qanday guruhlarga bo‘linishini yozing va ularga qisqacha tavsif bering.

Urbanizatsiya darajasiga ko‘ra davlatlarning guruhlari	Shahar aholisining ulushi, %	Ushbu guruhga kiruvchi davlatlar
_____ darajada urbanizatsiyalashgan davlatlar		
_____ darajada urbanizatsiyalashgan davlatlar		
_____ darajada urbanizatsiyalashgan davlatlar		

III bosqich. Amaliy topshiriqlarni bajarish

Ushbu amaliy mashg‘ulotda berilgan birinchi 3 ta topshiriq bevosita hisoblash ishlari bilan bog‘liq bo‘lgani bois o‘quvchilar ularni individual bajarishadi. Mazkur jarayon o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va har bir topshiriq bajarilganidan so‘ng tekshirib boriladi.

4-topshiriq tahliliy fikrlashni talab etganligi va biroz murakkabligi uchun uni o‘quvchilar yakka holda emas, balki kichik guruhlarga bo‘lingan holda bajarishlari maqsadga muvofiq. Topshiriqni bajarish yakunlangach, har qaysi guruhning berilgan vaziyatlar bo‘yicha izohlari tinglanadi, xato va kamchiliklari tuzatiladi.

Topshiriqlarni bajarish uchun quyidagi formulalarni qo‘llash mumkin:

Aholi zichligi: $A_z = A_s / M$

Bu yerda: A_z – aholi zichligi;

A_s – aholi soni;

M – maydon.

Urbanizatsiya darajasi: $S_{urb} = (S_{sh} / S_j) \cdot 100\ \%$

Bu yerda: S_{urb} – urbanizatsiya darajasi;

S_{sh} – shahar aholisi soni;

S_j – jami aholi soni.

Aholining tabiiy ko‘payishi: $T_k = T_s - O‘_s$

Bu yerda: T_k – aholining tabiiy ko‘payishi;

T_s – tug‘ilganlar soni;

$O‘_s$ – o‘lganlar soni.

Aholining migratsion ko‘payishi: $M_k = M_i - M_e$

Bu yerda: M_k – aholining migratsion ko‘payishi;

M_i – ko‘chib kelganlar soni;

M_e – ko‘chib ketganlar soni.

Aholining umumiy ko‘payishi: $U_k = T_k + M_k$

Bu yerda: U_k – aholining umumiy ko‘payishi;

T_k – aholining tabiiy ko‘payishi;

M_k – aholining migratsion ko‘payishi.

Izoh: ushbu formulalar tavsiyaviy xarakterda.

Darslikda berilgan tegishli topshiriqlarning javoblari:

1-topshiriq

a) Kolumbiya aholisi zichligi – 45 kishi/km^2

b) Buyuk Britaniya aholisi zichligi – 276 kishi/km^2

d) Qozog‘iston aholisi zichligi – 7 kishi/km^2

e) Gana aholisi zichligi – 130 kishi/km^2

2-topshiriq

Davlatlar	Jami aholisi, mln kishi	Shahar aholisi soni, mln kishi	Urbanizatsiya darajasi, %	Qishloq aholisi soni, mln kishi	Qishloq aholisi ulushi, %
Meksika	*127,8*	93,3	73	*34,5*	*27*
JAR	*59,6*	39,9	*67*	19,7	*33*
Myanma	54,7	*16,4*	*30*	38,3	*70*
Avstriya	8,9	*5,2*	59	*3,7*	*41*
Urugvay	*3,5*	3,3	*95*	*0,2*	5

3-topshiriq

Davlatlar	Aholining tabiiy ko‘payishi, ming kishi	Aholining migratsion ko‘payishi, ming kishi	Aholining umumiy ko‘payishi, ming kishi	1.01.2021-yil holatiga ko‘ra aholi soni, ming kishi
Latviya	– 11,4	– 3,2	– 14,6	1893,1
Qirg‘iziston	118,1	– 4,8	113,3	6636,8

4-topshiriq

Bolalar salmog‘i Belgiyada ancha past (17 %), Mozambikda juda yuqori (46 %), Saudiya Arabistonida esa nisbatan past (25 %) ko‘rsatkichga ega ekani ushbu mamlakatlarda tug‘ilish ko‘rsatkichlari (1000 kishiga nisbatan Belgiyada 10 kishi, Mozambikda 39 kishi, Saudiya Arabistonida 15 kishi) orasidagi farqlar bilan bog‘liq.

Mehnat yoshidagi aholi ulushi Saudiya Arabistonida juda yuqori (72 %) ko‘rsatkichga ega bo‘lishiga migratsion ko‘payishning yuqoriligi (1000 kishiga nisbatan 12 kishi) katta ta’sir ko‘rsatsa (migratsiyada asosan mehnat yoshidagilar ishtirok etadi), Mozambikda eng past darajada (51 %) ekani tug‘ilishning juda yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Belgiyada esa mehnat yoshidagilar salmog‘ining yuqoriligi (64 %) ko‘p jihatdan tug‘ilishning past ko‘rsatkichi bilan bog‘liq.

Keksalar salmog‘ining Belgiyada juda yuqori (19 %) darajada bo‘lishi aholining o‘rtacha umr ko‘rish yoshi yuqoriligi (82 yosh) va tug‘ilish ko‘rsatkichining juda past ekani bilan izohlanadi. Mozambikda bu ko‘rsatkich juda past (3 %) ekani o‘rtacha umr ko‘rish yoshining pastligi (55 yosh) bilan tavsiflansa, Saudiya Arabistonida migratsion ko‘payish yuqoriligi hisobiga aholining katta qismini mehnat yoshidagilar tashkil etgani uchun keksa yoshdagi aholi ulushi juda past (3 %).

IV bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Amaliy topshiriqlar bajarib bo‘lingach, o‘quvchilar bilan mashg‘ulot jarayonida erishilgan natijalar, darsda qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

V bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalari hamda dars jarayonidagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.



4-BOB. JAHON XO‘JALIGI GEOGRAFIYASI

13-§. Jahon xo‘jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Jahon xo‘jaligi, xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro ixtisoslashuv va uning omillari haqida ma’lumotga ega bo‘lish; jahon iqtisodiyoti sektorlar tarkibi, uning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi farqlanishini o‘rganish; fan-texnika inqilobi va uning jahon xo‘jaligiga ta’siri haqida umumiy tasavvurni shakllantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar jahon xo‘jaligi, xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro ixtisoslashuv va uning omillarini tushunadi; jahon iqtisodiyoti sektorlar tarkibi, uning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi farqlanishini anglab yetadi; Fan-texnika inqilobi va uning jahon xo‘jaligiga ta’sirini tahlil qila oladi.
ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati	10.1.8.1. Jahon xo‘jaligi tarmoqlar va hududiy tarkibini, uning o‘zgaruvchanligini tushunadi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, biologiya, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Ayrim o‘quvchilar jahon xo‘jaligiga doir atamalar va ularning mazmunini eslab qolishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar diqqatini jamlash hamda ularning qanday o‘zlashtirayotganini nazorat qilish maqsadida mavzuning ma’lum bir qismi tushuntirilgach, qisqa savol-javoblar o‘tkazib olish maqsadga muvofiq.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. Bilimlarni faollashtirish

Bilimlarni faollashtirish uchun savol-javob usulidan foydalanish mumkin:

1. Sizningcha, davlatlar nima sababdan o‘zaro iqtisodiy hamkorlik qiladi?
2. Mamlakatda iqtisodiyot tarmoqlarning rivojlanganligi qanday omillarga bog‘liq deb hisoblaysiz?
3. Davlatlarning o‘zaro savdo-sotiq qilishida transport tizimining ahamiyati qanday?
4. Xalqaro mehnat taqsimoti deganda nimani tushunasiz?
5. Mamlakatimiz eksporti va importining asosiy qismi to‘g‘ri keladigan davlatlardan qaysilarini bilasiz?

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- jahon xo‘jaligining mohiyati, uning shakllanish va rivojlanish omillari “Savol-javob” va “Hikoya” metodlari orqali tushuntiriladi;
- jahon iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi “Suhbat” metodi orqali izohlanadi;
- rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibi tahlil metodi orqali tushuntiriladi;
- jahon davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatiga ko‘ra tiplari “Taqqoslash” metodi orqali bayon etiladi;
- xalqaro mehnat taqsimoti va unda turli davlatlarning o‘rni “Savol-javob” metodi orqali tavsiflanadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa quyidagi usulni ham qo‘llash mumkin:

“Juftini top” o‘yini

Mos juftliklarni belgilang.

J.Uatt	kofeni jahon bozoriga katta miqdorda olib kiradi.
Tog‘-kon sanoati	uchlamchi sektorning asosiy vazifasi hisoblanadi.
Burundi va Uganda	jahon iqtisodiyoti uchun qishloq xo‘jaligi yetakchi tarmoq bo‘lgan.
XX asr oxiri – XXI asr boshi	radioelektronika, robototexnika mahsulotlari eksporti bo‘yicha peshqadam.
Xizmat ko‘rsatish sohalari	birlamchi sektor tarkibiga kiradi.
Yaponiya	barcha ishlab chiqarish jarayonlarining to‘liq avtomatlashuvi kuzatilmoqda.
XVIII asrgacha	bug‘ mashinasini ixtiro qilgan.

V bosqich. **Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)**

Yangi mavzu tushuntirilib, ushbu mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. **Baholash va uyga vazifa**

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

14-§. Jahon iqtisodiyoti markazlari va xalqaro integratsiya jarayonlari

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Jahon xo‘jaligi geografik “modeli”ning ko‘p markazlilik xususiyati, hozirgi zamonda tez o‘sib borayotgan iqtisodiy markaz va qutblar haqida ma’lumotga ega bo‘lish; xalqaro va regional iqtisodiy integratsiya jarayonlari, transmilliy korporatsiyalarni o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar jahon xo‘jaligi geografik “modeli”ning ko‘p markazlilik xususiyati, hozirgi zamonda tez o‘sib borayotgan iqtisodiy markaz va qutblarni tahlil qila oladi; xalqaro va regional iqtisodiy integratsiya jarayonlari, transmilliy korporatsiyalar va ularning jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini tushunadi.
ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati	10.1.8.1. Jahon xo‘jaligi tarmoqlar va hududiy tarkibini, uning o‘zgaruvchanligini tushunadi. 10.1.8.2. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi jihatidan tasniflanishini tushunadi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, informatika va axborot texnologiyalari, algebra, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Ayrim o‘quvchilar mavzuga doir atamalar va ularning mazmunini eslab qolishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar diqqatini jamlash hamda ularning qanday o‘zlashtirayotganini nazorat qilish uchun mavzuning ma’lum bir qismi tushuntirilgach, qisqa savol-javoblar o‘tkazib olish maqsadga muvofiq.	

Darsning borishi:

I bosqich. **Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)**

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi o‘yindan foydalanish mumkin:

“Xotira mashqi” o‘yini

Jahon davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatiga ko‘ra qanday tiplarga ajratilishini topib, bo‘sh kataklarni to‘ldiring.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati	Qaysi tipga kirishi	Misol
Iqtisodiyotning tarmoq tarkibida qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq ishlab chiqarish tarmoqlari salmog‘i yuqori	agrar davlat	Senegal
Iqtisodiyotning tarmoq tarkibida sanoat va qurilish sohalari salmog‘i yuqori		
Iqtisodiyotning tarmoq tarkibida uchlamchi va to‘rtlamchi sektor tarmoqlari salmog‘i yuqori		
Iqtisodiyotning tarmoq tarkibida qishloq xo‘jaligi va sanoat sohalarining salmog‘i yuqori		
Iqtisodiyotning tarmoq tarkibida sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarining salmog‘i yuqori		

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyo siyosiy xaritasi yordamida jahon iqtisodiy markazlari, ularning tarixiy almashinishi hamda jahon iqtisodiyotidagi o‘rni “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida bayon etiladi;
- xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, integratsion uyushmalarning turlari “Hikoya” metodi orqali tavsiflanadi;
- transmilliy korporatsiyalar va ularning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni, jahondagi eng yirik transmilliy kompaniyalar “Savol-javob” va “Taqqoslash” metodi asosida tushuntiriladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usulni ham qo‘llash mumkin:

“Sirli so‘z va raqamlar” mashqi

Quyidagi so‘z va raqamlarga izoh bering.

polisentrik	_____
26,4 %	_____
OPEK	_____
27 ta	_____
Walmart	_____

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilgandan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

15-§. Amaliy mashg‘ulot

Jahon xo‘jaligi va uning tarkibini o‘rganish

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Jahon xo‘jaligi, xalqaro mehnat taqsimoti va unda mamlakatlarning ishtirokiga oid xarita, jadval va grafiklarni tahlil qilishni o‘rganish; amaliy ko‘nikmalari va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, daftar.	O‘quvchilar jahon xo‘jaligining mohiyati va xalqaro mehnat taqsimotining zaruratini anglab yetadi; xalqaro iqtisodiy integratsiyaning afzalliklari va xavf-xatarlarini tahlil qila oladi.
ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati	10.1.8.1. Jahon xo‘jaligi tarmoqlar va hududiy tarkibini, uning o‘zgaruvchanligini tushunadi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	O‘quvchilar xalqaro iqtisodiy integratsiyaning afzalliklari va xavf-xatarlarini tahlil qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.	
Tavsiya	Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning afzalliklari va xavf-xatarlarini biror davlat yoki tarmoqdagi vaziyat misolida tushuntirish orqali o‘quvchilarga ko‘maklashish maqsadga muvofiq (masalan, neftni eksport qiluvchi davlatlar yoki xalqaro turizmga ixtisoslashgan davlatlar).	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagidan foydalanish mumkin:

Test

1. Bugun jahon yalpi milliy mahsulotining ¼ qismi qaysi mintaqa hissasiga to‘g‘ri keladi?

a) Yevropa Ittifoqi b) Shimoliy Amerika
d) MDH davlatlari e) Osiyoning yangi industrial davlatlari

2. Jahondagi yetakchi 500 ta transmilliy kompaniyalarning katta qismi qaysi davlatlar hududida ro‘yxatdan o‘tkazilgan?

a) AQSH, Xitoy, Yaponiya b) Xitoy, Hindiston, Germaniya
d) Xitoy, Rossiya, AQSH e) AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya

3. Yevropa Ittifoqi tarkibidagi nechta davlat jahonning eng yirik 20 ta iqtisodiyoti qatoriga kiradi?

a) 7 ta b) 8 ta d) 4 ta e) 5 ta

4. Hozirgi kunda transmilliy kompaniyalarning eng katta qismi qaysi sohada faoliyat olib boradi?

a) xizmat ko‘rsatishda b) qishloq xo‘jaligida
d) sanoatda e) xalqaro savdoda

5. Ko‘p tarmoqli “Walmart” transmilliy kompaniyasining bosh idorasi qaysi davlatda joylashgan?
a) Buyuk Britaniya b) AQSH d) Germaniya e) Fransiya

“Atamalar tahlili” usuli

Quyidagi izohlar qaysi atamalarga tegishli ekanini toping.

Butunjahon iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning keskin ravishda kuchayishi	
Davlatlarning o‘zaro mustahkam bozor aloqalari, yagona iqtisodiy siyosat va qonunchiligiga asoslangan iqtisodiy birlashish jarayoni	
Ikki va undan ortiq mamlakatda faoliyat ko‘rsatadigan korxonalar hamda katta miqdorda xorijiy aktivlarga ega xalqaro kompaniya	

III bosqich. Amaliy topshiriqlarni bajarish

Topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi. Bunda har qaysi guruhga iqtidorli o‘quvchilar va boshqa o‘quvchilar teng taqsimlanishiga ahamiyat beriladi. O‘qituvchi har bir guruhda topshiriqlarning qanday bajarilishini kuzatib, zarur vaqtda o‘quvchilarga tegishli ko‘rsatmalar beradi. Topshiriq bajarib bo‘lingach, uni tekshirib, o‘quvchilarga ularning harakati va erishgan natijasiga muvofiq turli rangdagi rag‘bat kartochkalarini berib borish tavsiya etiladi.

Darslikda berilgan tegishli topshiriqlarning javoblari:

1-topshiriq

Birlamchi sektor	a	g	
Ikkilamchi sektor	d	f	j
Uchlamchi sektor	e	h	
To‘rtlamchi sektor	b	i	

2-topshiriq

1 – b; 2 – h; 3 – g; 4 – e; 5 – a; 6 – f; 7 – d.

3-topshiriq

Xalqaro iqtisodiy integratsiya	
Afzalliklari	Xavf-xatarlari
Davlatlar o‘rtasida integratsion jarayonlarning kuchayishi o‘zaro iqtisodiy aloqalarning, jumladan, xalqaro savdo, turizm hamda boshqa sohalarning jadal rivojlanishiga olib keladi, ishlab chiqarishni jahon miqyosida, resurslardan samarali va oqilona foydalangan holda tashkil etish imkoniyatini beradi.	Davlatlarning o‘zaro iqtisodiy aloqalari ko‘lami muttasil ravishda ortib borishi va ular iqtisodiyotining yuqori darajada integratsiyalashgani sharoitida ushbu mamlakatlarning birortasida iqtisodiy inqiroz yuz berishi boshqa davlatlar iqtisodiyotiga ham kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

4-topshiriq

Turli mamlakatlar va mintaqalarning jahon iqtisodiyotining asosiy markazlariga aylanishiga bir qancha omillar ta’sir etgan. Masalan, XVII asrdan boshlab XX asr boshlarigacha Angliya va o‘sha davrning boshqa rivojlangan davlatlari joylashuvi hisobiga Yevropa qit’asi jahon miqyosida e’tirof etilgan bo‘lsa, Birinchi jahon urushidan keyingi davrlarda mazkur urushda g‘oliblar tomonidan janglarda qatnashib, o‘z mavqeini yanada mustahkamlab olgan AQSH hisobiga jahon iqtisodiyotida ikki markazlilik holati yuzaga kelgan.

Xitoy, Hindiston, MDH davlatlari, Braziliya, Meksika singari jahon iqtisodiyoti markazlarining shakllanishiga ularning ulkan tabiiy va mehnat resurslari katta ahamiyat kasb etsa, Fors qo‘ltig‘i davlatlarining bunday maqomga erishishi ularning jahon energetikasida tutgan o‘rni bilan bog‘liq.

Biror davlat yoki mintaqaning jahon iqtisodiyoti markaziga aylanishida har doim ham tabiiy resurslar omili muhim rol o‘ynamasligiga Yaponiya tipik misoldir. Ushbu mamlakat deyarli hech qaysi tabiiy resurs bilan o‘z ehtiyojini qondira olmaydi. Shunday bo‘lsa-da, ilm-fanni rivojlantirish, eng zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish orqali yuqori sifatli mahsulotlarni katta hajmda ishlab chiqarishi va eksport qilishi natijasida Yaponiya jahon iqtisodiyotida o‘zining mustahkam o‘rniga ega bo‘ldi.

IV bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Amaliy topshiriqlar bajarib bo‘lingach, o‘quvchilar bilan mashg‘ulot jarayonida erishilgan natijalar, darsda qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

V bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma va kompetensiyalari hamda dars jarayonidagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

16-§. Jahon energetikasi geografiyasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Yoqilg‘i-energetika sanoatining tarkibi, jahon yoqilg‘i-energetika balansi, neft va gaz zaxiralari joylashgan asosiy hududlar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish; neft va gazni qazib oladigan va eksport qiladigan asosiy davlatlar, ko‘mir qazib oladigan yirik davlatlarni o‘rganish; elektr energetika va uning asosiy tarmoqlari haqida umumiy tasavvurni shakllantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar yoqilg‘i-energetika sanoatining tarkibi, jahon yoqilg‘i-energetika balansini tahlil qila oladi; neft va gaz zaxiralari joylashgan asosiy hududlarni, neft va gazni qazib oladigan va eksport qiladigan asosiy davlatlarni, ko‘mir qazib oladigan yirik davlatlarni biladi; elektr energetika va uning asosiy tarmoqlari haqida ma’lumotga ega bo‘ladi.
ISK2. Tabiiy resurslar va geologik savodxonlik	10.1.2.2. Ko‘mir, neft, tabiiy gaz, temir, oltin singari foydali qazilmalarning zaxiralari va hududiy tarqalishiga oid ma’lumotlarni tushunadi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi.	
Fanlararo bog‘lanish	Kimyo, fizika, biologiya, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilganda o‘quvchilar foydali qazilmalarning tarqalishi joyning geologik tuzilishi bilan bog‘liqligini yaxshi tasavvur eta olmasliklari mumkin.	
Tavsiya	Mavzuni bayon etishda ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan birga tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. Bilimlarni faollashtirish

Bilimlarni faollashtirishda “Savol-javob” metodidan foydalanish mumkin:

1. Yoqilg‘i-energetika balansi nima?
2. Nima uchun neft “qora oltin” deb ham ataladi?
3. OPEK haqida nimalarni bilasiz?
4. Gazdan asosan qaysi sohalarda keng foydalaniladi?
5. Gaz kondensatidan qanday mahsulotlar olinadi?
6. Sizningcha, iqtisodiyotda ko‘mirdan foydalanishning qanday ijobiy va salbiy jihatlari bor?
7. “GES”,“IES” va “AES” tushunchalarining mohiyati nima?
8. Noan’anaviy energiya manbalariga nimalar kiradi?

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- yoqilg‘i sanoatining asosiy tarmoqlari “Insert” metodi yordamida izohlanadi. Mazkur metod o‘quvchilarda yangi axborot tizimini qabul qilish va bilimlarning o‘zlashtirilishini yengillashtiradi, shuningdek, o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham bajaradi;
- elektr energetika sanoati va uning tarmoqlari “Suhbat” va “Savol-javob” metodlari orqali tushuntiriladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usullarni ham qo‘llash mumkin:

Xotira mashqi

Jahon energetikasining turli tarmoqlarida yetakchilik qiladigan davlatlarni yozing.

Neft qazib olish bo‘yicha	Gaz qazib olish bo‘yicha	Ko‘mir qazib olish bo‘yicha	Elektr energiyasi ishlab chiqarish bo‘yicha

“Kim chaqqon?” o‘yini

Bunda o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, ularga doskaning o‘ziga ajratilgan qismiga o‘tilgan mavzu bo‘yicha ma’lumotlarni yozish topshirig‘i beriladi. Bu o‘yin o‘quvchilarni tezkor fikrlash va tez harakat qilishga o‘rgatishda qo‘l keladi.

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

17-§. Amaliy mashg‘ulot

Jahon sanoati geografiyasi va uning o‘zgarib borishini o‘rganish

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Jahon sanoatining hududiy tarkibi va uning o‘zgarib borishi aks etgan jadval, diagramma va grafiklarni tahlil qilishni o‘rganish; jahon sanoati geografiyasining hozirgi holati haqida umumiy tasavvurni boyitish; tahliliy ko‘nikmalar va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, daftar.	O‘quvchilar jahon sanoatining hududiy tarkibi va uning dinamikasi xususiyatlarini anglab yetadi; jahon sanoatining rivojlanish istiqbollarini tahlil qila oladi.
ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati	10.1.8.1. Jahon xo‘jaligi tarmoqlar va hududiy tarkibini, uning o‘zgaruvchanligini tushunadi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi; 10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Algebra, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	O‘quvchilar turli sohalar bo‘yicha davlatlarning mutlaq yoki nisbiy ko‘rsatkichlari o‘zgarishlarini aniqlash va ularni izohlashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.	
Tavsiya	O‘qituvchi tomonidan topshiriqlarni bajarish yo‘llari ayrim misollar yordamida tushuntirib borilishi maqsadga muvofiq.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi mashqdan foydalanish mumkin:

“To‘g‘ri yoki Noto‘g‘ri” mashqi

Quyidagi ma’lumotlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini ko‘rsating.

Ma’lumotlar	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
Elektr energetika sanoatning muhim tarmog‘i bo‘lib, boshqa sohalarning rivoji uchun asos yaratib beradi.		
OPEK davlatlari hududida jahon neft zaxiralarining ¾ qismi to‘plangan.		
Jahonning 50 ga yaqin davlatida suyultirilgan gaz ishlab chiqariladi.		
Norvegiya va Buyuk Britaniyada qazib olinadigan neftning hammasi dengiz sayozligidan olinadi.		
Tabiiy gaz suyuq holatga o‘tkazilishi jarayonida o‘rtacha hisobda 800 martagacha siqiladi.		
Eng yirik AESlar Yaponiya, AQSH, Fransiya, Germaniya, Rossiya kabi davlatlar hududida joylashgan.		
Elektr energiyasini ishlab chiqarishda issiqlik, gidro va atom elektr stansiyalari ulushi deyarli 90 % ni tashkil etadi.		

III bosqich. Amaliy topshiriqlarni bajarish

Topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi. Bunda har qaysi guruhda iqtidorli o‘quvchilar va boshqa o‘quvchilarning teng taqsimlanishiga ahamiyat beriladi. O‘qituvchi har bir guruhda topshiriqlarning qanday bajarilishini kuzatib, zarur vaqtlarda o‘quvchilarga tegishli ko‘rsatmalar beradi. Topshiriq bajarib bo‘lingach, uni tekshirib, o‘quvchilarni harakati va erishgan natijasiga muvofiq rag‘batlantirib borish tavsiya etiladi.

Darslikda berilgan tegishli topshiriqlarning javoblari:

1-topshiriq

— Xitoy, Hindiston va Koreya Respublikasida 2000–2018-yillar oralig‘ida po‘lat eritish hajmi eng yuqori darajada o‘sgan.

— Po‘lat eritish bo‘yicha jahonning 10 ta yetakchi davlatlari reytingida 2000–2018-yillar mobaynida Hindiston va Turkiyaning o‘rni ko‘tarildi, Yaponiya, AQSH, Rossiya, Germaniya, Ukraina, Braziliya, Italiya davlatlarining o‘rni esa pasayib ketdi. Bunga asosan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlari va xizmat ko‘rsatish sohalarining tobora muhim ahamiyat kasb eta borishi hamda atrof-muhitga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan sanoat tarmoqlarida, xususan, qora metallurgiyada ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining asta-sekin pasayib borayotgani sabab bo‘lmoqda.

— 2000–2018-yillarda Xitoyning jahon bo‘yicha po‘lat eritishdagi ulushi 15,1 % dan 51,1 % ga, Hindistonning ulushi 3,2 % dan 6 % ga ortgan bo‘lsa, Yaponiyaning bu boradagi ko‘rsatkichi 12,5 % dan 5,7 % ga pasaygan.

2-topshiriq

— Braziliya, Gvineya, Yamayka, Qozog‘iston, Gayana, Surinam boksit rudalarini ko‘p qazib olsa ham, alyuminiy eritish bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda turmaydi. Aksincha, Kanada, BAA, Bahrayn, Norvegiya, AQSH, Islandiya boksit rudalari qazib olish bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lmasa-da, alyuminiy eritish bo‘yicha peshqadam davlatlar qatoriga kiradi. Boksit rudalarini ko‘p miqdorda qazib olishda yetakchi bo‘lgan aksariyat iqtisodiy rivojlanayotgan davlatlar uning katta qismini qayta ishlamasdan, xomashyo sifatida tashqi bozorga chiqarishi va, aksincha, alyuminiy eritishda yuqori o‘rinlarda turuvchi aksariyat iqtisodiy rivojlangan davlatlar boksit zaxiralari bo‘yicha oldingi o‘rinlarda turmasa ham, ushbu xomashyoni katta miqdorda import qilish va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni keng yo‘lga qo‘yganligi ushbu tafovutlarning sabablaridir.

— Boksit rudalarini qazib olishda Osiyo mintaqasining salmog‘i Xitoy, Hindiston, Qozog‘iston davlatlari hisobiga, Lotin Amerikasining salmog‘i Braziliya, Yamayka, Gayana va Surinam davlatlari hisobiga, Avstraliya va Okeaniya mintaqasining salmog‘i Avstraliya hisobiga hamda Afrika mintaqasining salmog‘i Gvineya davlati hisobiga yuqori.

— Alyuminiy eritishda Osiyo mintaqasining salmog‘i Xitoy, Hindiston, BAA hamda Bahrayn, Shimoliy Amerika mintaqasining salmog‘i Kanada va AQSH, Yevropa mintaqasining salmog‘i Norvegiya va Islandiya hamda MDH davlatlari salmog‘i Rossiya hisobiga yuqori.

3-topshiriq

— 2000–2018-yillar oralig‘ida jahon bo‘yicha avtomobil ishlab chiqarish hajmi 38,5 mln donaga ko‘paygan yoki 166 % ga o‘sgan. Bu o‘zgarishlarga Xitoy, Hindiston, Meksika davlatlarining ta’siri eng katta bo‘lgan.

— Ko‘rilayotgan davr mobaynida avtomobillarni eng ko‘p ishlab chiqaruvchi davlatlar reytingida Xitoy, Hindiston, Meksika davlatlarining o‘rni sezilarli darajada yaxshilangan. Aksincha, AQSH, Yaponiya, Germaniya, Koreya Respublikasi, Ispaniya, Fransiya davlatlarining o‘rni tushib ketgan.

— Tegishli vaqt oralig‘ida avtomobilsozlik sanoati rivojlanayotgan davlatlarda tez o‘sgan. Bu jarayonga bir qator omillar ta’sir etadi. Masalan, rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ishchi kuchi va xomashyo narxining arzonligi, soliq va to‘lovlarda ayrim imtiyozlar mavjudligi, aholining turmush darajasi tobora o‘sib borayotgani kabi omillar ishlab chiqaruvchilarni o‘ziga ko‘proq jalb qiladi.

4-topshiriq

— Yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda, 2018-yil holatiga ko‘ra, Osiyo, Shimoliy Amerika va Yevropa mintaqalarining salmog‘i yuqori, Avstraliya va Okeaniya, Afrika hamda Lotin Amerikasi mintaqalarining salmog‘i esa past.

— 2002–2018-yillar mobaynida yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda Osiyo mintaqasining salmog‘i sezilarli darajada o‘sdi, Shimoliy Amerika va Yevropa mintaqalarining hissasi ancha pasaydi.

IV bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Amaliy topshiriqlar bajarib bo‘lingach, o‘quvchilar bilan mashg‘ulot jarayonida erishilgan natijalar, darsda qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

V bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma va kompetensiyalari hamda dars jarayonidagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

18-§. Jahon qishloq xo‘jaligi geografiyasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Don ekinlari, bug‘doy, sholi va makkajo‘xori ekiladigan asosiy rayonlar, moyli ekinlar, ildizmevali ekinlar, quvvat beruvchi, tolali o‘simliklarni o‘rganish; chorvachilik, qoramolchilik, cho‘chqachilik, qo‘ychilik va baliqchilik haqida bilim va tushunchalarni boyitish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar don ekinlari, bug‘doy, sholi va makkajo‘xori ekiladigan asosiy rayonlarni tavsiflay oladi; moyli ekinlar, ildizmevali ekinlar, quvvat beruvchi, tolali o‘simliklar geografiyasini anglab yetadi; chorvachilik va uning asosiy tarmoqlari, qoramolchilik, cho‘chqachilik, qo‘ychilik va baliqchilik sohalarini biladi.
ISK7. Inson va tabiatning o‘zaro munosabatlari **IXK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.7.1. Tabiatdan foydalanishning oqilona va nooqilona shakllarini farqlaydi. 10.1.8.1. Jahon xo‘jaligi tarmoqlar va hududiy tarkibini, uning o‘zgaruvchanligini tushunadi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi.	
Fanlararo bog‘lanish	Biologiya, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida muayyan vaqtdan so‘ng o‘quvchilarning diqqatini jamlashda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar diqqatini jamlash hamda ularning qanday o‘zlashtirayotganini nazorat qilish uchun mavzuning ma’lum bir qismi tushuntirilgach, qisqa savol-javoblar o‘tkazib olish maqsadga muvofiq.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. Bilimlarni faollashtirish

Bilimlarni faollashtirishda “Savol-javob” metodidan foydalanish mumkin:

1. Nima uchun odamlar qishloq xo‘jaligi bilan qadim zamonlardan shug‘ullanib kelgan?
2. Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining ahamiyati qanday?
3. Qishloq xo‘jaligining rivojlanishi qanday omillar bilan bog‘liq?
4. Qishloq xo‘jaligining qanday tarmoqlarini bilasiz?
5. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlariga nimalar kiradi?

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- jahon qishloq xo‘jaligi hamda uning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotidagi

ahamiyati “Savol-javob” metodi orqali bayon etiladi;

- dehqonchilik, uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar “Suhbat” metodi yordamida tavsiflanadi;
- turli ekinlarni yetishtirish bo‘yicha peshqadam mamlakatlar “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari orqali tushuntiriladi;
- chorvachilik va uning asosiy tarmoqlari “Savol-javob” va “Hikoya” metodlari orqali tavsiflanadi;
- chorvachilikning turli tarmoqlari va baliqchilik sohasida yetakchi davlatlar “Savol-javob” metodi orqali bayon etiladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usullarni ham qo‘llash mumkin:

“Raqamlar so‘zlaganda” usuli

Quyidagi raqamlarga sharh yozing.

1,4 mlrd	
90 %	
735 mln t	
1/3 qismi	

“Kim o‘zar?” o‘yini

Quyida berilgan ekinlarni yetishtiruvchi 3 tadan yetakchi davlatlarni yozing.

Bug‘doy – _____;
Makkajo‘xori – _____;
Qandlavlagi – _____;
Choy – _____;
Kakao – _____;
Paxta – _____.

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

19-§. Jahon transporti geografiyasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Transport moddiy ishlab chiqarishning uchinchi yetakchi tarmog‘i ekanini, jahon transport geografiyasi tizimidagi tafovutlarni, transport to‘ri rivojlangan mamlakatlarni o‘rganish; avtomobil va temir yo‘llarning uzunligi va zichligi, suv transporti: dengiz transporti, dengiz savdo floti, jahon portlari, dengiz kanallari, bo‘g‘izlari, ichki suv transporti haqida ma’lumotga ega bo‘lish; quvur transporti, havo transporti, aeroportlar, transport va atrof-muhit to‘g‘risidagi bilim va tushunchalarni boyitish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar transport moddiy ishlab chiqarishning uchinchi yetakchi tarmog‘i ekanini, jahon transport geografiyasi tizimidagi tafovutlarni, transport to‘ri rivojlangan mamlakatlarni izohlay oladi; avtomobil va temir yo‘llarning uzunligi va zichligi, suv transporti: dengiz transporti, dengiz savdo floti, jahon portlari, dengiz kanallari, bo‘g‘izlari, ichki suv transporti haqida biladi; quvur transporti, havo transporti, aeroportlar, transport va atrof- muhit to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qila oladi.
ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati	10.1.8.1. Jahon xo‘jaligi tarmoqlar va hududiy tarkibini, uning o‘zgaruvchanligini tushunadi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi.	
Fanlararo bog‘lanish	Fizika, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida muayyan vaqtdan so‘ng o‘quvchilarning diqqatini jamlashda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar diqqatini jamlash hamda ularning qanday o‘zlashtirayotganini nazorat qilish maqsadida mavzuning ma’lum bir qismi tushuntirilgach, qisqa savol-javoblar o‘tkazib olish maqsadga muvofiq.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)


Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi metoddan foydalanish mumkin:

“Xarita bilan ishlash" metodi

Ushbu xaritada harflar bilan chorvachilikning qaysi tarmoqlarida yetakchi davlatlar ko‘rsatilganini toping.



1. Parrandalar soniga ko‘ra: *G., A.*
2. Parranda go‘shti eksporti bo‘yicha: *A. , C.*
3. Tuyachilik rivojlangani bo‘yicha: *D., B.*
4. Qo‘ylar soniga ko‘ra: *G., E.*

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- transport tizimi, uning ahamiyati “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari orqali tushuntiriladi;
- transport turlari, ularning o‘ziga xos afzalliklari “Taqqoslash” metodi orqali tavsiflanadi;
- jahonning siyosiy xaritasidan transport turlari rivojlangani bo‘yicha yetakchi davlatlar ko‘rsatiladi;
- transport turlarining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar “Savol-javob” metodi orqali tahlil qilinadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi o‘yinni ham qo‘llash mumkin:

“Geografik loto” o‘yini

Bunda “loto toshlari”ga savollar yoziladi va raqamlab qo‘yiladi. Masalan:

1. “Eshikdan eshikkacha” ta’rifi transportning qaysi turi uchun xos?
2. Jahonda tashilayotgan yuklarning qancha qismi dengiz transportiga to‘g‘ri keladi?
3. Dengiz transportida umumiy yuk tashish hajmida eng katta ulush qaysi okeanga to‘g‘ri keladi ?
4. Ichki suv transporti yo‘llari uzunligiga ko‘ra qaysi davlat yetakchi o‘rinda turadi?
5. Dengiz transport vositalariga xizmat ko‘rsatuvchi qancha port mavjud?

Loto doskasi kataklariga savollarning javoblari yozib qo‘yiladi. Masalan: *avtomobil, 60%, Tinch okean, Rossiya, 2000 dan ortiq* va boshqalar. Boshqaruvchi xaltachadan raqam yozilgan “Loto toshi”ni olib, undagi savolni o‘qiydi. O‘quvchilar “Loto doskasi”dan to‘g‘ri javobni topib, uning ustini raqamlangan qog‘ozcha bilan yopib qo‘yadi. “Loto doskasi”ni birinchi bo‘lib to‘g‘ri to‘ldirgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

20-§. Xalqaro iqtisodiy aloqalar geografiyasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Xalqaro iqtisodiy aloqalar va ularning asosiy turlarini o‘rganish; xalqaro savdoning tovar va hududiy tarkibi, ularning zamonaviy sharoitda o‘zgarib borishi haqida ma’lumotga ega bo‘lish; mamlakatlarning tashqi savdo siyosati va uning instrumentlari, xalqaro turizm geografiyasi yuzasidan tasavvurlarni boyitish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar xalqaro iqtisodiy aloqalar va ularning asosiy turlarini biladi; xalqaro savdoning tovar va hududiy tarkibi, ularning zamonaviy sharoitda o‘zgarib borishini izohlay oladi; mamlakatlarning tashqi savdo siyosati va uning instrumentlarini, xalqaro turizm geografiyasini tahlil qila oladi.
ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati	10.1.8.1. Jahon xo‘jaligi tarmoqlar va hududiy tarkibini, uning o‘zgaruvchanligini tushunadi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, algebra, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida muayyan vaqtdan so‘ng o‘quvchilarning diqqatini jamlashda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar diqqatini jamlash hamda ularning qanday o‘zlashtirayotganini nazorat qilish maqsadida mavzuning ma’lum bir qismi tushuntirilgach, qisqa savol-javoblar o‘tkazib olish maqsadga muvofiq.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi metoddan foydalanish mumkin.

“Assesment” metodi

Test Quyidagilar orasidan neft quvurlari uzunligi bo‘yicha yetakchi davlatlarni toping. a) AQSH, Yaponiya **b) Kanada, Xitoy** c) Rossiya, Meksika d) Saudiya Arabistoni, Eron	*Muammoli vaziyat* Sizningcha, transport vositalari ko‘payishi natijasida atrof-muhit ifloslanishining oldini olish uchun qanday chora-tadbirlar eng yaxshi samara beradi?

Simptom	*Amaliy ko‘nikma*
Yo‘l infratuzilmasi bu – ...	Transport turlarining afzalliklari va kamchiliklarini ayting.

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- xalqaro iqtisodiy aloqalarning mohiyati va uning asosiy ko‘rinishlari “Tushuntirish” metodi orqali bayon etiladi;
- xalqaro savdoning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi o‘rni, xalqaro savdoda qo‘llanadigan tushunchalar va uning geografiyasi “Savol-javob” va “Taqqoslash” metodlari orqali tavsiflanadi;
- kapital eksportining mohiyati va mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyati “Tushuntirish” va “Suhbat” metodlari orqali izohlanadi;
- xalqaro turizmning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni, uning asosiy yo‘nalishlari va turli mintaqalarda rivojlanish holati “Hikoya” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa quyidagi mashqni ham qo‘llash mumkin:

“To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri” mashqi

Quyidagi ma’lumotlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ko‘rsating.

1. Tashqi savdo aylanmasi hajmiga ko‘ra AQSH jahonda yetakchilik qiladi.
2. Xalqaro savdoning ¾ qismini mahsulotlar savdosi tashkil qiladi.
3. Davlatlarning eksport va importi yig‘indisi tashqi savdo hajmi deb ataladi.
4. Ispaniya, Gretsiya, Italiya, Misr kabi davlatlar xalqaro turizmni o‘z milliy iqtisodiyotlarining ixtisoslashgan tarmog‘iga aylantirgan.
5. JAR, Tunis, Misr va Marokash davlatlari sayyohlarning umumiy soniga ko‘ra Afrika qit’asida yetakchilik qiladi.
6. Tashqi savdo balansida import miqdori yuqori bo‘lgan davlatlar orasida Xitoy, Germaniya, Rossiya kabi davlatlar alohida ajralib turadi.
7. Turizmning an’anaviy ko‘rinishlaridan biri ekstremal turizm hisoblanadi.

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

21-§. Umumlashtiruvchi dars

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Jahon siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari, aholisi va jahon xo‘jaligi geografiyasi bo‘yicha o‘rganilgan mavzularga doir xarita va grafikli topshiriqlarni bajarishni o‘rganish; amaliy ko‘nikmalarni va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, daftar.	O‘quvchilar jahon siyosiy xaritasi, jahon tabiiy resurslari va ularni o‘rganishning ahamiyatini anglab yetadi; jahon aholisining ko‘payishi va tarkibini izohlay oladi; jahon xo‘jaligining rivojlanish xususiyatlari va unga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar **ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.6.1. Aholining yosh-jins va milliy tarkibini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar, ularning aholi ko‘payishiga bog‘liqligini tushunadi. 10.1.8.1. Jahon xo‘jaligi tarmoqlar va hududiy tarkibini, uning o‘zgaruvchanligini tushunadi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi. 10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari.	
Ehtimoliy muammo	O‘quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida xaritadan ayrim davlatlar nomini aniqlashda vaqtdan unumli foydalanish bo‘yicha muammolarga duch kelishi mumkin.	
Tavsiya	Guruhlarda ishlashni samarali tashkil etish maqsadida bajariladigan ishlar ketma-ketligi va guruh a’zolari o‘rtasida ishni taqsimlash bo‘yicha o‘quvchilarga kerakli tushuntirishlarni berib borish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

“Adashtirdim, toping-chi?” o‘yini


Matndagi xatolarni topib, jadvalni to‘ldiring.

Xitoy, AQSH, Belgiya, Yaponiya, Fransiya tashqi savdo aylanmasi hajmiga ko‘ra jahonda yetakchilik qiladi. Xalqaro savdoning ⅓ qismini mahsulotlar savdosi tashkil qiladi. Jahonning rivojlanayotgan davlatlari xalqaro savdoning 60 % dan ortig‘ini ta’minlaydi. Xalqaro savdoning deyarli yarmi G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo-Tinch okean mintaqasi hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Xalqaro turizm jahon YMMning ⅓ qismini, xizmatlar eksportining esa deyarli 20 % ini beradi. Jahon mintaqalari orasida Amerika eng katta turistik oqimni qabul qilishi bilan ajralib turadi. So‘nggi yillarda Afrikaning xalqaro turizmdagi ahamiyati ortmoqda. Afrika qit’asi davlatlari orasida turizm sohasida Sharqiy Afrika davlatlari alohida ajralib turadi. Amerika qit’asi turizmida AQSH, Kanada, Karib havzasi davlatlari katta salmoqqa ega.

Noto‘g‘ri	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri	To‘g‘ri
Belgiya	Germaniya		

“Klaster” metodi

Turizmning an’anaviy va noan’anaviy ko‘rinishlarini yozing.



III bosqich. Amaliy topshiriqlarni bajarish

Topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi. Bunda har qaysi guruhda iqtidorli o‘quvchilar va boshqa o‘quvchilarning teng taqsimlanishiga ahamiyat beriladi. O‘qituvchi har bir guruhda topshiriqlarning qanday bajarilishini kuzatib, zarur vaqtlarda o‘quvchilarga tegishli ko‘rsatmalar beradi. Topshiriq bajarib bo‘lingach, uni tekshirib, o‘quvchilarni harakati va erishgan natijasiga muvofiq rag‘batlantirish tavsiya etiladi.

Darslikda berilgan tegishli topshiriqlarning javoblari:

1-topshiriq

Unitar davlatlar		Federativ davlatlar	
Xaritada belgilanishi	*Davlat nomi*	*Xaritada belgilanishi*	*Davlat nomi*
A	Irlandiya	**D**	Germaniya
B	Surinam	**F**	Malayziya
E	Kuba	**G**	Janubiy Sudan
I	Madagaskar	**H**	Argentina
K	Gonduras	**J**	Rossiya
L	Yaponiya	**M**	Kanada
N	Yangi Zelandiya	**O**	Venesuela
P	Kamerun	**Q**	Avstraliya
R	Ekvador	**T**	Somali
S	Qozog‘iston	**V**	Meksika
U	Bolgariya	**X**	Iroq

2-topshiriq

Aholining tabiiy ko‘payishi rivojlangan davlatlarda ancha past, hatto ayrimlarida manfiy darajada bo‘lgani holda aksariyat rivojlanayotgan davlatlarda yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Bunga aholining turmush darajasi, shahar va qishloq aholisining nisbati, ayollarning ijtimoiy hayotda ishtirok etish darajasi, an’anaviy turmush tarzi va qadriyatlarning saqlanganligi kabi ijtimoiy-iqtisodiy, diniy va milliy omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Rivojlangan davlatlarda aholining yosh tarkibi bolalar salmog‘i kamayib, mehnatga layoqatli yoshdagilar va keksalar ulushi ortib borayotgani bilan tavsiflansa, rivojlanayotgan davlatlarda bolalar salmog‘ining yuqoriligi, mehnatga layoqatli yoshdagilar va ayniqsa, keksalar hissasining nisbatan pastligi xosdir. Bunday demografik vaziyat rivojlangan davlatlarda tug‘ilish va tabiiy ko‘payish darajasining kamayishi, rivojlanayotgan davlatlarda esa ushbu ko‘rsatkichlarning yuqoriligi natijasida yuzaga kelgan.

Jahon aholisining jinsiy tarkibidagi tafovutlarga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Sharqiy, Janubiy va Janubi-G‘arbiy Osiyo hamda Shimoliy Afrika davlatlarida erkaklar salmog‘i ayollarnikiga qaraganda birmuncha yuqoriligini hozirgi sharoitda ushbu mintaqalarda ayollar ijtimoiy mavqeining pastligi, yosh tarkibida keksalar salmog‘ining kamligi hamda migratsion jarayonlar bilan izohlash mumkin. Aksincha, ko‘plab Yevropa davlatlarida tug‘ilish darajasining o‘ta pastligi hamda XX asrda ro‘y bergan ikkita jahon urushidagi katta yo‘qotishlar kabi omillar sababli ayollar salmog‘i yuqori.

3-topshiriq

Birinchi rasmda (a) tasvirlangan hududda shamol energiyasidan foydalanish imkoniyatlari yuqori. Chunki suv havzalari va quruqlik ustida havo bosimi biri-biridan farq qilishi sababli shamol deyarli to‘xtovsiz esadi. Shuningdek, bu kabi hududlarda suv qalqishi energiyasidan foydalanishni ham yo‘lga qo‘yish mumkin.

Keyingi rasmda (b) ko‘rsatilgan hududda quyosh energiyasidan samarali foydalanish mumkin. Buni rasmdagi singari qumli cho‘llarda havo ko‘pincha bulutsiz hamda quyoshdan keladigan radiatsiya miqdori yuqori bo‘lishi bilan izohlash mumkin. Bundan tashqari, cho‘llarda yilning issiq faslida havoning nihoyatda qizib ketishi va havo bosimining keskin pasayishi natijasida atrof hududlardan kuchli shamollar esib turadi. Demak, ushbu hududlar shamol energiyasidan foydalanish uchun ham ancha qulay.

So‘nggi rasmda (d) tasvirlangan hududdan geotermal energiya olish imkoniyatlari yuqori. Chunki geyzerlar tarqalgan hududlarda geotermal energiya resurslari mavjud bo‘ladi.

4-topshiriq

Dengiz transportida yuk tashish boshqa transport turlariga nisbatan eng arzon hisoblanadi. Chunki transportning ushbu turi yordamida juda katta hajmdagi yuklar tashiladi.

Dengiz transporti rivojlanishi bir-biridan ancha olisda joylashgan turli qit’a va davlatlar o‘rtasida keng miqyosda savdo aloqalari yo‘lga qo‘yilishiga imkon berishi orqali jahon xo‘jaligi shakllanishi va rivojlanishiga juda katta ta’sir ko‘rsatgan. Jahon xo‘jaligining shakllanishi XVI – XVII asrlar, ya’ni Buyuk geografik kashfiyotlar davriga borib taqalishining asosiy sabablaridan biri ham aynan dengiz transporti ahamiyatining ortishidir.

IV bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Amaliy topshiriqlar bajarib bo‘lingach, o‘quvchilar bilan mashg‘ulot jarayonida erishilgan natijalar, darsda qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

V bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda dars jarayonidagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.



II bo‘lim. Jahonning regional tavsifi

5-BOB. YEVROPA MAMLAKATLARI

22-§. Yevropaning geografik o‘rni, chegaralari va siyosiy xaritasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Yevropa hududi, chegaralari, geografik o‘rnini o‘rganish; qit’a siyosiy xaritasi va undagi so‘nggi o‘zgarishlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish; Yevropaning subregionlarga bo‘linishini o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Yevropa hududi, chegaralari, geografik o‘rnini tavsiflaydi; qit’a siyosiy xaritasi va undagi so‘nggi o‘zgarishlarni tahlil qila oladi; Yevropaning subregionlarga bo‘linishini biladi.
ISK9. Geosiyosiy tizim va jarayonlar	10.1.9.1. Dunyoning siyosiy xaritasi, uning tuzilishini hamda o‘zgarib borish xususiyatini tushunadi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilganda o‘quvchilar Yevropa mamlakatlari tabiiy sharoitini, xususan, relyef tuzilishini yaxshi tasavvur eta olmasliklari mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan birga tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.	

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. Bilimlarni faollashtirish

Bilimlarni faollashtirish uchun savol-javob usulidan foydalanish mumkin:

1. Yevropa qit’asi Yevrosiyo materigining qaysi qismida joylashgan?
2. "Yevropa" so‘zining ma’nosi nima?
3. Yevropa va Osiyo qit’alari o‘rtasidagi chegara qaysi tog‘ orqali o‘tadi?
4. Yevropa qit’asini qaysi okean suvlari yuvib turadi?
5. Yevropada joylashgan rivojlangan davlatlardan qaysilarini bilasiz?
6. Yevropa qaysi subregionlarga bo‘linadi?
7. Yevropa Afrika qit’asidan qaysi bo‘g‘iz orqali ajralib turadi?
8. Yevropa qaysi foydali qazilmalarga boy?
9. Yevropada joylashgan mitti davlatlardan qaysilarini bilasiz?
10. Qaysi davlatlar ikkita qit’ada joylashgan?

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Yevropaning geografik o‘rni, chegaralari izohlanadi;
- qit’a siyosiy xaritasining shakllanishi va undagi so‘nggi o‘zgarishlar “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari orqali tushuntiriladi;
- Yevropa davlatlarining geografik o‘rniga ko‘ra tasniflanishi “Tushuntirish” va “Taqqoslash” metodlari orqali bayon etiladi;
- qit’a davlatlarining boshqaruv shakli va davlat tuzilishi bo‘yicha tasniflanishi “Savol-javob” va “Hikoya” metodlari orqali tavsiflanadi;
- Yevropa davlatlarining subregionlarga bo‘linishi “Suhbat” metodi orqali yoritiladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usulni ham qo‘llash mumkin:

“Toifalash” jadvali

Quyidagi davlatlarning boshqaruv shakli va davlat tuzilishini topib, tegishli javoblarni belgilang.

Davlatlar	*Respublika*	*Monarxiya*	*Unitar*	*Federativ*
Belgiya		+		+
Chexiya				
Portugaliya				
Buyuk Britaniya				
Norvegiya				
Shveysariya				
Germaniya				
Islandiya				
Vatikan				
Italiya				

V bosqich. **Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)**

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. **Baholash va uyga vazifa**

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

23-§. Amaliy mashg‘ulot
Yevropa siyosiy xaritasini o‘rganish

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Yevropa siyosiy xaritasi bilan ishlashga doir jadval, xarita va grafikli topshiriqlarni bajarishni o‘rganish; amaliy ko‘nikmalar va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, daftar.	O‘quvchilar Yevropa siyosiy xaritasidan mustaqil foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi; qit’a davlatlarining o‘ziga xos geografik xususiyatlarini tahlil qila oladi.
ISK9. Geosiyosiy tizim va jarayonlar	10.1.9.1. Dunyoning siyosiy xaritasi, uning tuzilishini hamda o‘zgarib borish xususiyatini tushunadi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	O‘quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida xaritadan ayrim davlatlar nomini aniqlashda vaqtdan unumli foydalanish bo‘yicha muammolarga duch kelishi mumkin.	
Tavsiya	Guruhlarda ishlashni samarali tashkil etish maqsadida bajariladigan ishlar ketma-ketligi va guruh a’zolari o‘rtasida ishni taqsimlash bo‘yicha o‘quvchilarga kerakli tushuntirishlarni berib borish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)


Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

“Juftini top” o‘yini

Quyidagi raqamlarga mos izohlarni toping.



“Toifalash” jadvali

Quyidagi davlatlarni geografik o‘rniga ko‘ra toifalang.

Italiya	Litva	Moldova	Irlandiya
Albaniya	Slovakiya	Portugaliya	Daniya
Vengriya	San Marino	Belgiya	Ruminiya
Xorvatiya	Estoniya	Shveysariya	Sloveniya

III bosqich. Amaliy topshiriqlarni bajarish

Topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi. Bunda har qaysi guruhda iqtidorli o‘quvchilar va boshqa o‘quvchilarning teng taqsimlanishiga ahamiyat beriladi. O‘qituvchi har bir guruhda topshiriqlarning qanday bajarilishini kuzatib, zarur vaqtlarda o‘quvchilarga tegishli ko‘rsatmalar beradi. Topshiriq bajarib bo‘lingach, uni tekshirib, o‘quvchilarga harakati va erishgan natijasiga muvofiq turli rangdagi rag‘bat kartochkalarini berib borish tavsiya etiladi.

Darslikda berilgan tegishli topshiriqlarning javoblari:

1-topshiriq

I. d, h, j II. a, g, l III. e, i, m IV. b, f, k

2-topshiriq

A – Lixtenshteyn **D –** Malta **F –** Andorra **H –** Lyuksemburg
B – San Marino **E –** Vatikan **G –** Monako

3-topshiriq

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
1	Shimoliy Makedoniya dengizbo‘yi kontinental davlatlar guruhiga kiradi.		–
2	Daniya quruqlikda faqat Germaniya bilan chegaradosh.	+	
3	Gretsiya Janubiy Yevropada joylashgan.	+	
4	Yevropada faqat Buyuk Britaniya, Islandiya va Irlandiya orol davlatlari hisoblanadi.		–
5	Italiya Pireney yarimorolida joylashgan.		–
6	Belgiya poytaxti – Bryussel shahri.	+	
7	Shvetsiya parlamentar respublika hisoblanadi.		–
8	Yevropa subregionlari ichida maydoni eng yirigi bu – Sharqiy Yevropa.	+	
9	Bosniya va Gersegovina – Yevropadagi federativ davlatlardan biri.	+	
10	Fransiya ikkita okean akvatoriyasida joylashgan.		–

4-topshiriq

1.	**G**	**5.**	**I**
2.	**D**	**6.**	**E**
3.	**F**	**7.**	**H**
4.	**A**	**8.**	**B**

5-topshiriq

1. Rossiya 2. Ukraina 3. Fransiya 4. Ispaniya

IV bosqich. **Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)**

Amaliy topshiriqlar bajarib bo‘lingach, o‘quvchilar bilan mashg‘ulot jarayonida erishilgan natijalar, darsda qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

V bosqich. **Baholash va uyga vazifa**

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda dars jarayonidagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari baholanadi.

24-§. Germaniya Federativ Respublikasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Germaniya hududi, chegaralari, geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi haqida ma’lumotga ega bo‘lish; xo‘jaligi, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalarini o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Germaniya hududi, chegaralari, geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi haqida biladi; xo‘jaligi, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalarini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar	10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, biologiya, fizika, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Germaniya aholisi joylashuvi va mamlakat xo‘jaligi ixtisoslashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. **Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)**

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. **Bilimlarni faollashtirish**

Bilimlarni faollashtirish uchun “Savol-javob” usulidan foydalanish mumkin:

1. Yevropadagi iqtisodiy rivojlangan davlatlardan qaysilarini bilasiz?
2. Federativ va unitar davlatlar qanday farqlanadi?
3. Yevropadagi yirik tog‘larga qaysi tog‘lar kiradi?

4. Yevropa hududi qaysi iqlim mintaqalarida joylashgan?
5. Yoqilg‘i-energetika resurslari asosan qanday hududlarda keng tarqalgan?
6. Aholi tabiiy ko‘payishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
7. Yevropadagi tabiiy ko‘payish manfiy darajaga ega bo‘lgan davlatlardan qaysilarini bilasiz?
8. Qaysi davlatlar aholi soniga ko‘ra jahonda peshqadamlik qiladi?
9. Yevropa qit’asidagi eng yirik shaharlardan qaysilarini bilasiz?
10. Germaniyaga tegishli dunyoga mashhur tovar brendlaridan qaysilarini bilasiz?

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Germaniyaning geografik o‘rni, chegaralari va maydoni haqida ma’lumot beriladi;
- Germaniya iqtisodiy-geografik o‘rnining asosiy jihatlari “Suhbat” metodi yordamida bayon etiladi;
- mamlakat tabiiy sharoitining asosiy xususiyatlari, hududiy tafovutlari va uni keltirib chiqargan omillar “Taqqoslash” metodi yordamida tavsiflanadi;
- Germaniyaning tabiiy resurs salohiyati va uning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni “Suhbat” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Germaniyaning aholi va mehnat resurslari soni bo‘yicha Yevropadagi mavqeyi, aholi ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar “Taqqoslash” va “Savol-javob” metodlari orqali bayon etiladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usullarni ham qo‘llash mumkin:

“To‘g‘risini tanla” usuli

Germaniya Federativ Respublikasi haqidagi ma’lumotlar orasidan to‘g‘risini tanlang.

a) Germaniya hududining relyefi shimoldan janubga tomon ko‘tarilib boradi.
b) Germaniya 83,3 mln kishiga teng bo‘lgan aholisi bilan Yevropada 3-o‘rinni egallaydi.
d) Eng yirik daryolari Reyn, Dunay, Elba, Vezer va Oder.
e) Germaniyaliklarning 71 % ga yaqin qismi shaharlarda istiqomat qiladi.
f) Germaniya Yevropada YIM va sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo‘yicha 1-o‘rinda turadi.
g) Germaniyada xorijiy migrantlar soni 13 mln kishidan ortiq.
h) Tug‘ilishning pastligi sababli Germaniyada aholining tabiiy ko‘payishi 1990-yildan buyon manfiy qoldiqqa ega.
i) Germaniya federativ davlat bo‘lib, 16 ta federal hududga bo‘linadi.

“Raqamlar so‘zlaganda” usuli

Quyidagi raqamlarga sharh yozing.

6-o‘rinda	
9 ta	
80 % ga yaqin	
357,4 ming km^2	

V bosqich. **Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)**

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. **Baholash va uyga vazifa**

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan baholanadi.

25-§. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Buyuk Britaniya hududi, chegaralari, geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi haqida ma’lumotga ega bo‘lish; xo‘jaligi, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalarini o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Buyuk Britaniya hududi, chegaralari, geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi haqida biladi; xo‘jaligi, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalarini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar **IXK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, algebra, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Buyuk Britaniya aholisi joylashuvi va mamlakat xo‘jaligi ixtisoslashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. **Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)**

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. **O‘tilgan mavzuni mustahkamlash**

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

“Kim tezroq?” o‘yini

Germaniya Federativ Respublikasi to‘g‘risida bilgan ma’lumotlaringizni doiralarda aks ettiring.



Masalan:

– siyosiy-hududiy tuzilishi jihatidan federativ davlat;
– 9 ta davlat bilan chegaradosh.
– aholisi soni bo‘yicha Yevropada Rossiya Federatsiyasidan keyin 2-o‘rinda turadi va hokazo.

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Buyuk Britaniyaning geografik o‘rni va chegaralari haqida ma’lumot beriladi, iqtisodiy-geografik o‘rnining ijobiy tomonlari tavsiflanadi;
- mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Buyuk Britaniya aholisi soni va ko‘payishi, etnik va diniy tarkibi, urbanizatsiya darajasi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar “Taqqoslash” va “Suhbat” metodlari orqali bayon etiladi;
- mamlakat iqtisodiy salohiyati, sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari hamda uning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usullarni ham qo‘llash mumkin:

“Diqqatni jamlang!” mashqi

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligiga quyidagi reja asosida ta’rif bering:

- chegaralari va maydoni;

- iqtisodiy-geografik o‘rni xususiyatlari;
- asosiy tabiiy resurslari;
- aholisi va uning tarkibi;
- sanoatining asosiy tarmoqlari;
- qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari;
- jahon iqtisodiyotidagi o‘rni.

“Zehn” mashqi

Quyidagi ma’lumotlar qaysi mamlakatlarga tegishli ekanini xaritadan toping.
Buyuk Britaniyadagi eng baland tog‘ joylashgan.
Buyuk Britaniya poytaxti London shahri joylashgan.
Buyuk Britaniya aholisining 3% i yashaydi.
Angliyaning g‘arbida joylashgan.



V bosqich. **Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)**

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. **Baholash va uyga vazifa**

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan baholanadi.

26-§. Fransiya Respublikasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Fransiya hududi, chegaralari, geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi haqida ma’lumotga ega bo‘lish; xo‘jaligi, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalarini o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Fransiya hududi, chegaralari, geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi haqida biladi; xo‘jaligi, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalarini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar **IXK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, algebra, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Fransiya aholisi joylashuvi va mamlakat xo‘jaligi ixtisoslashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash


O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

“Omad cho‘qqisi” o‘yini

Savollarga to‘g‘ri javob bering va zinalardan yuqoriga ko‘tariling.

Namunaviy savollar:

1. Buyuk Britaniya qirg‘oqlarini qaysi okean va dengizlar yuvib turadi?
2. Buyuk Britaniyaning boshqaruv shakli qanday?
3. Buyuk Britaniya YIM hajmi bo‘yicha Yevropada nechanchi o‘rinda turadi?
4. Buyuk Britaniya sanoatining yetakchi tarmoqlariga nimalar kiradi?
5. Birlashgan Qirollik eng ko‘p sayyohni qabul qiladigan jahonning nechta yetakchi davlatlaridan biri hisoblanadi?



III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Fransiyaning geografik o‘rni va chegaralari haqida ma’lumot beriladi. Bevosita Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatiga ega ekani mamlakat iqtisodiyotida qanday o‘rin tutishi izohlab o‘tiladi;
- mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Fransiya aholisi soni va ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar “Suhbat” metodi orqali bayon etiladi. Bunda aholi tabiiy ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi hamda zichligini aniqlash usullarini eslatib o‘tish maqsadga muvofiq;
- mamlakat iqtisodiy salohiyati, sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari hamda uning xalqaro savdodagi ishtiroki “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi;
- Fransiyada turizmning rivojlanish omillari, uning jahon turizmida tutgan o‘rni “Suhbat” va “Hikoya” metodlari orqali yoritiladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usullarni ham qo‘llash mumkin:

“Geografik domino” o‘yini

Fransiya to‘g‘risidagi quyidagi ma’lumotlarni davom ettiring.


Omad yor bo‘lsin!	**Boshqaruv shakli**		**Eng uzun daryosi**
	Urbanizatsiya darajasi		**Aholisi soni**
	Poytaxti		**Xush kelibsiz!**

To‘g‘ri javoblar

Omad yor bo‘lsin!	**Boshqaruv shakli**	**Prezidentlik respublikasi**	**Eng uzun daryosi**
Luara	**Urbanizatsiya darajasi**	**80% dan ortiq**	**Aholisi soni**
65 mln kishiga yaqin	**Poytaxti**	**Parij**	**Xush kelibsiz!**

“Sirli so‘z va raqamlar” mashqi

Quyidagi so‘z va raqamlarga izoh bering.



V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

27-§. Italiya Respublikasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Italiya hududi, chegaralari, geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi haqida ma’lumotga ega bo‘lish; xo‘jaligi, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalarini o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Italiya hududi, chegaralari, geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi haqida biladi; xo‘jaligi, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalarini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar **IXK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, algebra, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Italiya aholisi joylashuvi va mamlakat xo‘jaligi ixtisoslashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.	

Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

“Blits so‘rov” usuli

Quyidagi savollarga tezkor javob bering.

1. Fransiya nechta davlat bilan chegaradosh?
2. Fransiya Yevropaning qaysi qismida joylashgan?
3. Fransiya janubida qanday iqlim shakllangan?
4. Fransiyada aholining yillik tabiiy ko‘payish sur’ati qancha?
5. Fransiya qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i nima?
6. Marikultura nima?
7. Luvr muzeyi qaysi shaharda joylashgan?
8. Fransiya iqtisodiy salohiyatiga ko‘ra qaysi guruhga mansub?
9. Fransiya hududining qancha qismini tekisliklar egallaydi?
10. Fransiya nechta hududga bo‘linadi?

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Italiyaning geografik o‘rni va chegaralari haqida ma’lumot beriladi. Bevosita Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatiga ega ekani mamlakat iqtisodiyotida qanday o‘rin tutishi izohlab o‘tiladi;
- mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Italiya aholisi soni va ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar “Suhbat” metodi orqali bayon etiladi;
- mamlakat iqtisodiy salohiyati, sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari hamda uning xalqaro savdodagi ishtiroki “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi;
- Italiyada turizmning rivojlanish omillari, uning jahon turizmida tutgan o‘rni “Suhbat” va “Hikoya” metodlari orqali yoritiladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usulni ham qo‘llash mumkin:

“Geografik loto” o‘yini

Bunda “Loto toshlari”ga savollar yoziladi va raqamlab qo‘yiladi. Masalan:

1. Italiyada shahar aholisining ulushi qancha?

2. Italiyaning qaysi hududlari qoloq agrar iqtisodiyoti bilan ajralib turadi?
3. Italiyadagi eng yirik daryoning nomi nima?
4. Italiyada aholining diniy tarkibida kimlar yetakchilik qiladi?
5. Siyosiy-hududiy jihatdan Italiya nechta hududdan iborat?

“Loto doskasi8 kataklariga savollarning javoblari yozib qo‘yiladi. Masalan: 70% dan ortiq, janubiy hududlari, Po, katoliklar, 20 ta va boshqalar. Boshqaruvchi xaltachadan raqam yozilgan “Loto toshi”ni olib undagi savolni o‘qiydi. O‘quvchilar “Loto doskasi”dan to‘g‘ri javobni topib, uning ustini raqamlangan qog‘ozcha bilan yopib qo‘yadi. “Loto doskasi”ni birinchi va to‘g‘ri to‘ldirgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan baholanadi.

28-§. Rossiya Federatsiyasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Rossiyaning hududi, chegaralari, geografik o‘rnining o‘ziga xos jihatlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish; tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi hamda uning tarkibini o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Rossiyaning hududi, chegaralari, geografik o‘rnining o‘ziga xos jihatlarini tavsiflay oladi; tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi hamda uning tarkibini izohlaydi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar	10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Rossiya aholisi joylashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

“Zukkolar” mashqi

Quyidagi ma’lumotlardan qaysilari Italiya Respublikasiga tegishli ekanini toping.

a) Hududining katta qismini Apennin yarimoroli egallaydi.
b) Eng uzun daryosi – Luara.
d) Xorijiy migrantlar soni bo‘yicha Yevropada 1-o‘rinda turadi.
e) harakatdagi bir nechta vulqonlari bor.
f) Yiliga o‘rta hisobda 50 mln xorijiy sayyoh tashrif buyuradi.
g) Janubiy Osiyo, Afrika, Karib dengizidagi orollardan ko‘chib kelganlar ko‘p.
h) Yog‘ingarchilik ko‘proq qish oylariga to‘g‘ri keladi.
i) Dengiz sayozliklarida marikultura rivojlangan.
j) Qishloq xo‘jaligining tayanch tarmoqlari sut – go‘sht qoramolchiligi va cho‘chqachilik.
k) Milliy iqtisodiyotining eng daromadli tarmoqlaridan biri xalqaro turizm.

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Rossiyaning geografik o‘rni va chegaralari haqida ma’lumot beriladi, iqtisodiy-geografik o‘rnining ijobiy tomonlari tavsiflanadi;
- mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Rossiya aholisi soni va ko‘payishi, etnik va diniy tarkibi, urbanizatsiya darajasi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar “Taqqoslash” va “Suhbat” metodlari orqali izohlanadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usullarni ham qo‘llash mumkin:

“Juftini top” o‘yini

Mos juftliklarni toping va izohlang.

Kaliningrad	buddizm
Qora dengiz bo‘yi	neft va gaz
tuvaliklar	agroiqlimiy resurslar
G‘arbiy Sibir	eksklav
70 % dan ortiq	subtropik

"Raqamlardagi sir" mashqi

“Rossiya Federatsiyasi” mavzusi bo‘yicha matnda tushirib qoldirilgan so‘z va raqamlarni jadvalga yozing.

Sharqiy Yevropa va **(1)** Osiyoda joylashgan. **(2)** va AQSH bilan chegarasi faqat suv orqali o‘tadi. G‘arbdan sharqqa salkam **(3)** masofaga cho‘zilgan. Asosiy tabiat zonalari – **(4)**, tundra, aralash va keng bargli o‘rmonlar, dasht va o‘rmon-dasht. Aholisi soni bo‘yicha jahonda **(5)** turadi. Hozirgi vaqtda jami 15 ta **(6)** shahar mavjud. **(7)** o‘lkalarida o‘nlab kam sonli elatlar ham mavjud. Eng ko‘p sonli din **(8)** hisoblanadi. Tatarlar, boshqirdlar, **(9)** dagi ko‘plab xalqlar islom diniga mansub. Aholi zichligining

o‘rtacha ko‘rsatkichi **(10)** kishi.

1.	Shimoliy	**6.**	
2.		**7.**	
3.		**8.**	
4.		**9.**	
5.		**10.**	

V bosqich. **Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)**

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. **Baholash va uyga vazifa**

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan baholanadi va uyga vazifa beriladi.

29-§. Rossiya Federatsiyasi xo‘jaligi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Rossiya Federatsiyasi xo‘jaligi, sanoati, qishloq xo‘jaligi va transportining asosiy tarmoqlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish; tashqi iqtisodiy aloqalari va iqtisodiy rayonlarini o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Rossiya Federatsiyasi sanoati va qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni anglab yetadi; mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi rolini izohlay oladi; Rossiyaning yirik iqtisodiy zonalari rivojlanish xususiyatlarini tahlil qila oladi.
ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati	10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Informatika va axborot texnologiyalari, algebra, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Rossiya xo‘jaligi ixtisoslashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. **Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)**

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. **O‘tilgan mavzuni mustahkamlash**

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

“Ha yoki yo‘q” usuli

Rossiya Federatsiyasi mavzusiga doir quyidagi ma’lumotlarni tasdiqlang.

Ma’lumotlar	Ha	Yo‘q
Eng uzun chegara chiziqlari Qozog‘iston, Mongoliya va Xitoy bilan o‘tgan.		
Konstitutsiyasiga binoan, 55 ta turli maqomdagi hududlar federatsiyasi hisoblanadi.		
Asosan mo‘tadil, subarktika va arktika iqlim mintaqalarida joylashgan.		
Aholining tabiiy ko‘payishi manfiy bo‘lib, yillik hisobda –0,2% ga teng.		
Ruslardan tashqari tatarlar, ukrainlar, boshqirdlar, chuvashlar, chechenlar va armanlarning soni 5 mln kishidan oshadi.		
Rossiya, ayniqsa, uning Yevropadagi qismi suv va gidroenergetika resurslariga juda boy.		
Hududi shimoldan janubga tomon 10000 km dan ortiq masofaga cho‘zilgan.		
Rossiya o‘rmon va yer resurslari bilan eng yaxshi ta’minlangan davlatlardan biri.		
Chegaradosh davlatlar soni bo‘yicha Rossiya jahon mamlakatlari ichida 3-o‘rinda turadi.		
Aholisining 81% i ruslarga to‘g‘ri keladi.		

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- Rossiyaning YIM hajmi bo‘yicha jahondagi o‘rni “Savol-javob” metodidan foydalanib tavsiflanadi;
- mamlakat sanoatining rivojlanish omillari va mazkur sohaning turli tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga ko‘ra jahondagi o‘rni “Taqqoslash” metodi yordamida bayon etiladi;
- Rossiya qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari, mazkur soha bo‘yicha dunyodagi mavqeyi “Savol-javob” va “Hikoya” metodlari asosida yoritiladi;
- mamlakat iqtisodiy rayonlari dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari orqali tahlil qilinadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usulni ham qo‘llash mumkin:

Xotira mashqi

Rossiya iqtisodiyotining turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha jahon miqyosida nechanchi o‘rinlarda turishini topib, bo‘sh kataklarni to‘ldiring.

Mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarishda	Alyuminiy va nikel eksporti bo‘yicha	Neft zaxiralari bo‘yicha	Oltin qazish bo‘yicha
...-o‘rinda	...-o‘rinda	...-o‘rinda	...-o‘rinda
Temir yo‘llar uzunligi bo‘yicha	Po‘lat eksporti bo‘yicha	Tabiiy gaz zaxiralari bo‘yicha	YIM hajmi bo‘yicha
...-o‘rinda	...-o‘rinda	...-o‘rinda	...-o‘rinda

V bosqich. **Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)**

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. **Baholash va uyga vazifa**

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

30-§. Umumlashtiruvchi dars

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
“Yevropa mamlakatlari” bobida o‘tilgan mavzularning tayanch mazmuniga doir topshiriqlarni bajarishni o‘rganish; amaliy ko‘nikmalar va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, daftar	O‘quvchilar Yevropa davlatlarining iqtisodiy-geografik o‘rni va tabiiy sharoitini baholay oladi; qit’a davlatlari xo‘jaligining rivojlanish xususiyatlari va unga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qila oladi.
ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati	10.1.8.1. Jahon xo‘jaligi tarmoqlar va hududiy tarkibini, uning o‘zgaruvchanligini tushunadi; 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi; 10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari.	
Ehtimoliy muammo	O‘quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida vaqtdan unumli foydalanish bo‘yicha qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.	
Tavsiya	Guruhlarda ishlashni samarali tashkil etish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligi va guruh a’zolari o‘rtasida ishni taqsimlash bo‘yicha o‘quvchilarga kerakli tushuntirishlar berish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. **Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)**


Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. **O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.**

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

“Klaster” metodi

Rossiyaning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni izohlang.



“Matnni to‘ldiring” mashqi

Tushirib qoldirilgan so‘z va raqamlarni qo‘yib, matnni tiklang.

Rossiya iqtisodiyoti ... xarakterga ega. ... va ... eksporti Rossiyaning davlat byudjeti uchun eng yirik daromad manbaidir. Mamlakat yoqilg‘i sanoatining eng yirik hududi ... hisoblanadi. ... sanoati Rossiyada ko‘p tarmoqli tarkib va keng geografiyasi bilan ajralib turadi. Mamlakatning eng katta avtomobil zavodi – ... shahridagi ... korxonasidir. Dehqonchilikning eng muhim tarmog‘i ... hisoblanadi. Baliq ovlash, asosan, ..., ..., ..., ..., ... va ... dengizlarida rivojlangan. Yuk aylanmasida eng katta ulush ... va ... transportlariga to‘g‘ri keladi. Jahondagi eng uzun temiryo‘l Moskvani ... bilan bog‘laydigan ... magistrali hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasi rasman ... ta iqtisodiy hududlarga bo‘linadi.

III bosqich. Amaliy topshiriqlarni bajarish.

Topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi. Bunda har qaysi guruhda iqtidorli o‘quvchilar va boshqa o‘quvchilarning teng taqsimlanishiga ahamiyat beriladi. O‘qituvchi har bir guruhda topshiriqlarning qanday bajarilishini kuzatib, zarur vaqtlarda o‘quvchilarga tegishli ko‘rsatmalar beradi. Topshiriq bajarib bo‘lingach, uni tekshirib, o‘quvchilarga harakati va erishgan natijasiga muvofiq turli rangdagi rag‘bat kartochkalarini berib borish tavsiya etiladi.

Darslikda berilgan tegishli topshiriqlarning javoblari:

1-topshiriq

Yevropa davlatlari iqtisodiy-geografik o‘rnining qulayligi qit’aning ko‘plab davlatlari bevosita Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatiga ega ekani hamda ular yaqinidan xalqaro dengiz yo‘llari o‘tganligi bilan belgilanadi. Iliq va nam iqlim, transport sharoiti murakkab bo‘lgan baland tog‘ tizmalarining kamligi, suv va o‘rmon resurslarining yetarliligi, qit’aning aksariyat mamlakatlarida dengiz portlarini qurish uchun qulay qirg‘oqbo‘yi hududlarining ko‘pligi kabi omillar hisobiga Yevropa davlatlari tabiiy sharoitini qulay deb baholash mumkin.

Qit’a davlatlarining aksariyati iqtisodiy rivojlangan davlatlar guruhiga mansub ekani eng avvalo Yevropa iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan yuqori darajada rivojlangan integratsion jarayonlar bilan bog‘liq. Bunda ayniqsa yagona savdo-bojxona makoniga ega bo‘lgan jahondagi eng yirik integratsion uyushma hisoblangan Yevropa Ittifoqining o‘rni juda yuqori. Bundan tashqari, Yevropaning sanoat inqilobi vatani ekani hamda XVII asrdan XIX asr boshlarigacha jahon iqtisodiyotida yagona markaz bo‘lgani kabi omillar ham muhim rol o‘ynagan.

2-topshiriq

Yevropaning “Katta yettilik”ka kiruvchi davlatlari sanoatining yetakchi tarmoqlarini solishtirganda ushbu mamlakatlarning barchasida birinchi navbatda mashinasozlik va kimyo sanoati kabi ilg‘or tarmoqlar ustunlik qilishini ko‘rish mumkin. Ushbu mamlakatlar xalqaro mehnat taqsimotida zamonaviy texnologiyalar asosida yuqori sifatli sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan alohida ajralib turadi.

3-topshiriq

1. Ha; 2. Ha; 3. Yo‘q; 4. Ha; 5. Ha; 6. Yo‘q; 7. Yo‘q; 8. Yo‘q; 9. Yo‘q; 10. Yo‘q.

4-topshiriq

a) Germaniya; b) Italiya; d) Fransiya; e) Buyuk Britaniya; f) Rossiya; g) Germaniya.

5-topshiriq

A) Italiya; B) Buyuk Britaniya; D) Rossiya; E) Germaniya; F) Fransiya.

IV bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Amaliy va mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida o‘quvchilar bilan qisqacha suhbatlashiladi.

V bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda dars jarayonidagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.



6-BOB. OSIYO MAMLAKATLARI

31-§. Osiyo qit’asining geografik o‘rni, chegaralari va siyosiy xaritasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Osiyo hududi, chegaralari, geografik o‘rnini o‘rganish; qit’a siyosiy xaritasi va undagi so‘nggi o‘zgarishlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish; Osiyoning subregionlarga bo‘linishini o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Osiyo hududi, chegaralari, geografik o‘rnini tavsiflaydi; qit’a siyosiy xaritasi va undagi so‘nggi o‘zgarishlarni tahlil qila oladi; Osiyoning subregionlarga bo‘linishini biladi.
ISK9. Geosiyosiy tizim va jarayonlar	10.1.9.1. Dunyoning siyosiy xaritasi, uning tuzilishini hamda o‘zgarib borish xususiyatini tushunadi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilganda o‘quvchilar Osiyo mamlakatlari tabiiy sharoitini, xususan, relyef tuzilishini yaxshi tasavvur eta olmasliklari mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan birga tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy harakatlar va o'quv faoliyatiga yo'naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o'quvchilarni dars mashg'ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg'ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. Bilimlarni faollashtirish

Bilimlarni faollashtirish uchun "Savol-javob" metodidan foydalanish mumkin:

1. Osiyo qit'asi Yevrosiyo materigining qaysi qismida joylashgan?
2. "Osiyo" so'zining ma'nosi nima?
3. Osiyo qit'asini qaysi okean suvlari yuvib turadi?
4. Osiyo qit'asi Afrika qit'asidan qaysi dengizlar orqali ajralib turadi?
5. Osiyo qit'asi qanday foydali qazilmalarga boy?
6. Osiyo hududi qaysi iqlim mintaqalarida joylashgan?
7. Osiyoda joylashgan rivojlangan davlatlardan qaysilarini bilasiz?
8. Osiyoda joylashgan aholisi eng ko'p davlatlardan qaysilarini bilasiz?
9. Osiyo qit'asi qaysi subregionlarga bo'linadi?
10. O'zbekiston qaysi subregionda joylashgan?

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o'quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Osiyoning geografik o'rni, chegaralari izohlanadi;
- qit'a siyosiy xaritasining shakllanishi va undagi so'nggi o'zgarishlar "Savol-javob" va "Suhbat" metodlari orqali tushuntiriladi;
- Osiyo davlatlarining geografik o'rniga ko'ra tasniflanishi "Tushuntirish" va "Taqqoslash" metodlari orqali bayon etiladi;
- qit'a davlatlarining boshqaruv shakli va davlat tuzilishi bo'yicha tasniflanishi "Savol-javob" va "Hikoya" metodlari orqali tavsiflanadi;
- Osiyo davlatlarining subregionlarga bo'linishi "Suhbat" metodi orqali yoritiladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so'ng vaqt yetarli bo'lsa, quyidagi usulni ham qo'llash mumkin:

"Uchinchisi ortiqcha" o'yini

Bunda o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadi va har qaysi guruhga uchtadan davlat nomi yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Guruh a'zolari o'zlariga berilgan variantdagi davlatlar orasida qaysi davlat nomi ortiqcha ekanini topishi hamda sababini izohlashi kerak bo'ladi. Masalan: Qirg'iziston, Qozog'iston, Eron. Bu yerda Eron ortiqcha. Chunki Qirg'iziston va Qozog'iston Markaziy Osiyo subregionida joylashgan, Eron esa Janubi-G'arbiy Osiyoda.

a) Singapur, Bahrayn, Bruney;
b) Filippin, Iroq, Nepal;
d) Qozog'iston, Hindiston, Indoneziya;
e) Ummon, Qatar, Kuvayt;
f) Qozog'iston, Afg'oniston, Mongoliya.

"Toifalash" usuli

Quyidagi davlatlarni geografik o'rniga ko'ra guruhlang.

Armaniston, Filippin, Ummon, Singapur, Pokiston, Qozog‘iston, Maldiv Respublikasi, Xitoy, Livan, Gruziya, Bangladesh, Mongoliya, Saudiya Arabistoni, Butan, Bruney, Iordaniya, O‘zbekiston, Malayziya, Laos, Eron, Koreya Respublikasi.

Orol davlatlar	Yarimorol davlatlar	Dengizbo‘yi kontinental davlatlar	Ichki kontinental davlatlar

V bosqich. **Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)**

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. **Baholash va uyga vazifa**

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

32-§. Amaliy mashg‘ulot

Osiyo siyosiy xaritasini o‘rganish

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Osiyo siyosiy xaritasi bilan ishlashga doir jadval, xarita va grafikli topshiriqlarni bajarishni o‘rganish; amaliy ko‘nikmalar va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, daftar.	O‘quvchilar Osiyo siyosiy xaritasidan mustaqil foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi; qit’a davlatlarining o‘ziga xos geografik xususiyatlarini tahlil qila oladi.
ISK9. Geosiyosiy tizim va jarayonlar	10.1.9.1. Dunyoning siyosiy xaritasi, uning tuzilishini hamda o‘zgarib borish xususiyatini tushunadi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	O‘quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida xaritadan ayrim davlatlar nomini aniqlashda vaqtdan unumli foydalanish bo‘yicha muammolarga duch kelishi mumkin.	
Tavsiya	Guruhlarda ishlashni samarali tashkil etish maqsadida bajariladigan ishlar ketma-ketligi va guruh a’zolari o‘rtasida ishni taqsimlash bo‘yicha o‘quvchilarga kerakli tushuntirishlarni berib borish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. **Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)**

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. **O‘tilgan mavzuni mustahkamlash**

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi o‘yindan foydalanish mumkin:


“Adashtirdim, toping-chi?” o‘yini

Jadvalda berilgan ma’lumotlardagi xatoliklarni toping va ularni to‘g‘rilang.

Ma’lumotlar	Noto‘g‘ri	To‘g‘ri
“Osiyo” so‘zi “g‘arb” ma’nosini anglatadi.	g‘arb	sharq
Osiyoda insoniyatning deyarli 80 % i yashaydi.		
Osiyoning siyosiy xaritasida Rossiyani hisobga olmaganda 44 ta mustaqil davlat mavjud.		
Osiyodagi 15 ta davlat quruqlik ichkarisida joylashgan.		
Osiyoning eng yosh davlati 2012-yilda mustaqil davlatga aylangan Sharqiy Timor.		
Osiyo 4 ta subregionga bo‘linadi.		
Osiyo davlatlarining 30 tasi respublika boshqaruv shakliga ega.		

“Idrok” mashqi

Quyidagi Osiyo davlatlarining umumiy jihatini toping.



III bosqich. Amaliy topshiriqlarni bajarish

Topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi. Bunda har qaysi guruhda iqtidorli o‘quvchilar va boshqa o‘quvchilarning teng taqsimlanishiga ahamiyat beriladi. O‘qituvchi har bir guruhda topshiriqlarning qanday bajarilishini kuzatib, zarur vaqtlarda o‘quvchilarga tegishli ko‘rsatmalar beradi. Topshiriq bajarib bo‘lingach, uni tekshirib, o‘quvchilarga harakati va erishgan natijasiga muvofiq turli rangdagi rag‘bat kartochkalarini berib borish tavsiya etiladi.

Darslikda berilgan tegishli topshiriqlarning javoblari:

1-topshiriq

Afg‘oniston, Butan, Mongoliya, Laos, Nepal, Armaniston, Qozog‘iston.

2-topshiriq

Osiyo qirg‘oqlarini yuvib turuvchi okeanlar, yirik dengiz, qo‘ltiq va bo‘g‘izlar nomlari:

Okeanlar	Shimoliy Muz okeani, Tinch okean, Hind okeani, Atlantika okeani.
Dengizlar	Kara dengizi, Laptevlar dengizi, Sharqiy Sibir dengizi, Chukotka dengizi, Bering dengizi, Oxota dengizi, Yapon dengizi, Sariq dengiz, Sharqiy Xitoy dengizi, Janubiy Xitoy dengizi, Arabiston dengizi, Qizil dengiz, O‘rta dengiz, Egey dengizi, Marmar dengizi, Qora dengiz, Azov dengizi.
Qo‘ltiqlar	Ob qo‘ltig‘i, Anadir qo‘ltig‘i, Shelexov qo‘ltig‘i, Bakbo qo‘ltig‘i, Siam qo‘ltig‘i, Bengaliya qo‘ltig‘i, Ummon qo‘ltig‘i, Fors qo‘ltig‘i, Adan qo‘ltig‘i.

Bo‘g‘izlar	Bering bo‘g‘izi, Koreya bo‘g‘izi, Tayvan bo‘g‘izi, Malakka bo‘g‘izi, Polk bo‘g‘izi, Dardanell bo‘g‘izi, Bosfor bo‘g‘izi.

3-topshiriq

Tailand – Bangkok	Gruziya – Tbilisi	Yaman – Sana
Yaponiya – Tokio	Eron – Tehron	Qirg‘iziston – Bishkek
Turkiya – Anqara	Vetnam – Xanoy	Qatar – Doha
Sharqiy Timor – Dili	Tojikiston – Dushanbe	Shri Lanka – Kolombo
Filippin – Manila	Bahrayn – Manama	Indoneziya – Jakarta

4-topshiriq

I. Birlashgan Arab Amirliklari;	III. Malayziya;	V. Iroq;
II. Nepal;	IV. Pokiston;	VI. Hindiston.

Ushbu davlatlar ma’muriy-hududiy jihatdan federativ tuzilishga ega.

5-topshiriq

Gruziya – e;	Pokiston – a;	Xitoy – d;
Saudiya Arabistoni – f;	Mongoliya – b;	Butan – g.

IV bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Amaliy topshiriqlar bajarib bo‘lingach, o‘quvchilar bilan mashg‘ulot jarayonida erishilgan natijalar, darsda qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

V bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalari hamda dars jarayonidagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

33-§. Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganligi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va jahon iqtisodiyotidagi o‘rni haqida ma’lumotga ega bo‘lish; qit’a mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganligi va xo‘jaligining ixtisoslashuviga ko‘ra guruhlanishini o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini anglaydi; qit’a mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganligi va xo‘jaligining ixtisoslashuviga ko‘ra guruhlanishini tahlil qila oladi.
ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati	10.1.8.2. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi jihatidan tasniflanishini tushunadi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, algebra, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida muayyan vaqtdan so‘ng o‘quvchilarning diqqatini jamlashda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.	

Tavsiya	O‘quvchilar diqqatini jamlash hamda ularning qanday o‘zlashtirayotganini nazorat qilish maqsadida mavzuning ma’lum bir qismi tushuntirilgach, qisqa savol-javoblar o‘tkazib olish maqsadga muvofiq.

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. Bilimlarni faollashtirish

Bilimlarni faollashtirish uchun savol-javob usulidan foydalanish mumkin:

1. Osiyodagi qaysi davlat deyarli barcha turdagi tovarlarni ishlab chiqarish va eksport qilish hajmi bo‘yicha jahon miqyosida ajralib turadi?
2. Tabiiy resurslar, xususan, foydali qazilmalar miqdori ancha cheklangan bo‘lishiga qaramay, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi yuqori darajada rivojlangan Osiyo davlatlaridan qaysilarini bilasiz?
3. “Katta yettilik” guruhiga qaysi davlatlar kiradi?
4. Qaysi hududlar jahondagi neft zaxiralariga eng boy mintaqalar hisoblanadi?
5. O‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar deganda nimani tushunasiz?
6. Turizm va xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan davlatlardan qaysilarini bilasiz?
7. Jahondagi iqtisodiyoti eng qoloq davlatlarga misollar keltiring.

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- Osiyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, dunyo iqtisodiyotida tutgan o‘rni, xalqaro ixtisoslashuvi qisqa “Savol-javob” va “Hikoya” metodlari yordamida tavsiflanadi;
- qit’a mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganligi va xo‘jaligining ixtisoslashuviga ko‘ra guruhlarga bo‘linishi hamda ushbu guruhlarga kiruvchi davlatlar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, unga ta’sir etuvchi omillar va turli guruhga mansub davlatlar o‘rtasidagi tafovutlar “Guruhlash”, “Geografik taqqoslash”, “Suhbat” metodlari orqali bayon etiladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usulni ham qo‘llash mumkin:

“Toifalash” usuli

Quyidagi davlatlar iqtisodiy rivojlanganligi va xo‘jaligining ixtisoslashuviga ko‘ra qaysi guruhga mansubligini topib, tegishli javoblarni belgilang.

a) Tojikiston; b) Filippin; d) Yaponiya; e) Iroq; f) Kambodja; g) Ozarbayjon; h) Hindiston; i) Isroil; j) Myanma; k) Saudiya Arabistoni; l) Xitoy; m) Kipr; n) Tailand; o) Koreya Respublikasi; p) O‘zbekiston; q) Bruney; r) Maldiv Respublikasi; s) Mongoliya; t) Gruziya; u) Nepal; v) Singapur; x) Sharqiy Timor.

1. “Katta yettilik” davlati. 2. “Ko‘chirilgan kapitalizm” tipidagi rivojlangan davlat. 3. Tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar. 4. Osiyoning yangi industrial davlatlari. 5. Yirik industrial-agrar davlatlar. 6. Neft eksport qiluvchi davlatlar. 7. O‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar. 8. Turizm va xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan davlatlar. 9. Sust rivojlangan agrar-industrial davlatlar. 10. Iqtisodiyoti eng qoloq agrar davlatlar.

1.	d	6.	
2.		7.	
3.		8.	
4.		9.	
5.		10.	

V bosqich. **Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)**

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim,malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

34-§. Qozog‘iston Respublikasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Qozog‘istonning geografik o‘rni, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslarini o‘rganish; mamlakat aholisi va uning tarkibi haqida ma’lumotga ega bo‘lish; Qozog‘iston xo‘jaligining umumiy tavsifini, sanoatini, qishloq xo‘jaligini, transportini, O‘zbekiston bilan hamkorlik aloqalarini o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Qozog‘istonning geografik o‘rni, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslarini tavsiflay oladi; mamlakat aholisi va uning tarkibi haqida tushuncha hosil qiladi; Qozog‘iston xo‘jaligining umumiy tavsifini, sanoatini, qishloq xo‘jaligini, transportini, O‘zbekiston bilan hamkorlik aloqalarini tahlil qila oladi.
ISK2. Tabiiy resurslar va geologik savodxonlik **ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.2.2. Ko‘mir, neft, tabiiy gaz, temir, oltin singari foydali qazilmalarning zaxiralari va hududiy tarqalishiga oid ma’lumotlarni tushunadi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, algebra, kimyo, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Qozog‘iston aholisi joylashuvi va mamlakat xo‘jaligi ixtisoslashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)


Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

“Toifalash” usuli

Quyidagi davlatlar nomini aniqlang va iqtisodiy rivojlanganligi va xo‘jaligining ixtisoslashuviga ko‘ra qaysi guruhga mansubligini toping.



III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Qozog‘iston Respublikasining geografik o‘rni, chegaralari, maydoni, boshqaruv shakli va davlat tuzilishi haqida ma’lumot beriladi, iqtisodiy-geografik o‘rnining asosiy jihatlari tavsiflanadi;
- mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Qozog‘iston aholisi soni, aholining tabiiy ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, aholi zichligi va milliy tarkibi “Taqqoslash” va “Suhbat” metodlari orqali bayon etiladi;
- mamlakat iqtisodiy salohiyati, sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari, O‘zbekiston bilan hamkorlik aloqalari “Savol-javob” va “Hikoya” metodlari asosida tahlil qilinadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi metodni ham qo‘llash mumkin:

“Assisment” metodi

Test Quyidagilar orasidan Qozog‘iston bilan chegaradosh davlatlarni toping. 1) Turkmaniston; 2) Tojikiston; 3) Eron; 4)Xitoy; 5) O‘zbekiston; 6) Ozarbayjon; 7) Rossiya; 8) Qirg‘iziston. a) 1, 2, 5, 7, 8 b) 2, 3, 5, 6, 7 d) 1, 4, 5, 7, 8 e) 2, 4, 5, 6, 7	*Muammoli vaziyat* Qozog‘istonda aholi zichligining juda past ekani qanday omillar bilan bog‘liq deb o‘ylaysiz?
Simptom Prezidentlik respublikasi – ...	*Amaliy ko‘nikma* 2020-yil holatiga ko‘ra, Qozog‘istondagi shahar aholisi va qishloq aholisi sonini hisoblang.

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

35-§. Qirg‘iz Respublikasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Qirg‘izistonning geografik o‘rni, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslarini o‘rganish; mamlakat aholisi va uning tarkibi haqida ma’lumotga ega bo‘lish; Qirg‘iziston xo‘jaligining umumiy tavsifi, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, turizmi, O‘zbekiston bilan hamkorlik aloqalarini o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Qirg‘izistonning geografik o‘rni, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslarini tavsiflay oladi; mamlakat aholisi va uning tarkibi haqida tushuncha hosil qiladi; Qirg‘iziston xo‘jaligining umumiy tavsifini, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, turizmi, O‘zbekiston bilan hamkorlik aloqalarini tahlil qila oladi.
ISK2. Tabiiy resurslar va geologik savodxonlik **ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.2.2. Ko‘mir, neft, tabiiy gaz, temir, oltin singari foydali qazilmalarning zaxiralari va hududiy tarqalishiga oid ma’lumotlarni tushunadi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	

AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, algebra, kimyo, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Qirg‘iziston aholisi joylashuvi va mamlakat xo‘jaligi ixtisoslashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

“Matnni to'ldiring” usuli

Tu*shirib qoldirilgan so‘z va raqamlarni o‘rniga qo‘yib, matnni tiklang.*

Qozog‘iston Respublikasi ... da hududiy jihatdan eng yirik davlat bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha jahon mamlakatlari ichida ...-o‘rinni egallaydi. Qozog‘iston ...ta davlat – ..., ..., ..., ... va ... bilan chegaradosh. Qozog‘iston relyefida ... hukmronlik qiladi. Qozog‘iston ...ga dunyodagi eng boy davlatlardan biri hisoblanadi. Iqlimi ....keskin kontinental va ..... Qurg‘oqchil iqlim tufayli Qozog‘istonning bepoyon tekisliklarida ..., ... va ... tabiat zonalari shakllangan. Eng katta ko‘llari: ...., ..., ..., ..., ... Urbanizatsiya darajasi ... Aholi zichligining o‘rtacha ko‘rsatkichi 1 km^2 ga .....ga teng. Sanoatining asosiy tarmoqlari qatoriga ..., ..., ..., ... va ... kiradi. Dehqonchilikning yetakchi tarmog‘i ... Chorvachilikning yetakchi tarmoqlari: ..., ..., ..., ...

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning siyosiy xaritasi yordamida Qirg‘iz Respublikasining geografik o‘rni va chegaralari haqida ma’lumot beriladi, iqtisodiy-geografik o‘rnining asosiy xususiyatlari tavsiflanadi;
- mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Qirg‘iz Respublikasi aholisi soni va tabiiy ko‘payishining o‘ziga xos jihatlari, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar “Taqqoslash” va “Suhbat” metodlari orqali bayon etiladi;
- mamlakat iqtisodiy salohiyati, sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari hamda uning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi;
- Qirg‘iziston Respublikasi va mamlakatimiz o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik aloqalari va ularning rivojlanishi “Savol-javob” metodi orqali tushuntiriladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usulni ham qo‘llash mumkin:

“Sirli so‘z va raqamlar” mashqi

Quyidagi so‘z va raqamlarga izoh bering.

Qumtor	
15% ga yaqin	
O‘sh	
7 ta	
Farg‘ona	
2/3 qismi	
Issiqko‘l	
3-o‘rinda	
G‘alaba	
3 mln dan ortiq	

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

36-§. Turkmaniston Respublikasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Turkmanistonning geografik o‘rni, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslarini o‘rganish; mamlakat aholisi va uning tarkibi haqida ma’lumotga ega bo‘lish; Turkmaniston xo‘jaligining umumiy tavsifini, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, turizmi, O‘zbekiston bilan hamkorlik aloqalarini o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Turkmanistonning geografik o‘rni, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslarini tavsiflay oladi; mamlakat aholisi va uning tarkibi haqida tushuncha hosil qiladi; Turkmaniston xo‘jaligining umumiy tavsifini, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, turizmi, O‘zbekiston bilan hamkorlik aloqalarini tahlil qila oladi.
ISK2. Tabiiy resurslar va geologik savodxonlik **ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.2.2. Ko‘mir, neft, tabiiy gaz, temir, oltin singari foydali qazilmalarning zaxiralari va hududiy tarqalishiga oid ma’lumotlarni tushunadi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, algebra, kimyo, chet tili.	

Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Turkmaniston aholisi joylashuvi va mamlakat xo‘jaligi ixtisoslashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy harakatlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalari, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

“Adashtirdim, toping-chi?” o‘yini

Qirg‘iziston haqidagi xato *ma’lumotlarni toping va ularni to‘g‘rilab, jadvalni to‘ldiring.*

Ma’lumotlar	Noto‘g‘ri	To‘g‘ri
5 ta davlat bilan chegaradosh.	5 ta	4 ta
2021-yil parlamentar respublika boshqaruv shakliga o‘tdi.		
Tojikiston bilan chegarasida Tyanshanning eng baland nuqtasi – G‘alaba cho‘qqisi joylashgan.		
Markaziy Osiyoda aholi tabiiy ko‘payishining nisbatan past darajasi bilan ajralib turadi.		
Aholisining 43% i shaharlarda istiqomat qiladi.		
Aholisining milliy tarkibida qirg‘izlarning ulushi 70% ni tashkil etadi.		
Eng muhim sanoat mahsuloti simob hisoblanadi.		
Sanoati hozirgi vaqtda asosan yoqilg‘i-energetika tarmog‘iga ixtisoslashgan.		
Yoqilg‘i zaxiralari bilan yuqori darajada ta’minlangan.		

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Turkmaniston Respublikasining geografik o‘rni, chegaralari, maydoni, boshqaruv shakli va davlat tuzilishi haqida ma’lumot beriladi, iqtisodiy-geografik o‘rnining asosiy jihatlari tavsiflanadi;
- mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Turkmaniston aholisi soni, aholining tabiiy ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, aholi zichligi va milliy tarkibi “Taqqoslash” va “Suhbat” metodlari orqali bayon etiladi;
- mamlakat iqtisodiy salohiyati, sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari, turizmi, O‘zbekiston bilan hamkorlik aloqalari “Savol-javob” va “Hikoya” metodlari asosida tahlil qilinadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usulni ham qo‘llash mumkin:

“Blits so‘rov” usuli

Quyidagi savollarga tezkor javob bering.

1. Turkmaniston janubi-sharqda qaysi davlat bilan chegaradosh?
2. Turkmaniston poytaxti qaysi tog‘ tizmasi etagida joylashgan?
3. Turkmaniston hududining 80% idan ortig‘i qaysi cho‘lga to‘g‘ri keladi?
4. Dunyodagi eng uzun sug‘orish kanalining nomi nima?
5. Turkmaniston aholi soni bo‘yicha Markaziy Osiyoda nechanchi o‘rinni egallaydi?
6. Turkmanistonda migratsiya balansi qancha?
7. Turkmaniston tabiiy gazni qazish va eksport qilish bo‘yicha jahonning nechta yetakchi mamlakati qatoriga kiradi?
8. Turkmanistonda Kaspiy dengizi sohilida barpo etilgan yirik turistik zona nima deb ataladi?

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

37-§. Tojikiston Respublikasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Tojikistonning geografik o‘rni, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslarini o‘rganish; mamlakat aholisi va uning tarkibi haqida ma’lumotga ega bo‘lish; Tojikiston xo‘jaligining umumiy tavsifini, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, turizmi, O‘zbekiston bilan hamkorlik aloqalarini o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Tojikistonning geografik o‘rni, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslarini tavsiflay oladi; mamlakat aholisi va uning tarkibi haqidagi tushunchalarini boyitadi; Tojikiston xo‘jaligining umumiy tavsifini, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti, turizmi, O‘zbekiston bilan hamkorlik aloqalarini tahlil qila oladi.
ISK2. Tabiiy resurslar va geologik savodxonlik **ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.2.2. Ko‘mir, neft, tabiiy gaz, temir, oltin singari foydali qazilmalarning zaxiralari va hududiy tarqalishiga oid ma’lumotlarni tushunadi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	

Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, algebra, kimyo, chet tili.
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Tojikiston aholisi joylashuvi va mamlakat xo‘jaligi ixtisoslashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

“Farqini top” o‘yini

Quyidagi ma’lumotlar orasidan Turkmaniston Respublikasiga tegishli bo‘lmaganlarini toping.

Markaziy Osiyoning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan. Ma’muriy-hududiy tuzilishi 7 ta viloyat va 2 ta respublika ahamiyatidagi shahardan iborat. Hududining asosiy qismini baland tog‘lar egallagan. Eng muhim mineral boyliklari tabiiy gaz, neft va turli kimyoviy tuzlardan iborat. Eng yirik suv manbai Amudaryo hisoblanadi. Markaziy Osiyodagi 5 ta davlat ichida iqtisodiy salohiyati jihatidan yetakchi hisoblanadi. Tabiiy gazni qazish va eksport qilish bo‘yicha jahonning yetakchi 10 ta mamlakati qatoriga kiradi. Axalteki zotli otlari butun dunyoga mashhur. Kaspiy dengizi sohilida “Avaza” yirik turistik zonasi barpo etildi. Respublikaga yiliga 3 mln dan ortiq xorijiy sayyohlar tashrif buyuradi.

Test

1. Turkmaniston qaysi tomonda Kaspiy dengiziga tutash?
   a) shimoli-g‘arbda b) janubi-g‘arbda
   d) g‘arbda d) shimolda
2. Turkmaniston qaysi foydali qazilma zaxiralari bo‘yicha jahonda 4-o‘rinda turadi?
   a) neft b) tabiiy gaz
   d) oltingugurt e) fosforit
3. Turkmaniston aholisining qancha qismini o‘zbeklar tashkil qiladi?
   a) 10% ga yaqin b) 30% ga yaqin
   d) 3% ga yaqin e) 20% ga yaqin
4. Turkmanistonda elektr energiyasi ishlab chiqarishning yagona manbai nima?
   a) GESlar b) AESlar d) QESlar e) IESlar
5. Turkmanistonning qaysi shahrida 1 mln dan ortiq aholi istiqomat qiladi?
   a) Turkmanobod b) Ashxobod
   d) Dashoguz e) Turkmanboshi

II bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning siyosiy xaritasi yordamida Tojikiston Respublikasining geografik o‘rni va chegaralari haqida ma’lumot beriladi, iqtisodiy-geografik o‘rnining asosiy xususiyatlari tavsiflanadi;

➢ mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;

➢ Tojikiston Respublikasi aholisi soni va tabiiy ko‘payishining o‘ziga xos jihatlari, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar “Taqqoslash” va “Suhbat” metodlari orqali bayon etiladi;

➢ mamlakat iqtisodiy salohiyati, sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari hamda uning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi;


➢ Tojikiston Respublikasi va mamlakatimiz o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik aloqalari va ularning rivojlanishi “Savol-javob” metodi orqali tushuntiriladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usullarni ham qo‘llash mumkin:

“Sirli so‘z va raqamlar” mashqi

Quyidagi so‘z va raqamlarga izoh bering.



“Matnni to‘ldiring” usuli

Tushirib qoldirilgan so‘z va raqamlarni qo‘yib, matnni tiklang.

Tojikiston Respublikasi Markaziy Osiyoning … joylashgan. Boshqaruv shakli – …. Poytaxti — … shahri mamlakatning janubi-g‘arbidagi … vodiysida joylashgan. Hududining … ko‘prog‘ini baland tog‘ tizmalari egallaydi. Turli … zaxiralariga boy. … va … resurslari bilan eng yaxshi ta’minlangan davlatlar qatoriga kiradi. Aholisining yuqori zichligi bilan mamlakat shimolidagi … vodiysi, janubi-g‘arbida joylashgan … hamda … vodiylari alohida ajralib turadi. Markaziy Osiyo davlatlari orasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning nisbatan … ko‘rsatkichlari xos bo‘lib, iqtisodiyoti … yo‘nalishga ega. Sanoatining yetakchi tarmoqlari tarkibiga …, …, …, … va … kiradi. Dehqonchilikning asosiy tarmoqlari: …, …, … va …. Tog‘-yaylov chorvachiligi … va …ka ixtisoslashgan.

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

38-§. Amaliy mashg‘ulot

Markaziy Osiyo mamlakatlarining qiyosiy geografik tavsifi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Markaziy Osiyo mamlakatlarining qiyosiy geografik tavsifiga oid topshiriqlarni bajarishni o‘rganish; aholi zichligiga oid masalalarni yechish ko‘nikmalarini mustahkamlash;	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, daftar.	O‘quvchilar mamlakatlar qiyosiy geografik tavsifiga oid topshiriqlarni bajara oladi; davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qila oladi.
ISK2. Tabiiy resurslar va geologik savodxonlik	10.1.2.1. Dunyo tabiiy resurslarining hududiy tarqalishi joyning geologik tuzilishiga bog‘liq ekanini biladi. 10.1.2.2. Ko‘mir, neft, tabiiy gaz, temir, oltin singari foydali qazilmalarning zaxiralari va hududiy tarqalishiga oid ma’lumotlarni tushunadi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Algebra, informatika va axborot texnologiyalari.	
Ehtimoliy muammo	O‘quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida vaqtdan unumli foydalanish bo‘yicha muammolarga duch kelishi mumkin.	
Tavsiya	Guruhlarda ishlashni samarali tashkil etish maqsadida bajariladigan ishlar ketma-ketligi va guruh a’zolari o‘rtasida ishni taqsimlash bo‘yicha o‘quvchilarga kerakli tushuntirishlarni berib borish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

“Matnni to‘ldiring” usuli

Tushirib qoldirilgan so‘z va raqamlarni qo‘yib, matnni tiklang.

Tojikiston Respublikasi Markaziy Osiyoning ..., Hisor-Oloy va ... tog‘lari hududida joylashgan. Ma’muriy-hududiy jihatdan ... ta viloyat, ... ta muxtor viloyat (...), respublikaga bo‘ysunuvchi 1 ta shahar (...) va ... ta tumandan iborat. Tojikiston Respublikasi ... va ... resurslari bilan eng yaxshi ta’minlangan davlatlar qatoriga kiradi. Tojikiston ... singari Markaziy Osiyo davlatlari orasida aholining ... tabiiy o‘sish sur’atlari (yiliga ... %) bilan ajralib turadi. Tojikiston Respublikasiga Markaziy Osiyo davlatlari orasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning nisbatan ... ko‘rsatkichlari xos bo‘lib, iqtisodiyoti ... yo‘nalishga ega. Tojikiston sanoatining yetakchi tarmoqlari tarkibiga ..., ..., ..., ... va ... kiradi.

“Ha yoki yo‘q” mashqi

Tojikiston Respublikasi mavzusiga doir quyidagi ma’lumotlarni tasdiqlang.

Eksporti tarkibida oltin yetakchi o‘ringa ega.	Ha	Yo‘q
Boshqaruv shakliga ko‘ra prezidentlik respublikasi hisoblanadi.	Ha	Yo‘q
Yengil sanoat tarmoqlari orasida charm-poyabzal ishlab chiqarish muhim o‘rin tutadi.	Ha	Yo‘q
Hududining yarmidan ko‘prog‘ini baland tog‘ tizmalari egallaydi.	Ha	Yo‘q
Markaziy Osiyodagi shahar aholisining ulushi eng past bo‘lgan davlat hisoblanadi.	Ha	Yo‘q
Yoqilg‘i-energetika resurslariga boy.	Ha	Yo‘q

III bosqich. Amaliy topshiriqlarni bajarish

Topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi. Bunda har qaysi guruhda iqtidorli o‘quvchilar va boshqa o‘quvchilarning teng taqsimlanishiga ahamiyat beriladi. O‘qituvchi har bir guruhda topshiriqlarning qanday bajarilishini kuzatib, zarur vaqtlarda o‘quvchilarga tegishli ko‘rsatmalar beradi. Topshiriq bajarib bo‘lingach, uni tekshirib, o‘quvchilarga harakati va erishgan natijasiga muvofiq turli rangdagi rag‘bat kartochkalarini berib borish tavsiya etiladi.

Darslikda berilgan tegishli topshiriqlarning javoblari:
1-topshiriq

Geografik tavsiflar	Qozog‘iston	Qirg‘iziston	Turkmaniston	Tojikiston
Iqtisodiy-geografik o‘rni: qulay va noqulay jihatlari	Qulayligi Osiyo va Yevropa davlatlarini bog‘lovchi temir yo‘l va avtomobil magistrallari o‘tgan, Kaspiyga tutash, yirik davlatlarga chegaradosh	Dunyo okeaniga bevosita chiqish imkoniyati yo‘qligi va uning hududidan xalqaro transport magistrallari deyarli o‘tmagani hisobiga ancha noqulay	Qulayligi uning hududidan Markaziy va Janubi-G‘arbiy Osiyo mamlakatlarini bog‘lovchi temir yo‘l va avtomobil magistrallari o‘tgan, Kaspiy dengiziga tutash	Dunyo okeaniga bevosita chiqish imkoniyati yo‘q, quruqlik transportini rivojlantirish ancha murakkab, harbiy-siyosiy vaziyati notinch bo‘lgan Afg‘oniston bilan qo‘shniligi hisobiga ancha noqulay
Maydoni (ming km²)	2724,9	199,9	491,2	141,4
Aholisi (mln kishi)	18,7	6,6	6	9,4
Aholisi zichligi (kishi/km²)	7	33	12	66

Geografik tavsiflar	Qozog‘iston	Qirg‘iziston	Turkmaniston	Tojikiston
Aholisi joylashuvining xususiyatlari	Aholisi respublika janubida sug‘orma dehqonchilik rivojlangan hududlarda hamda mamlakat shimolidagi sanoatlashgan hududlarda birmuncha zichroq joylashgan	Aholisining asosiy qismi tog‘ oralig‘idagi vodiy va botiqlarda yashaydi	Aholisi asosan Amudaryo, Murg‘ob va Tajan daryolarining vodiylarida, Kopetdog‘ etagidagi tekislikda va Kaspiy sohilida istiqomat qiladi	Aholisining asosiy qismi tog‘ oralig‘idagi vodiy va botiqlarda yashaydi
Relyef	Asosan tekislik	Tog‘li	Asosan tekislik	Tog‘li
Asosiy foydali qazilmalari	Neft, tabiiy gaz, temir, marganes, xrom, uran, mis, volfram, rux, qo‘rg‘oshin, fosforit, oltingugurt	Oltin, surma, simob, volfram, uran, qalayi	Gaz, neft va turli kimyoviy tuzlar	Uran, oltin, kumush, polimetall rudalari
Suv resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi va asosiy manbalari	Katta qismida suv resurslari yetishmaydi. Irtish, Ili, Sirdaryo, Ural daryolari, Kaspiy, Balxash, Olako‘l, Tengiz, Zaysan ko‘llari	Yaxshi. Norin, Chuy, Talas daryolari va Issiqko‘l ko‘li	Suv resurslariga boy emas. Amudaryo va undan to‘yinadigan Qoraqum kanali (Qoraqumdaryo)	Juda yaxshi. Panj, Vaxsh, Sirdaryo, Zarafshon daryolari, Qorako‘l, Sarez, Iskandarko‘l ko‘llari
Elektr stansiyalarning asosiy turi	IES	GES	IES	GES
Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari	Donchilik, sabzavotchilik, sholichilik, polizchilik, bog‘dorchilik, qo‘ychilik, qoramolchilik, yilqichilik, tuyachilik	Bug‘doy, paxta, kartoshka, sabzavot, kungaboqar, tamaki yetishtirish, qo‘ychilik, echkilik, qoramolchilik, yilqichilik	Donchilik, paxtachilik, uzumchilik, qorako‘lchilik, yilqichilik, tuyachilik	Donchilik, paxtachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, qoramolchilik, qo‘ychilik
Sanoatining asosiy tarmoqlari	Neft-gaz, ko‘mir, qora va rangli metallurgiya, kimyo va mashinasozlik sanoati	Tog‘-kon, yengil, oziq-ovqat, mashinasozlik sanoati	Yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati	Rangli metallurgiya, tog‘-kon, kimyo, qurilish materiallari, yengil sanoat

2-topshiriq

Qirg‘iziston va Tojikiston geografik sharoitining umumiy xususiyatlari: ushbu mamlakatlar bevosita dengizga chiqish imkoniyatiga ega emasligi, quruqlik transportini rivojlantirishning murakkabligi hisobiga iqtisodiy-geografik o‘rnining birmuncha noqulayligi, rudali foydali qazilmalarga boy bo‘lib, aksincha, yoqilg‘i-energetika resurslari bilan past darajada ta’minlanganligi, suv va gidroenergetika resurslariga boyligi, aholisi juda notekis joylashganligi hamda uning aksariyat qismi tog‘ oralig‘idagi vodiy va botiqlarda mujassamlanganligi kabilardan iborat. Buning asosiy sabablari mazkur davlatlarning geografik o‘rni xususiyatlari hamda ularning tog‘li relyef sharoiti bilan bog‘liq.

3-topshiriq

Qozog‘iston va Turkmanistonning o‘xshash jihatlari: ularning ichki kontinental davlatlar ekanligi, hududidan xalqaro ahamiyatdagi temiryo‘l va avtomobil magistrallari o‘tganligi hamda Kaspiy ko‘liga tutashligi kabi omillar hisobiga iqtisodiy-geografik o‘rnining qulayligi, neft, tabiiy gaz hamda turli noruda mineral resurslarga boyligi, suv resurslarining tanqisligi, aholi zichligining nihoyatda pastligi va

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

asosan yirik daryolar vodiylarida va tog‘oldi tekisliklarida mujassamlanganligi, elektr energiyasi ishlab chiqarishda IESlar ahamiyatining nihoyatda yuqoriligi singari xususiyatlar bilan belgilanadi. Ushbu mamlakatlarning geografik o‘rni va relyef xususiyatlari (asosan, tekisliklardan iborat) ular o‘rtasida bir qancha o‘xshash jihatlar mavjudligiga asosiy sabab bo‘lgan.

4-topshiriq

Markaziy Osiyo mamlakatlarini geografik xususiyatlariga ko‘ra tekislik (O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston) hamda tog‘li (Qirg‘iziston va Tojikiston) davlatlar guruhiga ajratish mumkin. Bunga sabab, mintaqa davlatlarining aynan relyef xususiyatlari ularning iqtisodiy-geografik o‘rniga, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslar bilan ta’minlanishiga, aholisi joylashuviga, xo‘jalik ixtisoslashuvi hamda rivojlanishiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi.

5-topshiriq

Markaziy Osiyo davlatlari geografik sharoitining o‘zaro to‘ldiruvchi jihatlari yuzaga kelishiga mazkur mamlakatlarning tabiiy resurslar bilan ta’minlanishidagi tafovutlar asosiy omil bo‘ladi. Masalan, relyef xususiyatlariga bog‘liq holda Qirg‘iziston va Tojikiston suv resurslariga boy bo‘lsa, aksincha, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmanistonda suv resurslarining yetishmasligi ko‘zga yaqqol tashlanadi. O‘z navbatida, Markaziy Osiyo mintaqasining hududi nisbatan katta bo‘lgan tekislik davlatlari xilma-xil yerosti boyliklariga, katta hajmdagi yer resurslariga ega bo‘lgani holda tog‘li davlatlarda ishlov beriladigan yerlar va ko‘plab mineral resurslar, xususan, yoqilg‘i boyliklari yetishmasligi kuzatiladi. Shu bois transchegaraviy daryolardan, yoqilg‘i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish hamda aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash masalalari Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘zaro hamkorligining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

IV bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Amaliy topshiriqlar bajarib bo‘lingach, o‘quvchilar bilan mashg‘ulot jarayonida erishilgan natijalar, darsda qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

V bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda dars jarayonidagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

39-§. Turkiya Respublikasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Turkiya Respublikasining geografik o‘rni, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi, xo‘jaligi va jahon iqtisodiyotidagi o‘rni xususida umumiy tasavvurga ega bo‘lish; tahliliy ko‘nikmalar va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Turkiya Respublikasi iqtisodiy-geografik o‘rnini izohlay oladi; Mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda ularning xo‘jalikdagi ahamiyatini anglab yetadi; Turkiya iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari va uning xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rnini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar **ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	

Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Turkiya aholisi joylashuvi va mamlakat xo‘jaligi ixtisoslashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. Bilimlarni faollashtirish

Bilimlarni faollashtirish uchun savol-javob usulidan foydalanish mumkin:

1. Osiyo qit’asi qanday subregionlarga bo‘linadi?
2. “Iqtisodiy geografik o‘rin” deb nimaga aytiladi?
3. Jahon mamlakatlari boshqaruv shakliga ko‘ra qanday guruhlarga bo‘linadi?
4. Rudali foydali qazilmalar asosan qanday hududlarda keng tarqalgan?
5. “Yalpi ichki mahsulot” deb nimaga aytiladi?
6. Agroiqlimiy resurslarga nimalar kiradi?
7. Xalqaro turizm rivojlanishi qanday omillarga bog‘liq?
8. Tabiiy rekreatsiya resurslariga nimalar misol bo‘ladi?
9. Aholi zichligiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
10. YIM hajmi bo‘yicha qaysi davlatlar jahonda oldingi o‘rinlarda turadi?

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Turkiyaning geografik o‘rni va chegaralari haqida ma’lumot beriladi. Bevosita Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatiga ega ekanligi mamlakat iqtisodiyotida qanday o‘rin tutishi izohlab o‘tiladi;
- mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Turkiya aholisi soni va ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar “Suhbat” metodi orqali bayon etiladi. Bunda aholi tabiiy ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi hamda zichligini aniqlash usullarini eslatib o‘tish maqsadga muvofiq;
- mamlakat iqtisodiy salohiyati, sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari hamda uning xalqaro savdodagi ishtiroki “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi;
- Turkiyada turizmning rivojlanish omillari, uning jahon turizmida tutgan o‘rni “Suhbat” va “Hikoya” metodlari orqali yoritiladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi mashqlarni ham qo‘llash mumkin:


“Sirli so‘z va raqamlar” mashqi

Quyidagi so‘z va raqamlarga izoh bering.



Xotira mashqi

O‘tilgan mavzuga doir quyidagi toponimlarni izohlang.



V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

40-§. Amaliy mashg‘ulot

Eron, Afg‘oniston va Pokistonning qiyosiy geografik tavsifi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Davlatlarni qiyosiy geografik yondashuv orqali o‘rganish; ularning iqtisodiy-geografik o‘rni, tabiiy resurs salohiyati, iqtisodiyotining ustunliklari va kuchsiz jihatlarini taqqoslay olish; amaliy ko‘nikmalari va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, daftar.	O‘quvchilar davlatlarni qiyosiy geografik yondashuv orqali o‘rganishning ahamiyatini anglab yetadi; davlatlarning tabiiy resurs salohiyati, iqtisodiyotining ustunliklari va kuchsiz tomonlarini tahlil qila oladi.

ISK2. Tabiiy resurslar va geologik savodxonlik	10.1.2.2. Ko‘mir, neft, tabiiy gaz, temir, oltin singari foydali qazilmalarning zaxiralari va hududiy tarqalishiga oid ma’lumotlarni tushunadi.
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari.
Ehtimoliy muammo	Ayrim o‘quvchilar masalalarni bajarish jarayonida formulalarni o‘rinli qo‘llashda muammolarga duch kelishi mumkin.
Tavsiya	Masalalarni bajarish uchun zarur formulalarni doskada yozib yoki taqdimot orqali ko‘rsatish kerak.

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi mashqdan foydalanish mumkin:

“Topqirlar” mashqi

Quyidagi atama va nomlar orasidan Turkiya Respublikasiga taalluqli bo‘lganlarini toping va izohlang.

Turizm, tropik iqlim, federativ davlat, Tavr, prezidentlik respublikasi, subekvatorial iqlim, Kavkaz, unitar davlat, parlamentar respublika, kurdlar, agrar-industrial iqtisodiyot, subtropik iqlim, mulatlar, industrial-agrar iqtisodiyot.

Test

1. Turkiya g‘arbdan qaysi dengiz suvlari bilan yuviladi?
   a) Qora dengiz b) Egey dengizi
2. Turkiya dunyo mamlakatlari orasida qanday mahsulotlarning eng yirik eksportyorlaridan biri hisoblanadi?
   a) yoqilg‘i mahsulotlari b) mashinasozlik mahsulotlari d) agrar mahsulotlar
3. Turkiya aholisining qancha qismi shaharlarda yashaydi?
   a) 76 % b) 84 % d) 80 % e) 60 %
4. Turkiyada qaysi millat vakillari son jihatdan 2-o‘rinda turadi?
   a) armanlar b) forslar d) yahudiylar e) arablar f) kurdlar
5. Sanoat Turkiyaning qaysi qismida yaxshi rivojlangan?
   a) sharqida b) janubida d) g‘arbida e) shimolida f) markazida g) janubi-sharqida

III bosqich. Amaliy topshiriqlarni bajarish

Topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi. Bunda har qaysi guruhda iqtidorli o‘quvchilar va boshqa o‘quvchilarning teng taqsimlanishiga ahamiyat beriladi. O‘qituvchi har bir guruhda topshiriqlarning qanday bajarilishini kuzatib, zarur vaqtlarda o‘quvchilarga tegishli ko‘rsatmalar beradi. Topshiriq bajarib bo‘lingach, uni tekshirib, o‘quvchilarga harakati va erishgan natijasiga muvofiq turli rangdagi rag‘bat kartochkalarini berib borish tavsiya etiladi.

Darslikda berilgan tegishli topshiriqlarning javoblari:

1-topshiriq

Eron va Pokistonning iqtisodiy-geografik o‘rni xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan dengiz va quruqlik transporti yo‘llari o‘tganligi hisobiga qulay bo‘lsa, Afg‘onistonning iqtisodiy-geografik o‘rni bevosita Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatining yo‘qligi sababli biroz noqulay hisoblanadi.

2-topshiriq

Davlatlar	Maydoni, ming km²	Aholisi, mln kishi	Aholi zichligi, kishi/km²	Urbani-zatsiya darajasi, %	Shahar aholisi soni, mln kishi	Qishloq aholisi ulushi, %	Qishloq aholisi soni, mln kishi
Eron	1648	84,2	*51*	75	*63,2*	*25*	*21*
Afg‘oniston	652,8	38,9	*60*	24	*9,3*	*76*	*29,6*
Pokiston	803,9	220,9	*275*	37	*81,7*	*63*	*139,2*

a) Pokiston aholi zichligi bo‘yicha juda yuqori ko‘rsatkichga ega (275 kishi/km²). Bunga mamlakat hududining asosiy qismi joylashgan Hind daryosi vodiysi sug‘orma dehqonchilik uchun qulay sharoitga ega bo‘lganligi bois qadimdan aholi yashab kelayotganligi, ishchi kuchini ko‘p talab qiluvchi sholikorlik rivojlanganligi, mamlakat aholisining milliy-diniy tarkibiga bog‘liq holda tug‘ilish va aholining tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlari juda yuqori ekanligi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi omillar ta’sir ko‘rsatgan.

b) Jadvalda keltirilgan davlatlar orasida Afg‘onistonda qishloq aholisining ulushi eng yuqori (76 %) bo‘lib, bu holatga mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi katta ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda va ayrim rivojlanayotgan davlatlarda sanoat hamda xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi natijasida aholining asosiy qismi shahar joylarda mujassamlashuvi hisobiga qishloq aholisining ulushi past ko‘rsatkichlarga ega. Aksincha, ko‘pchilik iqtisodiy rivojlanayotgan davlatlarda, ayniqsa, iqtisodiy taraqqiyotda ortda qolayotgan va qishloq xo‘jaligi aholi bandligining asosiy manbai bo‘lgan iqtisodiyoti eng qoloq agrar davlatlarda qishloq aholisi salmog‘i juda yuqoridir.

3-topshiriq

A) 2; 4; 8; 12; 14. B) 3; 6; 10; 11; 15. D) 1; 5; 7; 9; 13.

4-topshiriq

Afg‘oniston iqtisodiyotini rivojlantirishda qator omillarga tayanishi mumkin. Masalan, geografik o‘rniga bog‘liq holda Markaziy, Janubi-g‘arbiy hamda Janubiy Osiyo davlatlari o‘rtasida tranzit rolini bajarishi (ushbu mintaqalarni bog‘lovchi transport magistrallari qurilishi hisobiga Afg‘onistonning iqtisodiy-geografik o‘rni sezilarli darajada yaxshilanadi), boy mineral resurslardan va daryolarining energetik imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin (mazkur omillar mamlakatda sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish imkonini beradi). Iqtisodiy taraqqiyot omillaridan samarali foydalanish uchun, avvalambor Afg‘onistonda ichki ziddiyatlar bartaraf etilishi lozim.

Afg‘onistonda siyosiy vaziyatning barqaror bo‘lishi Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiy-geografik o‘rniga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu birinchi navbatda Markaziy Osiyo davlatlarining Afg‘oniston orqali Janubi-g‘arbiy va Janubiy Osiyo davlatlari hamda Hind okeani portlari bilan bog‘lanish imkoniyatlarining kengayishida namoyon bo‘ladi.

IV bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Amaliy topshiriqlar bajarib bo‘lingach, o‘quvchilar bilan mashg‘ulot jarayonida erishilgan natijalar, darsda qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

V bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda dars jarayonidagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

41-§. Xitoy Xalq Respublikasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Xitoy Xalq Respublikasining maydoni, chegaralari, geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi, demografik siyosatining mohiyati xususida umumiy tasavvurga ega bo‘lish; amaliy ko‘nikmalarni va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	o‘quvchilar Xitoy Xalq Respublikasining iqtisodiy-geografik o‘rnini izohlay oladi; mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va uning hududiy joylashuvi xususiyatlarini anglab yetadi; Xitoy demografik siyosatining mohiyatini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar	10.1.6.1. Aholining yosh-jins va milliy tarkibini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar, ularning aholi ko‘payishiga bog‘liqligini tushunadi. 10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilganda o‘quvchilar Xitoy tabiiy sharoitining o‘ziga xos jihatlari va uning mamlakat aholisi joylashuviga ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. Bilimlarni faollashtirish

Bilimlarni faollashtirish uchun savol-javob usulidan foydalanish mumkin:

1. Sotsialistik davlat nima?
2. Muxtor (avtonom) hudud deganda nimani tushunasiz?
3. Yoqilg‘i-energetika resurslari asosan qanday hududlarda keng tarqalgan?
4. Gidroenergetika resurslaridan foydalanishning qanday afzalliklari bor?
5. Aholi tabiiy ko‘payishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
6. “Mehnat resurslari” deb nimaga aytiladi?
7. Sharqiy Osiyoda keng tarqalgan qaysi dinlarni bilasiz?
8. Qaysi davlatlar aholi soniga ko‘ra jahonda peshqadamlik qiladi?
9. Urbanizatsiya darajasi qanday omillar ta’sirida o‘zgarib boradi?
10. Osiyo qit’asidagi eng yirik shaharlardan qaysilarini bilasiz?

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;

- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Xitoyning geografik o‘rni, chegaralari va maydoni haqida ma’lumot beriladi;
- Xitoy iqtisodiy-geografik o‘rnining asosiy jihatlari “Suhbat” metodi yordamida bayon etiladi;
- mamlakat tabiiy sharoitining asosiy xususiyatlari, hududiy tafovutlari va uni keltirib chiqargan omillar “Taqqoslash” metodi yordamida tavsiflanadi;
- tabiiy resurs salohiyati va uning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni “Suhbat” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Xitoyning aholi va mehnat resurslari soni bo‘yicha jahondagi mavqeyi, mamlakatning o‘ziga xos demografik siyosati va uning mohiyati, aholi ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi va uning o‘zgarish sur’ati, etnik tarkibi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar “Taqqoslash” va “Savol-javob” metodlari orqali bayon etiladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usullarni ham qo‘llash mumkin:

“Matnni to'ldiring” usuli

Tushirib qoldirilgan so‘z va raqamlarni qo‘yib, matnni tiklang.

I variant	II variant
Xitoy Xalq Respublikasi ...da joylashgan. Quruqlikda … ta davlat bilan chegaradosh. Ma’muriy-hududiy jihatdan Xitoy tarkibiga … ta provinsiya, … ta muxtor (avtonom) rayon, … ta markazga bo‘ysunuvchi shahar va … ta maxsus ma’muriy rayon – (… va …) ajratiladi. Xitoyda …, …, … singari yirik daryolar oqadi. Xitoyda 2011-yilda shahar aholisining ulushi … dan ortdi va 2020-yilga kelib urbanizatsiya darajasi … ga yetdi.	Xitoy jahon mamlakatlari orasida hududining kattaligi bo‘yicha ...-, aholisi soni va ... hajmi bo‘yicha esa 1-o‘rinni egallaydi. Xitoy jahonning hozirgi siyosiy xaritasidagi sanoqli ... davlatlardan biri. Xitoy yoqilg‘i-energetika resurslaridan ..., ..., ... va ... ga boy. Dinlar orasida ... eng keng tarqalgan. Shuningdek, Xitoyda ..., ..., ..., ... dinlariga e’tiqod qiluvchilar soni ham ko‘p. Mamlakatdagi eng yirik shaharlar qatoriga ..., ..., ..., ..., ..., ..., ... va boshqalar kiradi.

“Raqamlar so‘zlaganda” usuli

Quyidagi raqamlarga sharh yozing.

4 ming km	
90 % dan ko‘prog‘i	
150 kishi	
3-o‘rinda	

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

42-§. Xitoy iqtisodiyoti va iqtisodiy rayonlari

Darsning maqsadi	Ta'lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Xitoy sanoati va qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari hamda ularning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish; mamlakatning uchta yirik iqtisodiy rayonlarga bo'linishi sabablari xususida umumiy tasavvurga ega bo'lish.	Darslik, o'quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O'quvchilar Xitoy sanoati va qishloq xo'jaligining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni anglab yetadi; mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi rolini izohlay oladi; Xitoyning yirik iqtisodiy zonalari rivojlanish xususiyatlarini tahlil qila oladi.
ISK8. Inson xo'jalik faoliyati	10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo'jaligining ixtisoslashuvi, unga ta'sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o'rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo'jaligi haqida ma'lumot oladi, ushbu ma'lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog'lanish	Informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Ayrim o'quvchilar Xitoyda energetikaning jadal sur'atlar bilan o'sishi ekologik vaziyat keskinlashuviga qanday ta'sir ko'rsatishini yaxshi tasavvur eta olmasliklari mumkin.	
Tavsiya	Turli yoqilg'ilar yonganda atrof-muhitga qanday zararli gazlar chiqarishi va u atmosfera havosini ifloslashi bilan birga iqlimning global miqyosda isib borishiga ta'siri haqidagi ma'lumotlarni eslatib o'tish maqsadga muvofiq.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o'quv faoliyatiga yo'naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o'quvchilarni dars mashg'ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg'ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O'tilgan mavzuni mustahkamlash

O'tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi mashqdan foydalanish mumkin:

"Raqamlardagi sir" mashqi

Matndagi maxsus o'rinlarda tushirib qoldirilgan so'z va raqamlarni jadvalga yozing.

Hozirda Xitoyda jahon aholisining (**1**) % idan ortiq qismi yashaydi. Xitoyda aholining (**2**) ko'payishi 2020-yilga kelib, 0,3 % gacha tushib ketgan. Natijada mamlakat aholisining yosh tarkibi keskin o'zgarib, (**3**) ulushi tobora ortib borishi kuzatilmoqda. Aholisining etnik tarkibiga ko'ra, Xitoy (**4**) millatli davlat hisoblanadi. Mamlakatda xanlardan tashqari (**5**) ta mahalliy millat va elatlar yashaydi. Dinlar orasida xitoyliklarning milliy dinlaridan biri – (**6**) eng keng tarqalgan. Musulmonlar asosan (**7**) muxtor rayonida yashaydi. Aholining o'rtacha zichligi har 1 km^2 maydonga (**8**) kishini tashkil qilgani holda, bu ko'rsatkich Xuanxe va (**9**) daryolari oralig'idagi tekislikda 800–1000 kishi/km^2 ni, (**10**) esa 1–2 kishi/km^2 ni tashkil etadi.

1.	18	**6.**	
2.		**7.**	
3.		**8.**	
4.		**9.**	
5.		**10.**	

“Xaritani o‘rganamiz” mashqi

Dunyoning siyosiy xaritasidan foydalanib quyidagilar orasidan Xitoyga chegaradosh bo‘lgan davlatlarni toping.

Qozog‘iston, Bangladesh, Malayziya, Tailand, Hindiston, Tojikiston, Vetnam, Koreya Respublikasi, Kambodja, Mongoliya, KXDR, Eron, Nepal, Qirg‘iziston, Butan, Turkmaniston, Myanma, Afg‘oniston.

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:


- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- Xitoyning YIM hajmi bo‘yicha jahondagi o‘rni, uning rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiritilishining sababi “Savol-javob” metodidan foydalanib tavsiflanadi;
- mamlakat sanoatining rivojlanish omillari va mazkur sohaning turli tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga ko‘ra jahondagi o‘rni “Taqqoslash” metodi yordamida bayon etiladi;
- Xitoy qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari va unda mehnat unumdorligi yuqori ekanining belgilari, dehqonchilik va chorvachilikning turli yo‘nalishlari bo‘yicha dunyodagi mavqeyi “Savol-javob” va “Hikoya” metodlari asosida yoritiladi;
- mamlakat iqtisodiy rayonlari, ularning o‘zaro tafovutlari, rivojlanish xususiyatlari va omillari dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari orqali tahlil qilinadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa quyidagi metodni ham qo‘llash mumkin:

“Klaster” metodi

Xitoyning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarga izoh yozing.



“Adashtirdim, toping-chi!” o‘yini

Berilgan ma’lumotlardagi xatolarni to‘g‘rilab, jadvalni to‘ldiring.

Ma’lumotlar	Noto‘g‘ri	To‘g‘ri
Xuanxe daryosida dunyodagi eng yirik – “Uch dara” (Sansya) GESi qurilgan	Xuanxe	Yanszi
Xitoy YIM hajmi bo‘yicha jahon mamlakatlari orasida ikkinchi o‘rinni egallaydi.		
Xitoyda jami ekin maydonlarining asosiy qismi paxta bilan band.		

Xitoyda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining asosiy qismi GESlar hissasiga to‘g‘ri keladi.		
Xitoy o‘zining asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini import hisobiga qondiradi.		
Xitoy 2018-yili makkajo‘xori yetishtirish bo‘yicha jahonda birinchi o‘rinni egallagan.		
Xitoyning asosiy ko‘mir konlari mamlakatning shimoli-sharqiy va shimoliy hududlarida joylashgan.		
Yengil sanoatning jadal sur’atlar bilan o‘sishi Xitoyning yirik shaharlaridagi ekologik vaziyat keskinlashishiga olib keldi.		
Xitoyda YIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkichi rivojlangan davlatlar darajasida.		

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

43-§. Koreya Respublikasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Koreya Respublikasining geografik o‘rni, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi, xo‘jaligi va tashqi iqtisodiy aloqalari xususida umumiy tasavvurga ega bo‘lish; tahliliy ko‘nikmalar va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Koreya Respublikasining iqtisodiy-geografik o‘rnini izohlay oladi; mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda ularning xo‘jalikdagi ahamiyatini anglab yetadi; Koreya Respublikasining yangi industrial mamlakatlar guruhiga kiritilishi sababini va jahon iqtisodiyotidagi rolini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar **ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.6.1. Aholining yosh-jins va milliy tarkibini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar, ularning aholi ko‘payishiga bog‘liqligini tushunadi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Ayrim o‘quvchilar aholining yosh tarkibi bo‘yicha mutlaq sonini hisoblashga doir topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.	

Tavsiya	Aholining yosh tarkibi bo‘yicha foizlardagi ulushi ma’lum bo‘lganda har qaysi guruhga kiruvchi aholining mutlaq sonini hisoblash usulini izohlab o‘tish maqsadga muvofiq.

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

“Matnni to'ldiring” usuli

Tushirib qoldirilgan so‘z va raqamlarni qo‘yib matnni tiklang.

Xitoyda sanoatning ... tarmoqlari yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, u sanoat mahsulotlarining ko‘plab turlarini ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda ... yoki ... o‘rinlarda turadi. Xitoyda yiliga ... tonnaga yaqin ko‘mir qazib chiqarilmoqda. Xitoy 2012-yildan buyon elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmiga ko‘ra jahonda ... o‘rinni egallamoqda. 2019-yil mamlakatda ... kW·h dan ziyod elektr energiyasi ishlab chiqarildi (jahonda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining ...idan ortiq qismi). ... sanoati Xitoyda ayniqsa tez rivojlanmoqda. Dunyodagi jami ekin maydonlarining ...iga ega bo‘lib turib, insoniyatning ... idan ko‘proq qismini tashkil etadigan aholisini Xitoy o‘z resurslari hisobiga oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlay olayotganligi ... mehnat unumdorligining yuqoriligini aks ettiradi.

“Blits so‘rov” usuli

Quyidagi savollarga tezkor javob bering.

1. Xitoy YIM hajmi bo‘yicha jahonda nechanchi o‘rinda turadi?
2. Xitoyda IESlar ishlatadigan yoqilg‘ining qancha qismi ko‘mirdan iborat?
3. Xitoyda sanoatning qaysi tarmoqlari yetakchi hisoblanadi?
4. Xitoy hududi qanday iqtisodiy rayonlarga ajratiladi?
5. Xitoyda so‘nggi yillarda qanday elektr stansiyalarni ko‘paytirishga katta e’tibor berilmoqda?

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:


- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning siyosiy xaritasi yordamida Koreya Respublikasining geografik o‘rni va chegaralari haqida ma’lumot beriladi. Dunyo okeaniga bevosita chiqish imkoniyatiga ega ekani mamlakat iqtisodiyotida qanday o‘rin tutishi tavsiflanadi;
- mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Koreya Respublikasi aholisi soni va tabiiy ko‘payishining o‘ziga xos jihatlari, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar “Taqqoslash” va “Suhbat” metodlari orqali bayon etiladi;
- mamlakat iqtisodiy salohiyati, sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari hamda uning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi;
- Koreya Respublikasi va mamlakatimiz o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik aloqalari va ularning rivojlanishi “Suhbat” metodi orqali tushuntiriladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi mashqni ham qo‘llash mumkin:

“Diqqatni jamlang!” mashqi

Koreya Respublikasiga quyidagi reja asosida ta’rif bering.



“Farqini top” o‘yini

Quyidagilar orasidan Koreya Respublikasiga tegishli bo‘lmagan ma’lumotlarni ajrating.

1. Hududining katta qismini o‘rmonlar egallagan.
2. Baliq ovlash hajmi bo‘yicha birinchi o‘rinni egallaydi.
3. Konfutsiylik dini eng keng tarqalgan.
4. Yuqori urbanizatsiyalashgan davlat.
5. Eksport hajmi bo‘yicha jahonning yetakchi 10 ta mamlakatlari qatoriga kiradi.
6. Asosiy hududida issiq tropik iqlim hukmronlik qiladi.
7. G‘arbiy va janubiy dengizbo‘yi hududlarida aholi zichligi juda yuqori.
8. 47 ta prefekturaga bo‘linadigan unitar davlat.
9. 1 km^2 maydonga 500 kishidan ko‘proq aholi to‘g‘ri keladi.
10. “Samsung Elektronics”, “Hyundai”, “Posco” va boshqa dunyoga mashhur transmilliy korporatsiyalarning mavjudligi bilan ajralib turadi.

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan belgilangan reyting tizimi doirasida baholanadi.

44-§. Yaponiya

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Yaponiyaning geografik o‘rni, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi, xo‘jaligi va iqtisodiyotidagi ichki tafovutlari xususida umumiy tasavvurga ega bo‘lish; amaliy ko‘nikmalarni va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Yaponiyaning iqtisodiy-geografik o‘rnini izohlay oladi; mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida tabiiy resurslar omili har doim hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lavermasligini anglab yetadi; Yaponiya “iqtisodiy mo‘jizasi”ning mohiyatini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar **ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.6.1. Aholining yosh-jins va milliy tarkibini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar, ularning aholi ko‘payishiga bog‘liqligini tushunadi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida muayyan vaqtdan so‘ng o‘quvchilarning diqqatini jamlashda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar diqqatini jamlash hamda ularning qanday o‘zlashtirayotganini nazorat qilish maqsadida mavzuning ma’lum bir qismi tushuntirilgach, qisqa savol-javoblar o‘tkazib olish maqsadga muvofiq.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi mashqdan foydalanish mumkin:

“Topqirlar” mashqi

Quyidagi atama va nomlar orasidan Koreya Respublikasiga taalluqli bo‘lmaganlarini toping.

Yapon dengizi, Arabiston dengizi, Sariq dengiz, Sharqiy Xitoy dengizi, Janubiy Xitoy dengizi, subekvatorial iqlim, mo‘tadil iqlim, musson shamollari, passat shamollari, Mekong, Naktongan, Xangan, Amur, Seul, Pusan, Chendu, Tegu, Inchxon, Kvanchju, Tyanszin, induizm, xristianlik, iudaizm, buddizm, “Samsung Elektronics”, “Hyundai”, “Hisense”, “Posco”, “Sony”, sholichilik, paxtachilik, sabzavotchilik, mevachilik, pillachilik, sut-go‘sht chorvachiligi, qorako‘lchilik, qoramolchilik, cho‘chqachilik.

Test

I variant

1. Koreya Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga ko‘ra qanday guruhga kiritiladi?
   a) industrial-agrar davlatlar guruhiga b) “Katta yettilik” davlatlari guruhiga
   d) o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar guruhiga d) yangi industrial davlatlar guruhiga
2. Koreya Respublikasida urbanizatsiya darajasi qancha?
   a) 80 % dan ortiq b) 70 % dan ortiq d) 60 % dan ortiq e) 90 % dan ortiq
3. Quyidagilar orasidan Koreya Respublikasida rivojlangan chorvachilik tarmoqlarini toping.
   a) yilqichilik va cho‘chqachilik b) qoramolchilik va cho‘chqachilik

d) qoramolchilik va parrandachilik e) yilqichilik va parrandachilik

4. O‘zbekistonda Koreya Respublikasi kapitali ishtirokida qancha korxona faoliyat yuritmoqda?

a) 1000 dan ortiq b) 1200 dan ortiq d) 900 dan ortiq e) 600 dan ortiq

II variant

1. Koreya Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ulkan yutuqlar ayniqsa qaysi sohada ko‘zga tashlanadi?

a) xizmat ko‘rsatish b) sanoat d) qishloq xo‘jaligi e) turizm

2. Koreya Respublikasi aholisining qancha qismini koreyslar tashkil qiladi?

a) 98 % ini b) 90 % ini d) 95 % ini e) 99 % ini

3. Quyidagi sohalar orasidan qaysi biri bo‘yicha Koreya Respublikasi jahonda yetakchilik qiladi?

a) sholi yetishtirish bo‘yicha b) kemalar ishlab chiqarish bo‘yicha

d) ko‘mir qazib olish bo‘yicha e) po‘lat eritish bo‘yicha

4. Koreya Respublikasi, 2020-yil yakunlariga ko‘ra, tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha O‘zbekistonning savdo hamkorlari orasida nechanchi o‘rinni egallagan?

a) to‘rtinchi b) ikkinchi d) beshinchi e) birinchi

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:


- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Yaponiyaning geografik o‘rni, uning ijobiy va salbiy tomonlari izohlanadi;
- mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Yaponiya aholisi soni, tabiiy ko‘payishi va yosh tarkibining o‘ziga xos jihatlari, urbanizatsiya darajasi, aholining etnik tarkibi, hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar “Taqqoslash” va “Suhbat” metodlari orqali bayon etiladi;
- mamlakat iqtisodiy salohiyati, Yaponiya “iqtisodiy mo‘jizasi”ning mohiyati, sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari hamda uning ichki hududiy tafovutlari “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi;
- Yaponiyada turizmning rivojlanish omillari, uning jahon turizmida tutgan o‘rni “Suhbat” va “Hikoya” metodlari orqali yoritiladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usullarni ham qo‘llash mumkin:

“Klaster” metodi

Yaponiyaning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflang.



“Matnni to'ldiring” usuli

Tushirib qoldirilgan so‘z va raqamlarni qo‘yib, matnni tiklang.

Yaponiya ...da joylashgan orol mamlakat. Poytaxti – ... mamlakatning eng yirik oroli ... ning sharqida, ... tekisligida joylashgan. Mamlakat hududining ... qismi tog‘ va qirlar bilan band. Relyefining tog‘liligi ... yerlarining yetishmovchiligiga olib kelgan. Yaponiya, asosan, ... va ... iqlim mintaqalarida joylashgan. Yaponiyada shahar aholisi ulushi ...dan yuqori. Aholisining ...idan ko‘pini yaponlar tashkil qiladi. YIM ning umumiy hajmiga ko‘ra dunyoda ..., ... va ...dan keyingi to‘rtinchi o‘rinni egallaydi. Mamlakatning eng mashhur transmilliy korporatsiyalari qatoriga “...”, “...”, “...”, “...” va boshqalar kiradi. ... orolining sharqida shakllangan ... sanoat mintaqasi iqtisodiy jihatdan Yaponiyaning eng rivojlangan hududi hisoblanadi. Bu mintaqa Tinch okean bo‘ylab ...dan ortiq masofaga cho‘zilgan.

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan baholanadi va uyga vazifa beriladi.

45-§. Hindiston Respublikasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Hindiston Respublikasining geografik o‘rni, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi, xo‘jaligi va uning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni, iqtisodiyotidagi ichki tafovutlari xususida umumiy tasavvurga ega bo‘lish; tahliliy ko‘nikmalari va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Hindiston Respublikasining iqtisodiy-geografik o‘rnini izohlay oladi; mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda ularning xo‘jalikdagi ahamiyatini anglab yetadi; Hindiston sanoati va qishloq xo‘jaligining rivojlanish xususiyatlarini, uning jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar **ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida muayyan vaqtdan so‘ng o‘quvchilarning diqqatini jamlashda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar diqqatini jamlash hamda ularning qanday o‘zlashtirayotganini nazorat qilish uchun mavzuning ma’lum bir qismi tushuntirilgach, qisqa savol-javoblar o‘tkazib olish maqsadga muvofiq.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

“Raqamlar so‘zlaganda” usuli

Yaponiya mavzusiga doir quyidagi raqamlarga qisqacha izoh yozing.

1-o‘rinda		3/4 qismi	
30 mln		377,9 ming km^2	
1700–4000 mm		600 km	
4 ta		29 %	

“Toifalash” jadvali

Quyidagi toponimlar nimani anglatishini topib, to‘g‘ri javoblarni jadvalga belgilang.

Toponimlar	Orol	Dengiz	Vulqon	Tekislik	Shahar
Kioto					
Xokkaydo					
Kanto					
Oxota					
Osaka					
Fudziyama					
Sikoku					
Nagoya					
Iokagama					
Kyusyu					

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Hindistonning geografik o‘rni va chegaralari haqida ma’lumot beriladi, iqtisodiy-geografik o‘rnining ijobiy tomonlari tavsiflanadi;
- mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Hindiston aholisi soni va ko‘payishi, etnik va diniy tarkibi, urbanizatsiya darajasi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar “Taqqoslash” va “Suhbat” metodlari orqali bayon etiladi;
- mamlakat iqtisodiy salohiyati, sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari hamda uning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi mashqlarni ham qo‘llash mumkin:

“Diqqatni jamlang!” mashqi

Hindiston Respublikasiga quyidagi reja asosida ta’rif bering:

- chegaralari va maydoni;
- iqtisodiy-geografik o‘rni xususiyatlari;
- asosiy tabiiy resurslari;
- aholisi va uning tarkibi;
- sanoatining asosiy tarmoqlari;
- qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari;
- jahon iqtisodiyotidagi o‘rni.

“O‘yla, izla, top” mashqi

Har bir qatordagi muqobil variantlardan qaysilari to‘g‘ri ekanini toping.

Hind va bengal tillari Hindistonda umummilliy rasmiy tillar hisoblanadi.	Hind va ingliz tillari Hindistonda umummilliy rasmiy tillar hisoblanadi.	Bengal va ingliz tillari Hindistonda umummilliy rasmiy tillar hisoblanadi.
Hindiston aholisining asosiy qismi buddizm diniga mansub.	Hindiston aholisining asosiy qismi iudaizm diniga mansub.	Hindiston aholisining asosiy qismi induizm diniga mansub.
Hindistonda urbanizatsiya darajasi 35 % ni tashkil etadi.	Hindistonda urbanizatsiya darajasi 58 % ni tashkil etadi.	Hindistonda urbanizatsiya darajasi 47 % ni tashkil etadi.
Hindiston tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiradi.	Hindiston yirik industrial-agrar mamlakatlar guruhiga kiradi.	Hindiston “Katta yettilik” davlatlari guruhiga kiradi.
Hindistonda jami band aholining 40 % ga yaqini sanoat tarmoqlarida mehnat qiladi.	Hindistonda jami band aholining 40 % ga yaqini xizmat ko‘rsatish sohasida mehnat qiladi.	Hindistonda jami band aholining 40 % ga yaqini qishloq xo‘jaligida mehnat qiladi.
Hindistonda federatsiya birliklari asosan diniy tamoyil bo‘yicha ajratilgan.	Hindistonda federatsiya birliklari asosan etnik tamoyil bo‘yicha ajratilgan.	Hindistonda federatsiya birliklari asosan irqiy tamoyil bo‘yicha ajratilgan.
Hindiston ekin maydonlari kattaligiga ko‘ra jahonda Rossiyadan keyin 2-o‘rinda turadi.	Hindiston ekin maydonlari kattaligiga ko‘ra jahonda Xitoydan keyin 2-o‘rinda turadi.	Hindiston ekin maydonlari kattaligiga ko‘ra jahonda AQSHdan keyin 2-o‘rinda turadi.

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan baholanadi va uyga vazifa beriladi.

46-§. Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Fors qo‘ltig‘i arab davlatlarining geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi, sanoati va qishloq xo‘jaligining xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlariga oid umumiy tasavvurga ega bo‘lish; tahliliy ko‘nikmalar va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Fors qo‘ltig‘i arab davlatlarining geografik o‘rnini izohlay oladi; ushbu davlatlarning tabiiy sharoiti va resurslari hamda ularning xo‘jalikdagi ahamiyatini anglab yetadi; mazkur mamlakatlar sanoati va qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning jahon xo‘jaligidagi ahamiyatini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar **ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Ayrim o‘quvchilar aholi zichligini hisoblashga doir topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.	
Tavsiya	Aholi zichligini hisoblash usulini misollar bajarib ko‘rsatish orqali eslatib o‘tish maqsadga muvofiq.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

“Topqirlar” mashqi

“Hindiston Respublikasi”ga doir quyidagi ma’lumotlar orasidan ortiqchalarini toping.

❖ Hindistonga Lakkadiv, Andaman, Maldiv va Nikobar orollari tegishli.

❖ Hindistonda temir, marganes, xrom, titan, uran, toriy rudalari, ko‘mir, neft, tabiiy gaz, olmos, kumush, turli qimmatbaho toshlarning zaxiralari ancha katta.

❖ Ganga, Braxmaputra, Hind, Godavari, Maxanadi, Iravadi, Kaveri, Krishna, Mekong, Narmada va Tapti Hindistonning yirik daryolari hisoblanadi.

❖ Hindiston shaharlari orasida Mumbay, Kalkutta, Karachi, Dehli, Bangalor, Chennay, Haydarobod, Islomobod, Ahmadobod eng yiriklaridir.

❖ Hindiston iqtisodiyotining asosini metallurgiya, mashinasozlik, to‘qimachilik, oziq-ovqat va kimyo sanoati tashkil etadi.

“Kim chaqqon?” o‘yini

Hindiston quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha jahonda nechanchi o‘rinlarda turishini toping va tezkorlik bilan ayting:

- yalpi ichki mahsuloti hajmiga ko‘ra;

- maydoni bo‘yicha;
- ekin maydonlarining kattaligiga ko‘ra;
- aholisi soni bo‘yicha;
- sug‘oriladigan maydonlar hajmiga ko‘ra.

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

➢ o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;

➢ dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Fors qo‘ltig‘i arab davlatlarining geografik o‘rni, chegaralari, maydoni, aholisi va boshqaruv shakli haqida ma’lumot beriladi, iqtisodiy-geografik o‘rnining ijobiy tomonlari tavsiflanadi;

➢ ushbu mamlakatlar tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;

➢ Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari aholisi sonida xorijiy migrantlar ulushi yuqoriligining sababi, aholining tabiiy ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, diniy tarkibi “Taqqoslash” va “Suhbat” metodlari orqali bayon etiladi;

➢ mazkur mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati, sanoati, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarining yetakchi tarmoqlari “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi o‘yinni ham qo‘llash mumkin:

“Adashtirdim, toping-chi?” o‘yini

Berilgan ma’lumotlardagi xatolarni to‘g‘rilab, jadvalni to‘ldiring.

Ma’lumotlar	Noto‘g‘ri	To‘g‘ri
Fors qo‘ltig‘i arab davlatlarining barchasi respublika boshqaruv shakliga ega.	respublika	monarxiya
Fors qo‘ltig‘i mintaqasida asosiy tabiat zonasi savannalardir.		
Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari orasida tabiiy gaz zaxiralari bilan Qatar, Saudiya Arabistoni va Iroq ajralib turadi.		
Fors qo‘ltig‘i arab davlatlariga shahar aholisi ulushining pastligi xos.		
Quvayt aholisi diniy tarkibida shia musulmonlari ko‘pchilikni tashkil etadi.		
Fors qo‘ltig‘i arab davlatlarida dehqonchilikning rivojlanishi yer resurslari yetishmovchiligi bilan cheklangan.		
Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari chorvachiligining asosiy tarmoqlari qo‘ychilik, echkichilik va parrandachilik.		

“Matnni to'ldiring” usuli

Tushirib qoldirilgan so‘z va raqamlarni qo‘yib, matnni tiklang.

Fors qo‘ltig‘i atrofida ... ta davlat joylashgan bo‘lib, ulardan ... tasi – ..., ..., ..., ..., ..., ... – tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, demografik va milliy-madaniy jihatdan bir-biriga ancha o‘xshaydi. Mintaqa iqtisodiy-geografik o‘rnining qulayligi uchta qit’a – ..., ... va ... tutashgan hududda, xalqaro ahamiyatdagi dengiz yo‘llari bo‘yida joylashgani bilan belgilanadi. Arabiston yarimoroli qadimgi ... joylashganligi sababli

relyefida ... va ... asosiy o‘rin egallaydi. Iqlimi ..., yil bo‘yi ... va ... . Yozda kunduzi havo harorati odatda ...dan yuqori bo‘ladi, kechasi esa ...gacha tushishi mumkin. Yillik yog‘in miqdori ...ga yetmaydi. Mintaqa davlatlarida aholining tabiiy o‘sishi nisbatan ... emas. Ummonda bu ko‘rsatkich yiliga ... atrofida, qolgan davlatlarda esa ... ga teng. Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari iqtisodiy rivojlanishning ... darajasi bilan ajralib turadi. Energiya manbalari bilan yaxshi ta’minlangani hisobiga mintaqa davlatlarida ... va ..., ... sanoati rivojlanmoqda. An’anaviy ravishda asosiy qishloq xo‘jalik ekini ... hisoblanadi. Mintaqa davlatlarida ..., ... va ... ham yaxshi rivojlanmoqda.

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan baholanadi.

47-§. Umumlashtiruvchi dars

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
“Osiyo mamlakatlari” bobida o‘tilgan mavzularning tayanch mazmuniga doir topshiriqlarni bajarishni o‘rganish; amaliy ko‘nikmalarni va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, daftar.	O‘quvchilar Osiyo davlatlarining iqtisodiy-geografik o‘rni va tabiiy sharoitini baholay oladi; qit’a davlatlari xo‘jaligining rivojlanish xususiyatlari va unga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qila oladi.
ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati	10.1.8.1. Jahon xo‘jaligi tarmoqlar va hududiy tarkibini, uning o‘zgaruvchanligini tushunadi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	O‘quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida xaritadan ayrim davlatlar nomini aniqlashda vaqtdan unumli foydalanish bo‘yicha muammolarga duch kelishi mumkin.	
Tavsiya	Guruhlarda ishlashni samarali tashkil etish maqsadida bajariladigan ishlar ketma-ketligi va guruh a’zolari o‘rtasida ishni taqsimlash bo‘yicha o‘quvchilarga kerakli tushuntirishlarni berib borish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi mashqlardan foydalanish mumkin:

“Farqini top” mashqi

Quyidagi ma’lumotlar qaysi davlatlarga tegishli ekanini toping.

- Davlat tuzumida mutlaq va konstitutsion monarxiya elementlari uyg‘unlashgan.
- Fors qo‘ltig‘idagi kichik orollarda joylashgan.
- Aholisi tarkibida ibodiy musulmonlari ko‘pchilikni tashkil etadi.
- Maydoni 17,8 ming km^2.
- Aholisi 2,8 mln kishi (2020-y).
- Aholisi tarkibida xorijiy ishchilar ulushi 30 % ni tashkil etadi.
- Poytaxti Doha shahri.
- Aholisi tarkibida xorijiy ishchilar ulushi 90 % ga yaqin.
- Maydoni 2149,7 ming km^2.
- Aholisi tarkibida shia musulmonlari ko‘pchilikni tashkil qiladi.
- Aholisining yillik tabiiy o‘sishi 2 % atrofida.

“Tafakkur” mashqi

Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qiling.

Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar	
Ijobiy tomondan	Salbiy tomondan

III bosqich. Amaliy topshiriqlarni bajarish

Topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi. Bunda har qaysi guruhda iqtidorli o‘quvchilar va boshqa o‘quvchilarning teng taqsimlanishiga ahamiyat beriladi. O‘qituvchi har bir guruhda topshiriqlarning qanday bajarilishini kuzatib, zarur vaqtlarda o‘quvchilarga tegishli ko‘rsatmalarni berib turadi. Topshiriq bajarib bo‘lingach, uni tekshirib, o‘quvchilarga harakati va erishgan natijasiga muvofiq turli rangdagi rag‘bat kartochkalarini berib borishi tavsiya etiladi.

Darslikda berilgan tegishli topshiriqlarning javoblari:

1-topshiriq

Davlatlar	Jahon bo‘yicha egallagan o‘rni				
	I	II	III	IV	Yetakchi 10 talikka kiradi
Qozog‘iston	Uran qazib chiqarishda				Hududining kattaligi bo‘yicha, ko‘mir, mis, rux qazish hajmi bo‘yicha
Turkmaniston				Tabiiy gaz zaxiralari bo‘yicha	Tabiiy gaz qazish va eksport qilish bo‘yicha
Turkiya					Xorijiy sayyohlarni qabul qilish bo‘yicha
Koreya Respublikasi	Kemalar ishlab chiqarish bo‘yicha				Cho‘yan, rux, qo‘rg‘oshin eritish, yengil avtomobillar, polimer mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha (*yetakchi 5 talikka kiradi*), eksport hajmi bo‘yicha

Yaponiya	Yod zaxiralari bo‘yicha, aholi yosh tarkibida qariyalar ulushiga ko‘ra			YIM hajmiga ko‘ra	

Hindiston	I o‘rinda	Aholisi milliy tarkibining xilmaxilligi bo‘yicha
	II o‘rinda	Aholisi soni bo‘yicha, ekin maydonlari kattaligiga ko‘ra, sug‘oriladigan maydonlar hajmiga ko‘ra
	III o‘rinda	YIM hajmiga ko‘ra
	Yetakchi 10 talikka kiradi	Ko‘mir va temir rudalari, osh tuzini qazishda, po‘lat, cho‘yan, mis, alyuminiy eritishda, sement, ip-gazlama, poyabzal ishlab chiqarishda (*yetakchi 5 talikka kiradi*), sholi, bug‘doy, kartoshka, shakarqamish, yeryong‘oq, sabzavot, meva, paxta, choy, murch, turli dorivor ekinlar yetishtirish bo‘yicha (*yetakchi 3 talikka kiradi*), maydoni bo‘yicha
Xitoy	I o‘rinda	Aholisi va mehnat resurslari soniga ko‘ra, YIM hajmi bo‘yicha, gidroenergetika resurslari hajmiga ko‘ra, ko‘mirni qazib olish, elektr energiyasini ishlab chiqarish, po‘lat, cho‘yan, alyuminiy, mis, rux, qo‘rg‘oshin, nikel, oltin hamda boshqa qora va rangli metallarni eritish, avtomobil, turli elektrotexnika va elektronika mahsulotlari, ammiak, mineral o‘g‘itlar, sement, qog‘oz, gazlamalar, kiyim-kechak, poyabzal mahsulotlarini ishlab chiqarishda, bug‘doy, sholi, kartoshka, sabzavot, meva, poliz mahsulotlari, uzum, choy, yeryong‘oqning yalpi hosili, qo‘y, echki, cho‘chqa, parranda bosh soni, go‘sht, jun, tuxum, asal tayyorlash, baliq ovlash hajmi bo‘yicha
	II o‘rinda	Makkajo‘xori yetishtirish bo‘yicha
	III o‘rinda	Hududining kattaligi bo‘yicha, shakarqamish yetishtirish bo‘yicha

2-topshiriq

I variant

1. a 2. d 3. d 4. b

II variant

1. a 2. b 3. e 4. e

3-topshiriq

Xaritada belgilanishi	Davlat nomi	Davlatlarga mos tushuncha va nomlar	Izoh
A	Turkmaniston	“Avaza”	Kaspiy dengizi sohilida barpo etilgan yirik turistik zona.
B	Hindiston	Nikobar	Hindistonga tegishli orollar.
D	Ummon	Ibodiy musulmonlari	Ummon aholisi diniy tarkibida ko‘pchilikni tashkil etadi.
E	Xitoy	“Uch dara”	Xitoyning Yanszi daryosida qurilgan dunyodagi eng yirik GES.
F	Turkiya	Sharqiy Frakiya	Turkiyaning Bolqon yarimorolida joylashgan Yevropa qismi.
G	Tojikiston	Norak	Vaxsh daryosida qurilgan, Tojikiston uchun alohida iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan GES.

H	Pokiston	Karachi	Pokistondagi eng yirik shahar.
I	Koreya Respublikasi	yangi industrial mamlakat	Koreya Respublikasida 1980-yillardan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish ayniqsa sanoat sohasida ko‘zga tashlangani uchun u yangi industrial (sanoatlashgan) mamlakatlar guruhiga kiritiladi.
J	Eron	Oyatullo	Davlat boshlig‘i – Oliy rahbar, shia musulmonlarining oliy martabali ruhoniysi.
K	Afg‘oniston	Hirot	Afg‘onistondagi yirik shaharlardan biri.
L	Saudiya Arabistoni	Makka	Butun dunyo musulmonlari uchun muqaddas shaharlardan biri.
M	Yaponiya	“Sinkansen”	Yaponiyaning asosiy shaharlarini bog‘laydigan tezyurar poyezdlar.
N	Qirg‘iziston	Issiqko‘l	Qirg‘izistondagi eng katta va muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘l.
O	Qozog‘iston	Balxash	Qozog‘istondagi eng katta ko‘llardan biri. Mamlakatda tog‘-metallurgiya kombinati qurilgan shu nomdagi shahar ham mavjud.

IV bosqich. **Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)**

Amaliy topshiriqlar bajarib bo‘lingach, o‘quvchilar bilan mashg‘ulot jarayonida erishilgan natijalar, darsda qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

V bosqich. **Baholash va uyga vazifa**

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda dars jarayonidagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari baholanadi va uyga vazifa beriladi.



7-BOB. AFRIKA, AVSTRALIYA VA OKEANIYA, AMERIKA MAMLAKATLARI

48-§. Afrikaning geografik o‘rni, siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Afrikaning maydoni, chegaralari, geografik o‘rni, siyosiy xaritasi shakllanishidagi asosiy bosqichlar va o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo‘lish; qit’aning hozirgi siyosiy xaritasini o‘rganish; Afrika tabiiy sharoitining o‘ziga xos xususiyatlari va tabiiy boyliklarining asosiy turlarini bilish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, daftar.	Afrika siyosiy xaritasining shakllanishiga ta’sir etgan asosiy omillar hamda qit’aning hozirgi siyosiy xaritasini tahlil qila oladi; siyosiy xaritadan Afrika davlatlarini ko‘rsata oladi; qit’a tabiiy sharoitining o‘ziga xos xususiyatlari va tabiiy resurslarining asosiy turlarini tavsiflaydi.
ISK2. Tabiiy resurslar va geologik savodxonlik **ISK7. Inson va tabiatning o‘zaro munosabatlari**	10.1.2.1. Dunyo tabiiy resurslarining hududiy tarqalishi joyning geologik tuzilishiga bog‘liq ekanini biladi; 10.1.7.1. Tabiatdan foydalanishning oqilona va nooqilona shakllarini farqlaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi; 10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Afrika mamlakatlari tabiiy sharoitining o‘ziga xos jihatlari va tabiiy resurslarining tarqalish xususiyatlarini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.	

Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. Bilimlarni faollashtirish

Bilimlarni faollashtirish uchun savol-javob usulidan foydalanish mumkin.

1. Afrika qanday geografik xususiyatlari bo‘yicha boshqa qit’alardan ajralib turadi?
2. Afrika qaysi foydali qazilmalar zaxiralari bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinlarni egallaydi?
3. Afrikada nechta mustaqil davlat mavjud?
4. Afrika davlatlarida boshqaruvning qaysi shakli keng tarqalgan?
5. Afrikadagi aksariyat davlatlar uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning qanday ko‘rsatkichlari xos?

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Afrikaning maydoni, geografik o‘rni, chegaralari tavsiflanadi;
- qit’a siyosiy xaritasining shakllanishi va undagi so‘nggi o‘zgarishlar “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari orqali tushuntiriladi;
- Afrika davlatlarining geografik o‘rniga ko‘ra tasniflanishi “Tushuntirish” va “Taqqoslash” metodlari orqali bayon etiladi;
- qit’a davlatlarining boshqaruv shakli va davlat tuzilishi bo‘yicha tasniflanishi “Savol-javob” va “Hikoya” metodlari orqali tavsiflanadi;
- Afrika tabiiy sharoitining o‘ziga xos xususiyatlari va tabiiy boyliklarining asosiy turlari “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari orqali yoritiladi.

IV bosqich. Yangi bilimlarni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usullarni ham qo‘llash mumkin:

“Juftini top” o‘yini

Afrika qit’asiga oid quyidagi ma’lumotlarni juftlang.

1	Orol mamlakatlar soni	a	2 ta
2	Aholisi	b	17 ta
3	1914-yilda mustaqil davlatlar soni	d	17,2 %
4	Maydoni	e	51 ta
5	Quruqlik ichkarisida joylashgan davlatlar soni	f	54 ta
6	Respublika boshqaruv shakliga ega davlatlar soni	j	3 ta
7	Qit’a aholisining jahon aholisi sonidagi ulushi	h	30,3 mln km^2

8	Mustaqil davlatlar soni	i	6 ta
9	Monarxiya boshqaruv shakliga ega davlatlar soni	k	16 ta
10	1960-yili mustaqillikka erishgan davlatlar soni	g	1,34 mlrd kishiga yaqin

To‘g‘ri javob: *1–i; 2–g; 3–a; 4–h; 5–k; 6–e; 7–d; 8–f; 9–j; 10–b.*

“Xarita bilan ishlash” metodi

Quyidagi xaritalarni tahlil qiling.







V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

“Asosli zanjir” o‘yini

Bunda mavzu bilan bog‘liq geografik obyektlar nomlari zanjir ketma-ketligida yoziladi. Ushbu usul kichik guruhlar bilan ishlashda yaxshi samara beradi.

					A				N				
				E	F	i	o	p	I	y	a		
		M	i	s	R				G	a	b	o	n
	J	a	z	o	I	r		L	E	s	o	t	o
		l			K				R				
		i		G	A	i	t	i					

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari baholanadi. Darslikning “Savol va topshiriqlar” ruknidagi vazifalar uyda bajarish uchun beriladi.

49-§. Afrika mamlakatlarining aholisi va xo‘jaligi

Darsning maqsadi	Ta'lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Afrika aholisining soni, o‘sishi, joylashishi, tarkibi, urbanizatsiya darajasi va shaharlarini o‘rganish; Afrikaning dunyo xo‘jaligida tutgan o‘rni, qit’a mamlakatlarida ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va joylashuvining o‘ziga xosligi haqida tushunchaga ega bo‘lish; Afrika mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi jihatidan tasniflanishini o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, mavzu yuzasidan taqdimotlar, daftar.	Afrika aholisining soni, o‘sishi, joylashishi, tarkibi, urbanizatsiya darajasi va shaharlari to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘ladi; Afrikaning dunyo xo‘jaligidagi o‘rni, qit’a mamlakatlarida ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va unga ta’sir etuvchi omillarni anglab yetadi; Afrika mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi jihatidan turli mintaqalarga bo‘linishi va har qaysi mintaqa davlatlari xo‘jaligining asosiy jihatlarini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar **ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi. 10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, biologiya, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili, ona tili va adabiyot, tasviriy san’at.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar yordamida tushuntirilganda o‘quvchilar Afrika mamlakatlari aholisi joylashuvi va unga ta’sir etuvchi omillarni, qit’a davlatlari xo‘jaligi ixtisoslashuvi xususiyatlarini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

O‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar va ahamiyati bilan tanishtirish. Dunyo siyosiy maydonida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni qisqacha tahlil qilish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

Oldingi mavzuda o‘zlashtirilgan bilimlarni faollashtirish uchun o‘quvchilar kichik guruhlarga ajratilib, topshiriqlar beriladi. Sinfdagi o‘quvchilar sonidan kelib chiqqan holda har qaysi kichik guruh 4–6 nafar o‘quvchidan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq. Guruhlar o‘zaro bir-birini baholash tizimidan foydalansa, dars samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu jarayonda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:


“Blits so‘rov” usuli

Quyidagi savollarga tezkor javob bering.

1. “Afrika” so‘zi qaysi tildan olingan?
2. Afrika qaysi yarimsharlarda joylashgan?
3. Qaysi bo‘g‘iz Afrikani Yevropadan ajratib turadi?
4. Afrikadagi qaysi davlat bir necha ming yillik davlatchilik tarixiga ega?
5. Qachon BMT tomonidan “Afrika yili” deb e’lon qilingan?
6. “Afrika yili”da nechta davlat mustaqillikka erishgan?
7. Afrikaning hozirgi siyosiy xaritasida nechta mustaqil davlat mavjud?
8. Afrikadagi qaysi davlat Yevropadagi San Marino va Vatikan kabi “mitti” davlatlar singari anklav davlat hisoblanadi?
9. Saxel hududida qanday hodisa kuchayib bormoqda?
10. Afrika mustaqil davlatlar soni bo‘yicha qit’alar orasida nechanchi o‘rinda turadi?


“Klaster” metodi

Afrikaning Saxel o‘lkasidagi davlatlar nomini yozing.



“Tasniflash” usuli

Afrika davlatlarini quyidagi jihatlari bo‘yicha tasniflang.



III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- Afrika davlatlari aholisining soni, o‘sishi, joylashishi, tarkibi, urbanizatsiya darajasi va shaharlari hamda unga ta’sir etuvchi omillar “Savol-javob” va taqqoslash metodlari orqali tushuntiriladi;
- qit’a davlatlarining dunyo xo‘jaligida tutgan o‘rni, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va joylashuvining o‘ziga xos jihatlari “Tushuntirish” va “Suhbat” metodlari orqali tavsiflanadi;
- Afrika mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi jihatidan tasniflanishi “Taqqoslash” va “Hikoya” metodlari orqali bayon etiladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa quyidagi usullarni ham qo‘llash mumkin:

Geografik masala:

Darslik ilovasidagi ma’lumotlardan foydalanib Liviya, Madagaskar, Kongo Demokratik Respublikasi, Senegal, Janubiy Sudan davlatlari aholisining hududlarga nisbatan o‘rtacha zichligini aniqlang.

“Xarita bilan ishlash” metodi

Quyidagi xaritadan foydalanib Afrikadagi aholisi islom, xristianlik va mahalliy dinlarga e’tiqod qiluvchi davlatlarga misollar yozing.



Asosan islom diniga e'tiqod qiluvchi aholi yashaydigan davlatlar	•_____ •_____
Asosan xristianlik diniga e'tiqod qiluvchi aholi yashaydigan davlatlar	•_____ •_____
Asosan mahalliy dinlarga e'tiqod qiluvchi aholi yashaydigan davlatlar	•_____ •_____

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Mashg‘ulotdan so‘ng o‘quvchilar maqsadga qanchalik erishganlarini aniqlash uchun **“Svetofor”** metodidan foydalanish mumkin. Bunda har bir o‘quvchi sariq, yashil va qizil rangdagi doira shaklidagi to‘plamni oladi va biror rangni tanlaydi:

Yashil, agar o‘quvchi maqsadga va kutilgan natijaga erishganiga to‘liq ishonch hosil qilsa.	**Sariq, agar o‘quvchi maqsadiga qisman erishganini his qilsa hamda ko‘proq ishlash kerak deb hisoblasa.**	**Qizil, agar o‘quvchi maqsadga qisman erishilgan yoki kutilgan natija umuman qo‘lga kiritilmagan deb hisoblasa.**

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlariga qarab baholanadi.

50-§. Janubiy Afrika Respublikasi

Darsning maqsadi	Ta'lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Janubiy Afrika Respublikasining geografik o‘rni, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslarini o‘rganish; mamlakat aholisi soni, tarkibi va zichligi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish; JAR xo‘jaligining xalqaro ixtisoslashgan sohalari va unga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish.	darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, daftar.	o‘quvchilar siyosiy xarita yordamida Janubiy Afrika Respublikasining iqtisodiy-geografik o‘rnini izohlay oladi; mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda ularning xo‘jalikdagi ahamiyatini anglab yetadi; JAR aholisi tarkibi, zichligi va unga ta’sir etuvchi omillarni tushuntiradi; mamlakat xo‘jaligi va tashqi iqtisodiy aloqalarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar **ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilganda o‘quvchilar Janubiy Afrika Respublikasi aholisi joylashuvi va mamlakat xo‘jaligi ixtisoslashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi metoddan foydalanish mumkin:

“T–sxema” metodi

Shimoliy Afrika va Tropik Afrika aholisiga qiyosiy tavsif bering.

Shimoliy Afrika aholisi	Tropik Afrika aholisi

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Janubiy Afrika Respublikasining geografik o‘rni va chegaralari haqida ma’lumot beriladi. Bevosita Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatiga ega ekani mamlakat iqtisodiyotida qanday o‘rin tutishi izohlab o‘tiladi;
- mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Janubiy Afrika Respublikasi aholisi soni va ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar “Qiyosiy tahlil metodi orqali bayon etiladi. Bunda aholi tabiiy ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi hamda zichligini aniqlash usullarini eslatib o‘tish maqsadga muvofiq;
- mamlakat iqtisodiy salohiyati, sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari hamda uning xalqaro savdodagi ishtiroki “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi.

IV bosqich. Yangi bilimlarni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usullarni ham qo‘llash mumkin:

“Geografik domino” o‘yini

Janubiy Afrika Respublikasiga doir quyidagi so‘z va raqamlardan geografik domino tuzing hamda izohlang.


1. Keyptaun	2. Oliy sud	3. Intensiv qishloq xo‘jaligi	4. Blumfonteyn
5. Drakon, Kap	6. Pretoriya	7. Cho‘llari	8. Eng yirik
9. Oranj	10. Urbanizatsiya	11. Kalaxari, Namib	12. Eng yirik port shahri
13. Sharqida, janubida	14. 67 %	15. 15 %	16. Poytaxti

JAVOBI

1	*4*	*5*	*6*	*9*	*11*	*14*	*15*
⬇	⬇	⬇	⬇	⬇	⬇	⬇	⬇
12	*2*	*13*	*16*	*8*	*7*	*10*	*3*

Xotira mashqi

Darslikda berilgan ma'lumotlardan foydalanib quyidagi toponimlarni izohlang.



V bosqich. **Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)**

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so'ng dars boshida qo'yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O'quvchilarning mashg'ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko'nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o'qituvchi tomonidan baholanadi.

51-§. Nigeriya Federativ Respublikasi

Darsning maqsadi	Ta'lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Nigeriya Federativ Respublikasining geografik o'rni, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va uning tarkibi haqida ma'lumotga ega bo'lish; mamlakat xo'jaligi va uning xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlarini o'rganish.	Darslik, o'quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, daftar.	O'quvchilar siyosiy xarita yordamida Nigeriya Federativ Respublikasining iqtisodiy-geografik o'rnini izohlay oladi; mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda ularning xo'jalikdagi ahamiyatini anglab yetadi; Nigeriya aholisi va uning tarkibini tavsiflaydi; mamlakat xo'jaligining rivojlanish xususiyatlari va xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlarini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar; **ISK8. Inson xo'jalik faoliyati**	10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o'sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo'jaligining ixtisoslashuvi, unga ta'sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o'rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo'jaligi haqida ma'lumot oladi, ushbu ma'lumotlarni taqqoslaydi.	

Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, ona tili va adabiyot, algebra, chet tili.
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilganda o‘quvchilar Nigeriya Federativ Respublikasi aholisi joylashuvi va mamlakat xo‘jaligi ixtisoslashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan birga tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

“Ha yoki yo‘q” usuli

Quyidagi ma’lumotlarni tasdiqlang:

1. Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) Afrika qit’asining chekka g‘arbiy qismida joylashgan. (yo‘q)
2. JAR parlamenti Keyptaunda, Oliy sudi esa Blumfonteyn shahrida faoliyat ko‘rsatadi. (ha)
3. JARning sharqiy qismida Drakon tog‘lari, janubida esa Kap tog‘lari joylashgan. (ha)
4. JARning janubiy va markaziy qismlari Veld platosi bilan band, sharqiy rayonlari esa tekislik relyefi bilan ajralib turadi. (yo‘q)
5. JARdagi eng yirik daryo – Nil. (yo‘q)
6. Janubiy Afrika Respublikasi qit’a mamlakatlari orasida aholisi soni bo‘yicha 6-o‘rinda turadi. (ha)
7. JARning eng yirik shahri va iqtisodiy poytaxti – Keyptaun. (yo‘q)
8. JAR konstitutsiyasiga binoan, 11 ta til, jumladan, afrikaans, ingliz va mahalliy millatlarning 9 ta tili rasmiy maqomga ega. (ha)
9. JARda eng ko‘p tarqalgan din – islom. (yo‘q)
10. Qishloq xo‘jaligi suv resurslari taqchilligi tufayli JAR hududining 15 % idagina intensiv rivojlangan. (ha)

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:


- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Nigeriyaning geografik o‘rni va chegaralari haqida ma’lumot beriladi;
- mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Nigeriya aholisi soni va ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar “Suhbat” metodi orqali bayon etiladi. Bunda aholi tabiiy ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi hamda zichligini aniqlash usullarini eslatib o‘tish maqsadga muvofiq;
- mamlakat iqtisodiy salohiyati, sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari hamda uning xalqaro savdodagi ishtiroki “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi metodni ham qo‘llash mumkin:

“Xarita bilan ishlash” metodi


Nigeriyaning tabiiy xaritasidan foydalanib yozuvsiz xaritada raqamlar bilan qaysi geografik obyektlar ko‘rsatilganini toping.



JAVOBLARI: 1–Chad ko‘li, 2–Jas platosi, 3–Niger daryosi, 4–Benue daryosi, 5–Gvineya qo‘ltig‘i.

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)


Nigeriya Federativ Respublikasi mavzusiga oid ma’lumotlar asosida geokrossvordni bajaring.



SAVOLLAR

1. Asosiy foydali qazilmasi.
2. Qo‘ltiq nomi.
3. Eng yirik shahri.
4. Yirik daryosi.
5. Eng yirik millatlaridan biri.
6. 10 ta ……. shahar bor.
7. Asosiy qishloq xo‘jalik ekinlaridan biri.
8. Poytaxti.

JAVOBLAR:



Dars maqsadiga erishilganligi borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan baholanadi.

52-§. Misr Arab Respublikasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Misr Arab Respublikasining geografik o‘rni, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va uning tarkibi haqida ma’lumotga ega bo‘lish; mamlakat xo‘jaligi va uning xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlarini o‘rganish.	darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar siyosiy xarita yordamida Misr Arab Respublikasining iqtisodiy-geografik o‘rnini izohlay oladi; mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda ularning xo‘jalikdagi ahamiyatini anglab yetadi; Misr aholisi va uning tarkibini tavsiflaydi; mamlakat xo‘jaligining rivojlanish xususiyatlari va xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlarini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar; **ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Misr Arab Respublikasi aholisi joylashuvi va mamlakat xo‘jaligi ixtisoslashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)


Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar, ahamiyati bilan tanishtirish.


II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi metoddan foydalanish mumkin:

“Antivirus” metodi

Quyidagi ma’lumotlarni izohlab, ular orasidan Nigeriya Federativ Respublikasiga tegishli bo‘lmaganlarini o‘chiring.





www.idum.uz saytidan yuklab olindi

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Misr Arab Respublikasining geografik o‘rni va chegaralari haqida ma’lumot beriladi. Bevosita Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatiga ega ekani mamlakat iqtisodiyotida qanday o‘rin tutishi izohlab o‘tiladi;
- mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Misr Arab Respublikasi aholisi soni va ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar suhbat metodi orqali bayon etiladi;
- mamlakat iqtisodiy salohiyati, sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari hamda uning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi ishtiroki “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi o‘yinlarni ham qo‘llash mumkin:

“Juftini top” o‘yini

Jadvaldan mos juftliklarni toping.

Maydoni	*Qohira*
Aholisi	*Nil*
Poytaxti	*Agrar-industrial*
Yagona daryosi	*Islom*
Yirik suv ombori	*1-o‘rinda*
Aholisining 10% ga yaqin qismi e’tiqod qiladigan din	*100.8 mln kishi*
Ikki dengizni tutashtiradigan kanali	*Suvaysh*
Don ekinlari, sabzavot va mevalarning yalpi hosili bo‘yicha Afrika qit’asidagi o‘rni	*Arablar*
Iqtisodiyoti	*1001,4 ming km²*
Asosiy dini	*Asvon*
Aholisining etnik tarkibida ko‘pchilikni tashkil qiladi	*Xristian*

1-topshiriqning javobi

Maydoni	*1001,4 ming km²*
Aholisi	*100.8 mln kishi*
Poytaxti	*Qohira*
Yagona daryosi	*Nil*
Yirik suv ombori	*Asvon*

Aholisining 10% ga yaqin qismi e’tiqod qiladigan din	*Xristian*
Ikki dengizni tutashtiradigan kanali	*Suvaysh*
Don ekinlari, sabzavot va mevalarning yalpi hosili bo‘yicha Afrika qit’asidagi o‘rni	*1-o‘rinda*
Iqtisodiyoti	*Agrar-industrial*
Asosiy dini	*Islom*
Aholisining etnik tarkibida ko‘pchilikni tashkil qiladi	*Arablar*

“She’riy topishmoq” usuli

Quyidagi she’riy topishmoqning javobini toping.
Nil daryosi bo‘yida
Sath o‘lchovchi asbob bor.
Ming yillar o‘tsa hamki,
Qizig‘i, ishga tayyor.
Bu asbobni Misrda
Qurgan vatandoshimiz,
Nomini eslab boqing,
Deymiz bu al-_____(Farg‘oniy).

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan baholanadi.

53-§. Amaliy mashg‘ulot

Afrikaning siyosiy xaritasi, tabiiy va iqtisodiy-geografik sharoitini o‘rganish

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Afrika siyosiy xaritasi, qit’a mamlakatlari aholisi, xo‘jaligining xalqaro ixtisoslashuvi va jahon iqtisodiyotidagi o‘rniga oid nazariy bilimlarni mustahkamlash; xarita, jadval va grafiklar bilan ishlashni o‘rganish; amaliy ko‘nikmalari va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, daftar.	O‘quvchilar Afrika mamlakatlarining ixtisoslashuvi xususiyatlarini va ularning jahon xo‘jaligidagi o‘rnini anglab yetadi; qit’a davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qila oladi.

ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati	10.1.8.2. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi jihatidan tasniflanishini tushunadi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, algebra, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.
Ehtimoliy muammo	O‘quvchilar topshiriqlarni bajarish jarayonida xaritadan ayrim davlatlar nomini aniqlashda vaqtdan unumli foydalanish borasida muammolarga duch kelishi mumkin.
Tavsiya	Guruhlarda ishlashni samarali tashkil etish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligi va guruh a’zolari o‘rtasida ishni taqsimlash bo‘yicha o‘quvchilarga kerakli tushuntirishlarni berib borish zarur.

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:


“To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri” mashqi

Quyidagi ma’lumotlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ko‘rsating.

Ma’lumotlar	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
Misrda shahar aholisi ulushi Shimoliy Afrikaning boshqa davlatlariga nisbatan yuqori darajada.		
Nilda jahondagi eng yirik suv omborlaridan biri – Asvon suv ombori barpo etilgan.		
Misr hududi asosan yassi tog‘liklar va pasttekisliklardan iborat.		
Misr Afrika mamlakatlari orasida don ekinlari, sabzavot va mevalarning yalpi hosili bo‘yicha 2-o‘rinni egallaydi.		
Misr aholisi etnik tarkibida arablar ko‘pchilikni tashkil qiladi.		
Misrda chorvachilikning asosiy tarmog‘i tuyachilik va yilqichilik hisoblanadi.		
Misr poytaxti Qohira shahri mamlakat shimolida, Nil deltasida joylashgan.		

“Klaster” metodi

Misrning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflang.



III bosqich. Amaliy topshiriqlarni bajarish

Topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi. Bunda har qaysi guruhda iqtidorli o‘quvchilar va boshqa o‘quvchilarning teng taqsimlanishiga ahamiyat beriladi. O‘qituvchi har bir guruhda topshiriqlarning qanday bajarilishini kuzatib, zarur vaqtlarda o‘quvchilarga tegishli ko‘rsatmalar beradi. Topshiriq bajarib bo‘lingach, uni tekshirib, o‘quvchilarga harakati va erishgan natijasiga muvofiq turli rangdagi rag‘bat kartochkalarini berib borish tavsiya etiladi.

Darslikda berilgan tegishli topshiriqlarning javoblari:

1-topshiriq

A) JAR; B) Jazoir; D) Angola; E) Efiopiya; F) Niger; G) Mavritaniya; H) Chad; I) Misr.

Ushbu davlatlarning umumiy jihati Afrika qit’asidagi maydoni 1 mln km² dan katta davlatlar ekanidir. Qit’ada bu kabi yirik maydonga ega davlatlar soni jami 12 ta bo‘lib, yuqoridagilardan tashqari KDR, Sudan, Liviya hamda Mali davlatlari ham shu guruhga mansub.

2-topshiriq

Davlatlar	Maydoni, ming km²	Aholisi, mln kishi	Aholi zichligi, kishi/km²
Chad	1284	16,9	*13*
Keniya	582,6	53,5	*92*
Angola	1246,7	32,5	*26*
Senegal	196,2	16,7	*85*

3-topshiriq

Misr – Marokash; Botsvana – Mavrikiy; Mavritaniya – Ruanda.

4-topshiriq

Afrika mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar:

Ijobiy tomondan	Salbiy tomondan
Issiqlik resurslari bilan yetarli darajada ta’minlangani, qit’aning ko‘plab davlatlari mineral resurslarning ulkan zaxiralariga ega ekani, arzon ishchi kuchiga boyligi hisobiga ko‘p mehnat talab qiladigan ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollarining yuqori ekani, tabiatining betakrorligi hisobiga xalqaro turizmni jadal rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligi.	Ko‘p mamlakatlarda suv resurslarining yetishmasligi, hozirgacha turli harbiy mojarolar va etnik ziddiyatlar tez-tez sodir bo‘lib turishi, ichki kontinental davlatlarning ko‘pligi, ayrim davlatlarda cho‘llashish jarayonining kuchayib borayotgani, ishlab chiqarishning texnik va texnologik qoloqligi, ko‘plab davlatlar qishloq xo‘jaligida o‘simlik yakka-hokimligining saqlanib qolgani.

5-topshiriq

1. b, e, j. 2. d, f, h. 3. a, g, i.

IV bosqich. **Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)**

Amaliy topshiriqlar bajarib bo‘lingach, o‘quvchilar bilan mashg‘ulot jarayonida erishilgan natijalar, darsda qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

V bosqich. **Baholash va uyga vazifa**

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda dars jarayonidagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari baholanadi va uyga vazifa beriladi.

54-§. Avstraliya Ittifoqi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Avstraliya Ittifoqining geografik o‘rni, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi, xo‘jaligi va tashqi iqtisodiy aloqalarini o‘rganish.	darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	Avstraliya Ittifoqi iqtisodiy-geografik o‘rnini izohlay oladi; mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda ularning xo‘jalikdagi ahamiyatini anglaydi; Avstraliya Ittifoqi xo‘jaligi va tashqi iqtisodiy aloqalarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar **ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Adabiyot, jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, chet tili, algebra.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Avstraliya Ittifoqi aholisi joylashuvi va mamlakat xo‘jaligi ixtisoslashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. **Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)**

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. **Bilimlarni faollashtirish**

Bilimlarni faollashtirish uchun savol-javob usulidan foydalanish mumkin.

1. “Avstraliya” so‘zining ma’nosi nima?
2. Nima uchun Avstraliyaga materik-orol deb nisbat berishadi?
3. Sizningcha, Avstraliya geografik o‘rnining asosiy xususiyati nima?
4. Avstraliya iqlimi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

5. Avstraliyada qaysi tabiat zonalari keng tarqalgan?
6. Avstraliyadagi endemik o‘simlik va hayvonlardan qaysilarini bilasiz?
7. Avstraliyaning asosiy foydali qazilmalariga nimalar kiradi?
8. Avstraliyaning mashhur shaharlaridan qaysilarini bilasiz?

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Avstraliya Ittifoqining geografik o‘rni va chegaralari haqida ma’lumot beriladi. Butun materikni to‘liq egallagan dunyodagi yagona davlat ekani, bevosita Dunyo okeaniga chiqish imkoniyati mamlakat iqtisodiyotida qanday o‘rin tutishi izohlab o‘tiladi;
- mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Avstraliya Ittifoqi aholisi soni va ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar “Savol-javob” va “Taqqoslash” metodlari orqali bayon etiladi;
- mamlakat iqtisodiy salohiyati, sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari hamda uning xalqaro savdodagi ishtiroki “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi.


IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usulni ham qo‘llash mumkin:

“To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri” mashqi

Darslikda berilgan ma’lumotlardan foydalanib quyidagi ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini toping va javoblaringizni izohlang.

1. Avstraliya qirg‘oqlari shimol, g‘arb va janubdan Hind okeani, uning dengiz va qo‘ltiqlari, sharqdan esa Tinch okean dengizlari suvlari bilan yuviladi. (to‘g‘ri)
2. Avstraliya maydoni jihatidan jahonda 9-o‘rinda turadi. (noto‘g‘ri, 6-o‘rinda)
3. Avstraliyaning eng baland nuqtasi – Kilimanjaro cho‘qqisi (2228 metr) bo‘lib, Katta Suvayirg‘ich tizmasida joylashgan. (noto‘g‘ri, Kossyushko cho‘qqisi)
4. Avstraliya Ittifoqi Britaniya Hamdo‘stligi qirolligi hisoblanib, uning rasmiy davlat rahbari Buyuk Britaniya hukmdori hisoblanadi. (to‘g‘ri)
5. Avstraliyaning asosiy daryosi Murrey va uning irmog‘i Darlingning suvi mavsumlar bo‘yicha keskin o‘zgarib turadi. (to‘g‘ri)
6. YIMning hajmi jihatidan Avstraliya jahonning yetakchi 20 ta davlat qatoriga kiradi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YIM miqdori esa aksariyat Yevropa davlatlaridan ham yuqori. (to‘g‘ri)
7. Avstraliyaning jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini ko‘p jihatdan kimyo sanoati belgilaydi. (noto‘g‘ri, tog‘-kon va yoqilg‘i sanoati)
8. Avstraliya jahonda qo‘ylar soni va jun ishlab chiqarish bo‘yicha 1-o‘rinda, jun eksporti bo‘yicha esa 2-o‘rinda turadi. (noto‘g‘ri, Avstraliya jahonda qo‘ylar soni va jun ishlab chiqarish bo‘yicha 2-o‘rinda, jun eksporti bo‘yicha esa 1-o‘rinda turadi)
9. Avstraliyaning 2 ta eng yirik shahri – Sidney va Melburn. (to‘g‘ri)
10. Avstraliyada urbanizatsiya darajasi 86% ga teng. (to‘g‘ri)



SAVOLLAR

1. Murrey daryosining irmog‘i.
2. Avstraliya tabiatining eng katta kamchiligi … resurslarining taqchilligidir.
3. Avstraliyaning 2 ta eng yirik shahridan biri.
4. Avstraliya qirg‘oqlarini sharqdan yuvib turadigan okean.
5. Avstraliyaning asosiy daryosi.
6. Avstraliya poytaxti.
7. Avstraliyaning 2 ta eng yirik shahridan biri.
8. Avstraliyaning tub aholisi nomi.
9. Avstraliya chorvachiligining asosiy tarmoqlaridan biri.
10. Avstraliyaning hozirgi aholisi shakllanishidagi asosiy omil.

Javobi

1	D	A	R	L	I	N	G	
2	S	U	V					
3		S	I	D	N	E	Y	
4		T	I	N	CH			
5	M	U	R	R	E	Y		
6	K	A	N	B	E	R	R	A
7	M	E	L	B	U	R	N	
8	A	B	O	R	I	G	E	N
9	Q	O‘	Y	CH	I	L	I	K
10	M	I	G	R	A	T	S	I	Y	A

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

O‘quvchilarga ushbu krossvord beriladi, topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalar hamda jarayondagi umumiy faollik va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan baholanadi.

55-§. Amerikaning siyosiy xaritasi

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Amerika qit’asining geografik o‘rni, siyosiy xaritasi va uning shakllanishi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi; qit’aning Shimoliy va Lotin Amerikasi mintaqalariga bo‘linishini o‘rganadi.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	Amerika qit’asining geografik o‘rni, siyosiy xaritasi va uning shakllanishini izohlaydi; qit‘aning Shimoliy Amerika va Lotin Amerikasi mintaqalariga bo‘linishi sabablarini tahlil qila oladi.
ISK9. Geosiyosiy tizim va jarayonlar	10.1.9.1. Dunyoning siyosiy xaritasi, uning tuzilishini hamda o‘zgarib borish xususiyatini tushunadi.	

AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish; **AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash**	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, chet tili, algebra, informatika va axborot texnologiyalari.
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Amerika qit’asi davlatlari tabiiy sharoitining o‘ziga xos jihatlari va unga ta’sir etuvchi omillarni yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun siyosiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)


Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi metoddan foydalanish mumkin:

“Xarita bilan ishlash” metodi

Quyidagi xarita yordamida Avstraliya aholisi zichligini hududlar kesimida tahlil qiling va mamlakat aholisi joylashuvidagi tafovutlarni izohlang.



Aholi zichligi	Hududlar
100,0 dan ko‘p	
10,1–100,0	
1,1–10,0	
0,1–1,0	
0,1 dan kam	

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Amerika qit’asining geografik o‘rni, Shimoliy va Janubiy Amerika materiklari chegarasi to‘g‘risida ma’lumot beriladi;
- Amerika qit’asining siyosiy xaritasi, uning shakllanishi va hozirgi holati “Tushuntirish” va “Savol-javob” metodlari orqali tavsiflanadi;
- qit’aning Shimoliy Amerika va Lotin Amerikasi mintaqalariga bo‘linishi hamda qit’a davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari orqali izohlab o‘tiladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi usulni ham qo‘llash mumkin:

“Tasniflash” usuli

Amerika qit’asi davlatlarini tasniflang.



Shimoliy Amerika materigida joylashgan davlatlar

- _____
- _____



Janubiy Amerika materigida joylashgan davlatlar

- _____
- _____



Lotin Amerikasi davlatlari

- _____
- _____

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilganidan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, ko‘nikma, malakalari, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan baholanadi.

56-§. Amerika Qo‘shma Shtatlari

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Amerika Qo‘shma Shtatlarining maydoni, chegaralari, geografik joylashishining o‘ziga xos xususiyatlari, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va uning zichligi, urbanizatsiya darajasi va yirik shaharlarini o‘rganish.	darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	Amerika Qo‘shma Shtatlari geografik joylashuvining o‘ziga xos xususiyatlarini izohlay oladi; mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda ularning xo‘jalikdagi ahamiyatini tushunadi; AQSh aholisi va urbanizatsiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar	10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, davlat va huquq asoslari, chet tili, algebra.	

Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Amerika Qo‘shma Shtatlari aholisi joylashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

“Raqamlarni top” usuli

Jadvalda berilgan ma’lumotlarda tushirib qoldirilgan raqamlarni toping.

	Javobi:
Amerika qit’asi _____-yili ispan dengizchisi Xristofor Kolumb ekspeditsiyasi tomonidan kashf qilingan.	**1492**
Amerikaning zamonaviy siyosiy xaritasida ____ ta mustaqil davlat mavjud.	**35**
Qit’adagi _____ ta mamlakat dunyoning 10 ta eng yirik davlatlari qatoridan joy olgan.	**4**
Amerikadagi ____ ta davlat maydoni 1 ming km^2 dan kam.	**7**
Qit’ada faqatgina ____ ta davlat dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas.	**2**
Karib dengizi va Atlantika okeanining unga tutash qismida jami ___ ta orol davlat joylashgan.	**13**
Amerikada ____ ta konstitutsion monarxiya davlati mavjud.	**9**
Amerikada ____ ta federativ davlat joylashgan.	**7**

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Amerika Qo‘shma Shtatlarining maydoni, chegaralari, geografik joylashuvining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi;
- mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Amerika Qo‘shma Shtatlari aholisi soni va ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar “Suhbat” metodi orqali bayon etiladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi metodni ham qo‘llash mumkin:


“Xarita bilan ishlash” metodi


Quyidagi xaritada raqamlar bilan qaysi tabiiy geografik obyektlar ko‘rsatilganini toping.



1. Buyuk ko‘llar
2. Appalachi tog‘i
3. Kordilyera tog‘i
4. Missisipi daryosi
5. Qoyali tog‘lari

AQSHning ma’muriy-hududiy tuzilishi va aholi zichligi xaritalaridan foydalanib aholi eng zich joylashgan hududlarni aniqlang va uning sababini izohlashga harakat qiling.





V bosqich. **Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)**

Darsda qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. **Baholash va uyga vazifa**

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan baholanadi.

57-§. AQSH xo‘jaligi va iqtisodiy rayonlari

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Amerika Qo‘shma Shtatlari sanoatining asosiy tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi, transport tizimi, turizmi, iqtisodiy rayonlarini o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	Amerika Qo‘shma Shtatlari sanoatining asosiy tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi va transport tizimi, turizmini tavsiflaydi; mamlakat xo‘jaligining jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rnini tahlil qila oladi.
ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati	10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	

AK3. Geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash	10.2.3.1. Davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlarning nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.
Fanlararo bog‘lanish	Biologiya, kimyo, chet tili, algebra, informatika va axborot texnologiyalari.
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Amerika Qo‘shma Shtatlari xo‘jaligi ixtisoslashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin:

"Teskari test" usuli

Quyidagi javob variantlariga mos test savollarini tuzing.

1. .....
A) 1-o‘rinda B) 3-o‘rinda D) 2-o‘rinda E) 4-o‘rinda

2. .....
A) Atlantika, Tinch va Shimoliy Muz okeaniga
B) Atlantika, Hind va Shimoliy Muz okeaniga
D) Hind, Tinch va Shimoliy Muz okeaniga
E) Atlantika, Tinch, Hind va Shimoliy Muz okeaniga

3. .....
A) 82% B) 46% D) 35% E) 59%

4. .....
A) BosVash B) Sansan
D) ChiPits E) Nyu York

5. .....
A) Ajal vodiysi B) Denali cho‘qqisi
D) Buyuk ko‘llar E) Missisipi

6. .....
A) 82 B) 46 D) 35 E) 59

7. .....
A) Alyaska B) Gavayi
D) Arizona E) Texas

8. .....
A) BosVash B) Sansan
D) ChiPits E) Nyu York

9. .....
A) 1-o‘rinda B) 2-o‘rinda D) 3-o‘rinda E) 4-o‘rinda

10. .....
A) BosVash B) Sansan
D) ChiPits E) Nyu York

To‘g‘ri javoblar:

1. Amerika Qo‘shma Shtatlari jahon mamlakatlari orasida aholisi soni bo‘yicha nechanchi o‘rinda turadi?
2. AQSH qaysi okeanlarga chiqish imkoniyatiga ega?
3. AQSHda shahar aholisining ulushi, 2020-yil ma’lumotiga ko‘ra, necha % ni tashkil etadi?
4. Buyuk ko‘llar bo‘yida hosil bo‘lgan megalopolis nima deb ataladi?

5. Shimoliy Amerika materigining eng past nuqtasi bu –...
6. AQSHda aholi zichligining o‘rtacha ko‘rsatkichi 1 km^2 ga necha kishi?
7. AQSHning 50-shtati nomi nima?
8. AQSH hududining Tinch okean bo‘yida shakllangan megalopolisi nomi nima?
9. Amerika Qo‘shma Shtatlari jahon mamlakatlari orasida maydoni jihatidan nechanchi o‘rinda turadi?
10. AQSH hududining shimoli-sharqidagi megalopolis nima deb ataladi?

III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:


- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- AQSHning jahon iqtisodiyotiga kuchli ta’sir etishini ta’minlovchi omillar “Tushuntirish” va “Savol-javob” metodlari orqali tavsiflanadi;
- mamlakat sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari hamda uning xalqaro savdodagi ishtiroki “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi;
- AQSH transport tizimining rivojlanganligi va jahondagi mavqeyi taqqoslash metodi orqali bayon etiladi;
- mamlakatning jahon turizmida tutgan o‘rni va mazkur soha rivojiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar Savol-javob" va “Hikoya” metodlari asosida tahlil qilinadi;
- AQSHning yirik iqtisodiy rayonlarga bo‘linishi va ushbu rayonlar xo‘jalik ixtisoslashuvining o‘ziga xos jihatlari “Taqqoslash” metodi orqali yoritiladi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi metodni ham qo‘llash mumkin:

“Xarita bilan ishlash” metodi

AQSHning sanoat xaritasidan foydalanib mamlakat yirik iqtisodiy zonalarining sanoat ixtisoslashuviga tavsif bering.





Shimoli-Sharq
- .....
- .....

O‘rta G‘arb
- .....
- .....

Janub
- .....
- .....

G‘arb
- .....
- .....

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

VI bosqich. **Baholash va uyga vazifa**

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan baholanadi. Uyda bajarish uchun topshiriqlar beriladi.

58-§. Kanada

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Kanadaning maydoni, chegaralari, geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi, xo‘jaligi va tashqi iqtisodiy aloqalarini o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	O‘quvchilar Kanadaning iqtisodiy-geografik o‘rnini izohlay oladi; mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda ularning xo‘jalikdagi ahamiyatini anglaydi; Kanada xo‘jaligi va tashqi iqtisodiy aloqalarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar; **ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, biologiya, davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Kanada aholisi joylashuvi va mamlakat xo‘jaligi ixtisoslashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. **Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)**


Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. **O‘tilgan mavzuni mustahkamlash**

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi metoddan foydalanish mumkin:

“Venn diagrammasi” metodi

AQSh va Kanada davlatlarining o‘xshash va farqli jihatlarini tavsiflang.



III bosqich. Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:


- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;
- dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Kanadaning geografik o‘rni va chegaralari haqida ma’lumot beriladi. Bevosita Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatiga ega ekani mamlakat iqtisodiyotida qanday o‘rin tutishi izohlab o‘tiladi;
- mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;
- Kanada aholisi soni va ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar “Suhbat” metodi orqali bayon etiladi;
- mamlakat iqtisodiy salohiyati, sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari hamda uning xalqaro savdodagi ishtiroki Savol-javob" va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi metodni ham qo‘llash mumkin:

Xarita bilan ishlash metodi

Quyidagi xaritada raqamlar bilan belgilangan geografik obyektlar nomini toping.



A) Kanada-Arktika arxipelagi
B) Baffin yeri oroli
D) Grenlandiya oroli
E) Buyuk ko‘llar
F) Gudzon qo‘ltig‘i
G) Kordilyera tog‘lari
H) Makkenzi daryosi

Javoblar:
1–F; 2–E; 3–G; 4–H; 5–A; 6–B; 7–D.

Quyidagi yozuvsiz xaritada raqamlar bilan belgilangan Kanadaning yirik shaharlari nomini aniqlang.



Javoblar
1– Monreal
2– Ottava
3– Toronto
4– Vankuver
5– Kvebek
6– Kalgari
7– Vinnipeg

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, ko‘nikma, malakalari,

kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan baholanadi. Dars oxirida uy vazifasi uchun topshiriqlar beriladi.

59-§. Braziliya

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
Braziliyaning geografik o‘rni, maydoni, chegaralari, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi, xo‘jaligi va tashqi iqtisodiy aloqalarini o‘rganish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatmalar, daftar.	Braziliyaning iqtisodiy-geografik o‘rnini izohlay oladi; mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda ularning xo‘jalikdagi ahamiyatini anglaydi; Braziliya xo‘jaligi va tashqi iqtisodiy aloqalarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar **ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.6.3. Dunyodagi yirik davlatlar aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish	10.2.1.2. Geografik xaritalar yordamida davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rnini baholaydi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqida ma’lumot oladi, ushbu ma’lumotlarni taqqoslaydi.	
Fanlararo bog‘lanish	Jahon tarixi, biologiya, davlat va huquq asoslari, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	Yangi mavzu faqat siyosiy xarita yordamida tushuntirilsa, o‘quvchilar Braziliya aholisi joylashuvi va mamlakat xo‘jaligi ixtisoslashuvida tabiiy sharoitning ta’sirini yaxshi tasavvur eta olmasligi mumkin.	
Tavsiya	O‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishlari va o‘zlashtirishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar bilan bir vaqtda tabiiy geografik xaritalardan ham o‘rinli foydalanish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. **Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)**

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. **O‘tilgan mavzuni mustahkamlash**

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi mashqdan foydalanish mumkin:

Topqirlik mashqi

Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.

1. Kanada hududining kattaligi bo‘yicha jahonda ... turadi. (2-o‘rinda)
2. Kanada 10 ta provinsiya va 3 ta hududdan iborat ... davlat. (federativ)
3. Kanada hududining ...sovuq iqlim zonasiga to‘g‘ri keladi. (75% i)
4. Kanadaga tug‘ilish va tabiiy ko‘payishning past darajasi xos bo‘lib, mamlakat aholisining o‘sishiga ko‘proq ... ta’sir ko‘rsatadi. (tashqi migratsiya)
5. Kanada aholisining o‘rtacha zichligi ... . (1 km^2 ga 4 kishi).

III bosqich. **Yangi mavzu bayoni**

Yangi mavzuni quyidagicha bayon qilish tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarga darslikdagi faollashtiruvchi savol berilib, ularning javoblari umumlashtiriladi va kamchiliklari izohlanadi;

➢ dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Braziliyaning geografik o‘rni va chegaralari haqida ma’lumot beriladi. Bevosita Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatiga ega ekani mamlakat iqtisodiyotida qanday o‘rin tutishi izohlab o‘tiladi;

➢ mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari hamda uning xo‘jalikdagi ahamiyati “Savol-javob” metodidan foydalangan holda tushuntiriladi;

➢ Braziliya aholisi soni va ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi, aholining hududiy tarqalishi va unga ta’sir ko‘rsatgan omillar suhbat metodi orqali bayon etiladi. Bunda aholi tabiiy ko‘payishi, urbanizatsiya darajasi, etnik tarkibi hamda zichligini aniqlash usullarini eslatib o‘tish maqsadga muvofiq;


➢ mamlakat iqtisodiy salohiyati, sanoati va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari hamda uning xalqaro savdodagi ishtiroki “Savol-javob” va “Suhbat” metodlari asosida tahlil qilinadi.

IV bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yangi mavzu darslikda berilgan tegishli savollarga javob topish va topshiriqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Ushbu vazifalar bajarilganidan so‘ng vaqt yetarli bo‘lsa, quyidagi metodni ham qo‘llash mumkin:

"Xarita bilan ishlash" metodi

Darslikda berilgan ma’lumotlardan foydalanib Braziliya shtatlari kesimida aholi zichligini tahlil qiling.



1) 300+ _____
2) 100–299 _____
3) 50–99 _____
4) 25–49 _____
5) 10–24 _____
6) 0–9 _____

V bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Yangi mavzu tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun topshiriqlar bajarilgandan so‘ng dars boshida qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbatlashiladi.

VI bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalari hamda jarayondagi umumiy faolligi va ijobiy intilishlari o‘qituvchi tomonidan baholanadi. Dars oxirida uy vazifasi uchun topshiriqlar beriladi.

60-§. Umumlashtiruvchi dars

Darsning maqsadi	Ta’lim vositalari	Darsdan kutiladigan natija
“Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika mamlakatlari” bobida o‘tilgan mavzularning tayanch mazmuniga doir topshiriqlarni bajarishni o‘rganish; amaliy ko‘nikmalar va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.	Darslik, o‘quv atlasi va yozuvsiz xarita, jahonning siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, daftar.	o‘quvchilar Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika mamlakatlarining iqtisodiy-geografik o‘rni va tabiiy sharoitini baholay oladi; ushbu davlatlar xo‘jaligining rivojlanish xususiyatlari va unga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qila oladi.
ISK6. Aholi va demografik jarayonlar **ISK8. Inson xo‘jalik faoliyati**	10.1.6.2. Jahonda urbanizatsiya (shaharlashuv) jarayonining mohiyatini tushunadi. 10.1.8.3. Dunyoning yirik mintaqa va davlatlari xo‘jaligining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.	
AK1. Globus va geografik xaritalardan foydalanish **AK2. Geografik hodisalarni kuzatish va geografiyaga oid masalalarni yechish**	10.2.1.1. Dunyo siyosiy xaritasidan davlatlar va yirik shaharlarni ko‘rsatadi. 10.2.2.1. Mamlakatlar aholisi va urbanizatsiyaga doir geografik masalalarni yechadi.	
Fanlararo bog‘lanish	Algebra, informatika va axborot texnologiyalari, chet tili.	
Ehtimoliy muammo	O‘quvchilar xaritadan ayrim davlatlar nomini aniqlashda vaqtdan unumli foydalanish bo‘yicha muammolarga duch kelishi mumkin.	
Tavsiya	Guruhlarda ishlashni samarali tashkil etish maqsadida bajariladigan ishlar ketma-ketligi va guruh a’zolari o‘rtasida ishni taqsimlash bo‘yicha o‘quvchilarga kerakli tushuntirishlar berib borish zarur.	

Darsning borishi:

I bosqich. Tashkiliy ishlar va o‘quv faoliyatiga yo‘naltirish (motivatsiya)

Salomlashish, davomat, o‘quvchilarni dars mashg‘ulotiga jalb qilish, ularni joriy dars mashg‘ulotining maqsadi, kutilayotgan natijalar, ahamiyati bilan tanishtirish.

II bosqich. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

O‘tilgan mavzuni mustahkamlashda quyidagi o‘yindan foydalanish mumkin:


“Adashtirdim, toping-chi?” o‘yini

Berilgan ma’lumotlardagi xatoliklarni to‘g‘rilab, jadvalni to‘ldiring.

Ma’lumotlar	Noto‘g‘ri	To‘g‘ri
Braziliya shimolida katta maydonni Orinoko pasttekisligi egallaydi.	Orinoko	Amazoniya
Braziliyaning katta qismi tropik va subekvatorial iqlim mintaqalarida joylashgan.		
Braziliya protestantlar soni bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda turadi.		
Braziliyada davlat tili va kundalik hayotda eng ko‘p ishlatiladigan til – ispan tili.		
Braziliya elektr energiyasini ishlab chiqarish bo‘yicha jahonning birinchi beshtaligiga kiradi.		
Braziliya chorvachiligida go‘sht yetishtirish va pillachilik yuqori darajada rivojlangan.		

Xotira mashqi

O‘tilgan mavzuga doir quyidagi toponimlarni izohlang.



III bosqich. Amaliy topshiriqlarni bajarish

Topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi. Bunda har qaysi guruhda iqtidorli o‘quvchilar va boshqa o‘quvchilarning teng taqsimlanishiga ahamiyat beriladi. O‘qituvchi har bir guruhda topshiriqlarning qanday bajarilishini kuzatib, zarur vaqtlarda o‘quvchilarga tegishli ko‘rsatmalarni berib turadi. Topshiriq bajarib bo‘lingach, uni tekshirib, o‘quvchilarni harakati va erishgan natijasiga muvofiq rag‘batlantirish tavsiya etiladi.

Darslikda berilgan tegishli topshiriqlarning javoblari:

1-topshiriq

Dengizga chiqish imkoniyatiga ega davlatlar: Gabon (**d**), Tanzaniya (**e**), Liviya (**f**), Mozambik (**h**), Kamerun (**i**).

Ichki kontinental davlatlar: Zambiya (**a**), Mali (**b**), Botsvana (**g**).

2-topshiriq

1 – Kanada; 2 – AQSH; 3 – Braziliya; 4 – Avstraliya; 5 – Avstraliya; 6 – AQSH; 7 – Kanada; 8 – Braziliya; 9 – AQSH; 10 – Braziliya; 11 – Kanada.

3-topshiriq

Davlatlar	Aholisi soni, mln kishi	Urbanizatsiya darajasi, %	Shahar aholisi soni, mln kishi	Qishloq aholisi soni, mln kishi
Avstraliya	25,8	86	*22,2*	*3,6*
AQSH	329,9	82	*270,5*	*59,4*
Kanada	38,2	81	*30,9*	*7,3*
Braziliya	211,8	87	*184,3*	*27,5*

IV bosqich. Refleksiya (erishilgan natijalar tahlili)

Amaliy topshiriqlar bajarib bo‘lingach, o‘quvchilar bilan mashg‘ulot jarayonida erishilgan natijalar, darsda qo‘yilgan maqsadga erishilgani borasida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

V bosqich. Baholash va uyga vazifa

O‘quvchilarning mashg‘ulotning turli bosqichlarida namoyon qilgan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalar hamda dars jarayonidagi umumiy faollik va ijobiy intilishlar baholanadi va uyga vazifa beriladi.

O‘quv nashri

Geografiya 10

O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma

Muharrir Orifjon Madvaliyev
Badiiy muharrir Sarvar Farmonov
Texnik muharrir Akmal Sulaymonov
Dizayner-sahifalovchi Ilnur Karadjayev
Musahhih Xurshid Ibrohimov

Bosishga 00.00.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60×84 ⅛.
Source Sans 3 garniturasi. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 22,32. Nashriyot-hisob tabog‘i 18,87.
Adadi _____ nusxa. Buyurtma № _____.